

MUNDARIJA:

bet

Kirish		5
I.Bob. Asosiy qism		8
1.1.	“Soliq tizimi” fanining maqsad va vazifalari	9
1.2.	“Yuridik shaxslarning soliqlari va soliqqa tortish” moduli tarkibidagi mavzularning mazmuni.Modul № 2: “Yuridik shaxslarning soliqlari va soliqqa tortish” mavzusi oʻz ichiga 6 ta mavzuni oladi	10
1.3.	“Yuridik shaxslarning soliqlari va soliqqa tortish” moduli tarkibidagi mavzusining o`quv maqsadlari	48
1.4.	“Yuridik shaxslarning soliqlari va soliqqa tortish” moduli tarkibidagi mavzularni o`qitishda dastlabki shart-sharoitlar tahlili	51
1.5.	“Yuridik shaxslarning soliqlari va soliqqa tortish” moduli tarkibidagi mavzularni o`qitish jarayonida o`quv-didaktik materiallardan foydalanish	57
1.6.	“Yuridik shaxslarning soliqlari va soliqqa tortish” moduli bo`yicha nazariy va amaliy mashg`ulotlarning ta`lim texnologiyasi va texnologik xaritasi	66
1.7.	“Yuridik shaxslarning soliqlari va soliqqa tortish” modulini o`qitishda interfaol usullarning mazmuni, ahamiyati vaafzalliklari	92
1.8.	“Yuridik shaxs tushunchasi. Yuridik shaxslardan olinadigan soliqlar” mavzusi o`qitishda “Paradokslar” usulini qo`llash	96
1.9.	“Yuridik shaxslarning soliqlari va soliqqa tortish” moduli bo`yicha nazariy bilim va amaliy ko`nikmalarni baholash	102
II.Bob. Hayot faoliyati xavfsizligi		104
2.1.	Hayot faoliyati xavfsizligi va mehnat muhofazasini tashkil etish masalalari	105
2.2.	Xavfsiz va sog`lom mehnat qilish sharoitini yaratish tadbirlari	109
Xulosa		115
Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati		118

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. O`zbekiston Respublikasining rivojlanishi, yangilanishi, kelajakda qanday bo`lishi yosh avlodning hap tomonlama yetukligiga, ya`ni ularning qay darajada barkamol shaxs sifatida tarkib topishlariga, o`zlarida ijodiy fazilatlarni mujassamlashtirishga, komil inson bo`lib yetishganligiga bog`liqdir. Bozor munosabatlari ko`lami tobora kengayayotgan hozirgi paytda Respublikamizga kirib kelayotgan yangi texnika va ilg`or zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish davr talabi bo`lib kelmoqda. Shu sababli bugungi davr talabidan kelib chiqqan holda ta`lim tizimidagi o`quv muassasalarida ishlovchi xodimlar oldida talaygina muammolar turadi.

Respublika mustaqilligining poydevorini mustahkamlashda, mamlakat taraqqiyotida, O`zbekistonning buyuk davlatga aylanishida ta`lim-tarbiya ishlarini yo`lga qo`yish, fuqarolarni zamonaviy ilm-fan, madaniyat, texnika va texnologiya yutuqlari bilan muntazam ravishda tanishtirib borish katta ahamiyatga ega. Ayni paytda yangicha fikrlaydigan, zamonaviy bilimlarga ega bo`lgan barkamol, tashkilotchi va zukko kadrlarga ega bo`lish, birinchi navbatda, ta`lim-tarbiya tizimini tubdan o`zgartirish, uni hozirgi davr talabi darajasiga ko`tarish zarur va muhimligini hayot taqozo etmoqda.

Kadrlar tayyorlash har bir mamlakatning taraqqiy etishi, buguni va ertasiga daxldor bo`lgan o`ta dolzarb muammolardandir. Mamlakatimizda kadrlar tayyorlashning muhim bo`g`ini – o`rta maxsus, kasb-hunar ta`limi tizimi bu borada o`zining noyob va samaradorligi bilan muhim o`rin tutadi. Voyaga yetayotgan har bir yigit-qiz muayyan kasb-hunarga ega bo`lishiga erishish, mehnat bozori talabi asosida eng munosib mutaxassislar tayyorlash – ushbu tizimning asosiy vazifalaridandir.

Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev o'z ma'ruzalarida "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz"¹– deb, alohida ta'kidlab o'tganlar.

Bugungi kunda milliy iqtisodiyotning barcha tarmoqlari kabi ta'lim sohasida ham ilg'or texnologiyalarni joriy etish va shu orqali ta'lim mazmunini jahon andozalari darajasiga olib chiqishga harakat qilinmoqda.

Hozirgi paytda oliy ta'lim muassalarida, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari yangi pedagogik va axborot texnologiyalarni qo'llash va zamonaviy o'quv uslubiy majmualarni ishlab chiqish muammolariga qaratilgan bir necha diqqatga sazovor ishlar amalga oshirilmoqda. Shuningdek, ta'lim tizimini takomillashtirish maqsadida xorijiy mamlakatlarning kasbiy ta'lim tajribalaridan foydalanilmoqda. Ushbu ishlarni amalga oshirish ta'lim sohasida xalqimizning boy merosi, buyuk mutafakkirlarimizning g'oyalari va davrimizning ilg'or yangiliklarini o'zida mujassamlashtirgan uslubiy tizimning yaratilishiga asos bo'lmoqda. Shu ma'noda ta'lim tizimida fan-texnika yutuqlarini qo'llash, zamonaviy axborotlardan voqif bo'lish, xalqaro internet tarmog'idan foydalanish bilan bir qatorda ta'lim jarayonlarini tashkillashtirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash ham alohida ahamiyatga ega.

Dars jarayonlarini to'g'ri tashkil qilish, talabalar faolligini oshirish, har bir mavzning talabalar ongiga tez va oson yetib borishi uchun o'qitishning interfaol usullarini qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Ayniqsa, bugungi kunda mamlakatimiz iqtisodiyotida muhim sohalardan biri bo'lgan soliq tizimi, ularning mamlakat iqtisodiyotidagi o'rni, ahamiyati, mohiyati, afzalliklari, qulayliklari va imkoniyatlari haqida talabalarga chuqur bilim berish

¹ Mirziyoyev Sh.M. "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston Davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz". Sh.Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oluy majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi.// Xalq so'zi. 2016 yil 15 dekabr.

maqsadida “Yuridik shaxslarning soliqlari va soliqqa tortish” mavzusini interfaol usullardan foydalangan holda talabalarga yetkazish davr talabidir.

Tadqiqotning asosiy maqsadi va vazifalari. Bitiruv malakaviy ishining asosiy maqsadi “Yuridik shaxslarning soliqlari va soliqqa tortish” mavzusini interfaol usullarni qo’llash yordamida o’qitish metodikasini ishlab chiqib, kasb-hunar kollejlariga tadbiq etish.

Qo’yilgan maqsadga muvofiq quyidagi vazifalar belgilangan:

- ✓ “Soliq tizimi” fanining maqsad va vazifalarini o’rganish;
- ✓ “Yuridik shaxslarning soliqlari va soliqqa tortish” mavzusining mazmunini yoritib berish va mavzuning o`quv maqsadlarini aniqlash;
- ✓ “Yuridik shaxslarning soliqlari va soliqqa tortish” mavzusini o`qitishda interfaol usullarning mazmuni, ahamiyati va afzalliklarini yoritib berish;
- ✓ “Yuridik shaxslarning soliqlari va soliqqa tortish” mavzusini o`qitishda interfaol usullarni qo’llash bo’yicha taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish;
- ✓ Kasb-hunar kollejlarida hayot faoliyati xavfsizligi va mehnatni muhofaza qilish masalalarini keng yoritib berish.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundan iboratki, tadqiqot natijalari kasb-hunar kollejlarida darslarni interfaol usullar yordamida tashkil etishda foydalanilishi mumkin.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi. Bitiruv malakaviy ishi kirish, 2 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar va ilovalardan iborat.

1.1. “Soliq tizimi” fanining maqsad va vazifalari

Mamlakatimizda iqtisodiyotni yuksaltirish davrida soliqlar va ularga tenglashtirilgan majburiy to'lovlar davlat xazinasining asosiy daromad manbasi hisoblanadi. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar soliq to'lovchi yuridik va jismoniy shaxslardan soliq qonunchiligiga ko'ra belgilangan tartibda undiriladi. O'zbekiston Respublikasi bosh Qomusining 5 chi va 23 chi moddalarida ham fuqarolarning burch va majburiyatlaridan biri sifatida qonun bilan belgilangan soliqlar va mahalliy yig'implarni to'lashning majburiyligi belgilab qo'yilgan. Ushbu majburiyatlarni bajarish uchun esa har bir fuqaro soliq tizimi munosabatlariga doir yetarli darajada bilim va ko'nikmaga ega bo'lishlari lozim bo'ladi.

“Soliq tizimi” kursni o'qitishning zarurligi bozor iqtisodiyoti munosabatlari ichida soliq munosabatlarining ahamiyati o'sib borayotganligidan kelib chiqadi. “Soliq tizimi” maxsus kursi soliq voqeliklarini chuqur o'rganish asosida zaruriy xulosalar chiqarib, ularni amaliyotga tadbiiq etish yo'llarini o'rgatadi.

“Soliq tizimi” fanining asosiy maqsadi – talabalarda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar to'g'risidagi tasavvurni hosil qilish va soliq to'lovchilardan undiriladigan soliq hamda majburiy to'lovlarning huquqiy asoslarini, soliq majburiyati, soliq nazorati, soliqqa oid huquqbuzarliklar va ularga nisbatan qo'llaniladigan jazo choralari bo'yicha bilimlarni shakllantirishdan iboratdir.

“Soliq tizimi” fanining asosiy vazifasi – soliqlarning mohiyatini, ulaming zarurligini, soliq elementlari va funktsiyalarini, soliq siyosatini, soliqqa tortish va to'lash tartiblarini, xorijiy mamalakatlar soliq tizimlarini, soliq tizimining nazariy jihatlarini o'rgatish va amaliy ko'nikmalarini shakllantirishdan iboratdir.

Fanni o'rganishda mamlakatimizdagi va jahon mamlakatlaridagi zamonaviy soliq tizimidagi o'zgarishlar to'g'risidagi ma'lumotlardan keng foydalanish lozim. Bunda Xalqaro Internet tizimi, Xalqaro soliq uyushmasi va boshqa ko'plab xalqaro

iqtisodiy va gumanitar tashkilotlarning materiallaridan foydalanish ijobiy natijalar beradi.

1.2. “Yuridik shaxslarning soliqlari va soliqqa tortish” moduli tarkibidagi mavzularning mazmuni.

Modul № 2: “Yuridik shaxslarning soliqlari va soliqqa tortish” mavzusi o’z ichiga 6 ta mavzuni oladi.

1. Yuridik shaxs tushunchasi. Yuridik shaxslardan olinadigan soliqlar.
2. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda soligi, uni hisoblash va byudjetga to’lash tartibi.
3. O’zbekiston Respublikasi norezidentlarining foydasiga soliq solishning o’ziga xos xususiyatlari.
4. Egri soliqlarni hisoblash va byudjetga to’lash tartibi.
5. Resurs to’lovlarini hisoblash va to’lash tartibi
6. Mahalliy soliqlarni va yig’imlarni hisoblashva to’lash tartibi.

Mavzu 1.2.1. Yuridik shaxs tushunchasi. Yuridik shaxslardan olinadigan soliqlar

Reja:

1. Yuridik shaxs tushunchasi. Yuridik shaxslarni soliqqa tortish tartibi.
2. Yuridik shaxsdan undiriladigan soliqlar, yig’imlar va soliqlarga tenglashtirilgan to’lovlar.
3. Yuridik shaxslarni soliqqa tortishning asosiy tamoyillari.

Tayanch iboralar: yuridik shaxs, tijoratchi tashkilotlar, notijorat tashkilotlari, soliq to’lovchilar, soliq agentlari, vakolatli organlar, davlat soliq xizmati organlari, bojxona organlari, moliya organlari, soliq solish, to’g’ri soliq, egri soliq, yig’imlar, soliq tizimi, soliqqa tortish tamoyillari.

Adabiyotlar: (Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxatida.)

1. Yuridik shaxs tushunchasi. Yuridik shaxslarni soliqqa tortish tartibi.

Yuridik shaxs - fuqarolik huquq va majburiyatlarining sub’yektlari hisoblanuvchi korxonalar, muassasa, tashkilotlar. O’zbekiston Respublikasi fuqarolik qonunchiligiga ko’ra, yuridik shaxs o’z mulkida, xo’jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo’lgan hamda o’z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o’z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo’la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni

bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilotdir. Yuridik shaxslar mustaqil balans yoki smetaga ega bo'lishlari kerak.

O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksida yuridik shaxslarning quyidagi 2 turi farqlanadi:

1) tijoratchi tashkilotlar, ya'ni foyda olishni o'z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olgan tashkilotlar. Masalan, xususiy korxonalar, xo'jalik shirkatlari va jamiyatlari;


2) tijoratchi bo'lmagan tashkilotlar, ya'ni foyda olishni o'z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olmagan tashkilotlar. Masalan, jamoat birlashmalari, ijtimoiy fond va mulkdor tomonidan moliyaviy ta'minlab turiladigan muassasa shaklida, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari.

Yuridik shaxs o'zining ta'sis hujjatlarida nazarda tutilgan faoliyati maqsadlariga muvofiq fuqarolik huquq layoqatiga ega bo'ladi. Yuridik shaxslarning huquq layoqati u tuzilgan paytdan, ya'ni davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan boshlab vujudga keladi va uning faoliyati tugashi (tugatilishi) bilan tugaydi. Yuridik shaxs ustav asosida yoki ta'sis shartnomasi va ustav asosida yoxud faqat ta'sis shartnomasi asosida ish olib boradi. Qonunda nazarda tutilgan hollarda tijoratchi tashkilot bo'lmagan yuridik shaxs shu turdagi tashkilotlar haqidagi nizom asosida ish olib borishi mumkin. Yuridik shaxs qonunlarga va ta'sis hujjatlariga muvofiq ish olib boradigan o'z organlari orqali fuqarolik huquqlariga ega bo'ladi va zimmasiga fuqarolik burchlarini oladi. Yuridik shaxs organlarini tayinlash yoki saylash tartibi qonunlar va ta'sis hujjatlari bilan belgilanadi. Qonunda nazarda tutilgan hollarda Yuridik shaxs o'z ishtirokchilari orqali fuqarolik huquqlariga ega bo'lishi va fuqarolik burchlarini o'z zimmasiga olishi mumkin.

Yuridik shaxs o'zining tashkiliy-huquqiy shaklini bildiradigan nomiga ega bo'ladi. Tijoratchi bo'lmagan tashkilotlar, unitar korxonalarining nomlari, qonunda nazarda tutilgan hollarda esa - boshqa tijoratchi tashkilotlarning ham nomlari yuridik shaxs faoliyatining xususiyatini ko'rsatishi kerak. Yuridik shaxs nomiga to'la yoki qisqartirilgan rasmiy nomni (davlatning nomini) kiritishga, yuridik shaxs hujjatlarining rekvizitlariga yoki reklama materiallariga ana shunday nomni yoxud

davlat ramzlari elementlarini qo'shishga O'zbekiston Respublikasi Hukumati belgilaydigan tartibda yo'l qo'yiladi. Yuridik shaxsning joylashgan yeri, agar qonunga muvofiq yuridik shaxsning ta'sis hujjatlarida boshqacha tartib belgilangan bo'lmasa, u davlat ro'yxatidan o'tkazilgan joy bilan belgilanadi. Yuridik shaxs o'zi bilan bo'ladigan aloqa amalga osiriladigan pochta manziliga ega bo'lishi lozim hamda o'zining pochta manzili o'zgarganligi to'g'risida vakolatli davlat organlarini xabardor etishi shart. Yuridik shaxsning nomi va joylashgan yeri (pochta manzili) uning ta'sis hujjatlarida ko'rsatiladi. Tijoratchi tashkilot bo'lgan yuridik shaxs o'z firma nomiga ega bo'lishi lozim. Yuridik shaxs o'z firmasining nomidan mutlaq foydalanish huquqiga egadir.

Soliq to'lovchilar soliq qonunchiligiga muvofiq zimmasiga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash majburiyati yuklatilgan yuridik shaxslar va ularning alohida bo'linmalaridir.



1.1-rasm. Yuridik shaxslarning o'ziga xos xususiyatlari

Soliq agentlari soliq qonunchiligiga muvofiq zimmasiga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblab chiqqarish, soliq to'lovchidan ushlab qolish hamda byudjetga va davlat maqsadli jamg'armalariga o'tkazish majburiyati yuklatilgan shaxslardir.

Soliq to'lovchining vakillari qonunga yoki ta'sis hujjatiga muvofiq soliq to'lovchining vakili bo'lishga vakolatli shaxslardir.

Vakolatli organlar quyidagilardir:

1. Davlat soliq xizmati organlari.
2. Bojxona organlari.
3. Moliya organlari.
4. Boshqa majburiy to'lovlarni undirish vazifasini amalga oshiruvchi davlat organlari va tashkilotlari.

Vakolatli organlar



1.2-rasm. Vakolatli davlat organlari

Yuridik shaxslarni davlat byudjeti bilan o'zaro moliyaviy munosabatlarini tashkil qilishda soliqlar alohida o'ringa egadir. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar vositasida yuridik shaxslarning daromadlari davlatning markazlashtirilgan pul fondlariga mobilizatsiya qilinadi. Soliq majburiyatini bajarish bevosita soliq to'lovchi tomonidan amalga oshiriladi. Yuridik shaxsning alohida bo'linmalari bo'yicha soliq majburiyati mazkur alohida bo'linmalar tomonidan, agar ularga alohida mol-mulk ajratilgan bo'lsa va ular mustaqil balansga ega bo'lsa, mustaqil ravishda belgilanadi.

Soliq solish – yuridik shaxslarga nisbatan mulkchilik shaklidan qat'i nazar, qonun oldida tenglik, jismoniy shaxslarga nisbatan esa jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, qonun oldida tenglik asosida amalga oshiriladi.

2. Yuridik shaxsdan undiriladigan soliqlar, yig'imlar va soliqlarga tenglashtirilgan to'lovlar

Soliq munosabatlari mavjud bo'lishining asosiy shartlaridan biri - bu davlatning mavjudligi bo'lsa, ikkinchi sharti bo'lib soliqlarni to'lashga qobil bo'lgan soliq

to'lovchilarning mavjudligidir. O'zbekiston soliqlar tizimi manbaiga qarab soliqlar yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan soliq'larga ajratiladi.

O'zbekiston Respublikasining soliq kodeksida belgilangan soliqlar va majburiy to'lovlarning aksariyati yuridik shaxslardan undiriladigan soliqlar va majburiy to'lovlarni tashkil etadi (1.3- rasm).

Yuridik shaxslardan olinadigan soliq'larga hamma egri soliqlar, korxonalar daromadiga soliq, yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun, suv resurslaridan foydalanganlik uchun, ekologiya, savdo tashkilotlarini yalpi daromad solig'i, yer solig'i, mol-mulk solig'i, kichik biznes uchun yagona soliq va boshqalar kiradi. Bu soliq'larning muhim xususiyati naqd pulsiz shaklda korxonalar hisob schyotlaridan byudjet schyotlariga ko'chirib qo'yiladi. Uni undirish oson va arzon tushadi.

To'g'ri soliqlar daromad (foyda) soliqlari va resurslar soliqlaridan tashkil topadi. Egri soliqlar esa qo'shilgan qiymat solig'i, aktsiz solig'i, bojxona bojidan iboratdir. Yuridik shaxslarning bu soliqlari byudjet daromadlarini asosiy qismini tashkil etadi.


Umuman olganda mamlakatimiz soliq qonunchiligidan kelib chiqib soliqqa tortish nuqtai-nazaridan yuridik shaxslarni shartli ravishda quyidagicha guruhlashimiz mumkin:

1. Umumiy tartibda soliq to'lovchi yuridik shaxslar;
2. Mikrofirmalar va kichik korxonalar;
3. Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari;
4. Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari;
5. Lotereyalar, totalizatorlar va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o'yinlar o'tkazishga ixtisoslashgan yuridik shaxslar;
6. Tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslar.

Umumiy tartibda soliq to'lovchi yuridik shaxslar quyidagi soliq'larni to'laydi:

- Daromad (foyda) solig'i;
- Qo'shilgan qiymat solig'i;
- Aktsiz solig'i;
- Mol-mulk solig'i;

- Yer solig'i;
- Yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq;
- Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;
- Obodonlashtirish va infratuzilmani rivojlantirish uchun soliq.



1.3-rasm. Yuridik shaxslar tomonidan to`lanadigan soliqlar va boshqa majburiy to`lovlar.

Yagona soliq to`loviga o`tgan kichik korxonalar va mikrofirmalar quyidagi soliqlarni to`laydi:

- yagona soliq to`lovi;
- aktsiz osti tovarlarini ishlab chiqargan holda aktsiz solig'i;

- yer osti boyliklaridan foydalanganda yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq.

Qishloq xo`jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari quyidagi soliqni to`laydi:

- Yagona yer solig'i.

Tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari (sartaroshxona, billiardlar, o`yin avtomatlari) bilan shug`ullanuvchi yuridik shaxslar quyidagi soliqni to`laydi:

- Qat`iy soliq.

Shuningdek yuqoridagi barcha yuridik shaxslar quyidagi yig`imlar, bojlar va boshqa majburiy to`lovlarni ham to`laydilar:

Bojxona to`lovlari (bojxona bojlari va yig`imlari, aktsiz solig'i va tovarlarni import qilishda qo`shilgan qiymat solig'i);


- Davlat bojlari;

- Savdo huquqini beruvchi yig`imlar, shu jumladan tovarlarning ayrim turlari bilan savdo qilish huquqi uchun yig`imlar;

- Davlat maqsadli fondlariga ajratmalar (byudjetdan tashqari pensiya fondi, respublika yo`l fondi, bandlik fondi);

- Ro`yxatga olganlik uchun yig`im.

Yuridik shaxslardan undiriladigan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning turlari



1.4-rasm. Yuridik shaxslardan undiriladigan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning turlari

Yuqorida qayd etilganlardan xulosa qilib aytishimiz mumkinki, mamlakatimiz soliq qonunchiligiga muvofiq soliq to'lovchilar ikki katta guruhga, ya'ni yuridik va jismoniy shaxslar guruhiga bo'linadi va ularning faoliyat ko'rsatish xususiyatidan kelib chiqib yana tarkibiy qismlarga ajratish mumkin. Respublikamiz davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda yuridik shaxslar to'laydigan soliqlar katta ahamiyatga egaligini yuqoridagi ma'lumotlardan bevosita ko'rishimiz mumkin.

3. Yuridik shaxslarni soliqqa tortishning asosiy tamoyillari.

Yuridik shaxslarni soliqqa tortish soliq solishning majburiyligi, aniqligi, adolatliligi, soliq tizimining yagonaligi, soliq to`g`risidagi qonun hujjatlarining oshkoraligi va soliq to`lovchining haqligi prezumtsiyasi printsiplariga asoslanadi.

Soliq solishning majburiyligi tamoyili - har bir shaxs soliq qonunchiligida belgilangan soliqlar va boshqa majburiy to`lovlarni to`lashi shart.

Hech kimning zimmasiga soliq qonunchiligida nazarda tutilmagan yoki uning normalari buzilgan holda belgilangan soliqlar va boshqa majburiy to`lovlarni to`lash majburiyati yuklatilishi mumkin emas.

Soliq solishning aniqligi tamoyili - soliqlar va boshqa majburiy to`lovlar aniq bo`lishi kerak. Soliq to`g`risidagi qonun hujjatlari har bir soliq to`lovchi qaysi soliqlar va boshqa majburiy to`lovlarni, qachon, qancha miqdorda hamda qay tartibda to`lashi kerakligini aniq biladigan tarzda ifodalangan bo`lishi kerak.

Soliq solishning adolatliligi tamoyili - soliq solish umumiydir.

Soliqlar va boshqa majburiy to`lovlar bo`yicha imtiyozlarni belgilash ijtimoiy adolat printsiplariga mos bo`lishi kerak. Soliqlar va boshqa majburiy to`lovlar bo`yicha yakka tartibdagi xususiyatga ega bo`lgan imtiyozlar berilishiga yo`l qo`yilmaydi.

Soliqlar va boshqa majburiy to`lovlar kamsitish xususiyatiga ega bo`lishi mumkin emas hamda ijtimoiy, irqiy, milliy, diniy va boshqa shu kabi mezonlardan kelib chiqqan holda qo`llanilishi mumkin emas.

Soliq tizimining yagonaligi tamoyili - soliq tizimi O`zbekiston Respublikasining butun hududida barcha soliq to`lovchilarga nisbatan yagonadir.

O`zbekiston Respublikasining bojxona hududi doirasida tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) yoki moliyaviy mablag`larning erkin muomalada bo`lishini bevosita yoki bilvosita cheklab qo`yadigan soliqlar va boshqa majburiy to`lovlar belgilanishiga yo`l qo`yilmaydi.

Soliq to`g`risidagi qonun hujjatlarining oshkoraligi tamoyili-soliq solish masalalarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar rasmiy nashrlarda e`lon qilinishi shart. Barchaning e`tibori uchun rasmiy e`lon qilinmagan normativ-huquqiy

hujjatlar kuchga kiritilmagan hujjat sifatida huquqiy oqibatlarni keltirib chiqarmaydi va soliq sohasidagi munosabatlarni tartibga solishga, ulardagi ko'rsatmalar bajarilmaganligi uchun biron bir sanksiyani qo'llashga asos bo'lib xizmat qilishi mumkin emas.

Soliq to'lovchining haqligi prezumptsiyasi tamoyili - soliq to'g'risidagi qonun hujjatlaridagi bartaraf etib bo'lmaydigan barcha qarama-qarshiliklar va noaniqliklar soliq to'lovchining foydasiga talqin qilinadi.

Mavzu 1.2.2. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda soligi, uni hisoblash va byudjetga to'lash tartibi.

Reja:

1. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining iqtisodiy mohiyati soliq tizimidagi o'rni.

2. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i to'lovchilari tarkibi va soliq solish ob'yekti.

3. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i bo'yicha имтиёзлар ва soliq stavkalari.

4. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini hisoblash va davlat byudjetiga o'tkazish tartibi.

Tayanch iboralar: foyda solig'i, rezident, nerezident, foyda solig'ining ob'yekti, jami daromad, daromaddan chegirmalar, moddiy xarajatlar, foyda solig'i imtiyozlari, soliq stavkalari, foyda solig'ini hisoblash, byudjetga o'tkazish.

Adabiyotlar: (Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida)

1. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining iqtisodiy mohiyati va soliq tizimidagi o'rni.

Yuridik shaxslarning to'laydigan soliqlari ichida ularning daromadi (foydasiga) soliq byudjet daromadlari tarkibida katta o'rin egallaydi. Bu soliq to'g'ri soliq bo'lganligi uchun xo'jalik sub'yektlarining to'g'ridan-to'g'ri moliyaviy ahvoli bilan bog'liq.

Yuridik shaxslarning daromad (foyda)siga soliq - bu korxonalar, birlashmalar va tashkilotlar daromadi (foydasiga)ning bir qismini byudjetga majburiy to'lov munosabatini bildiradi.

Foyda solig'i umumdavlat solig'i hisoblanib, Respublika byudjetining daromad manbai hisoblanadi. Shuningdek, tartibga soluvchi soliqlar qatorida me'yoriy ajratmalar asosida mahalliy byudjetlarga ham beriladigan soliq hisoblanadi.

Foyda solig'ining iqtisodiy mohiyati va xususiyatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- foyda solig'i bevosita soliq sifatida soliq to'lovchilarning moliyaviy xo'jalik faoliyatiga to'g'ridan to'g'ri ta'sir qiladi;

- ushbu soliq bo'yicha soliq yuki soliq to'lovchi yuridik shaxs zimmasiga yuklanadi;

- foyda solig'i xo'jalik sub'yektlarining asosiy moliyaviy natijasi hisoblanuvchi foydadan undiriladi, ya'ni soliqning manbai korxonalarining moliyaviy natijasi hisoblanadi;

- foyda solig'i umumdavlat solig'i hisoblansada, tartibga soluvchi soliq sifatida mahalliy byudjetlar daromadlarini shakllantirishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Foyda solig'ining soliq tizimidagi tutgan o'rni alohida ahamiyatlidir.

2. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i to'lovchilari tarkibi va soliq solish ob'yekti

Yuridik shaxslar daromadlaridan undiriladigan soliq O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi va boshqa me'yoriy hujjatlar asosida olib boriladi. Soliq kodeksi bo'yicha daromad (foydaga) ega bo'lgan yuridik shaxslargina bu soliqni to'lovchilari bo'ladi.

Foyda solig'i to'lovchi yuridik shaxslar quyidagilardir:

- O'zbekiston Respublikasining rezidentlari;
- O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan yoki hosil bo'lish manbai O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan daromatlarni oladigan O'zbekiston Respublikasi norezidentlari. h

Quyidagilar yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i to'lovchilar bo'lmaydi:

- notijorat tashkilotlar. Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotganda notijorat tashkilotlar o'zi tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishdan olingan foydadan soliq to'lovchi bo'ladi;
- soliq solishning soddalashtirilgan tartibi nazarda tutilgan yuridik shaxslar.

Foydaga soliq to'lovchilarni to'liq tushunish uchun ularni iqtisodiyot sohalari bo'yicha ham soliq to'lovchilar bo'lishligini inobatga olish zarur. Masalan, sanoat, qurilish, transport, kommunal xo'jaligi va boshqalar kiradi.

Yuridik shaxslar foydasiga soliq to'lovchilari bo'lishi uchun quyidagi shartlarga javob berishi kerak:

1. biror ruxsat etilgan faoliyatdan daromad (foydaga) olishi;
2. o'zining mulkiga ega bo'lishi;
3. mustaqil tugallangan buxgalteriya balansiga ega bo'lishi;
4. bankda hisob raqamiga ega bo'lishi;
5. identifikatsion raqamga ega bo'lishi.
6. hokimiyatdan ro'yxatdan o'tgan bo'lishi shart.

Umumiy tartib bo'yicha yuridik shaxslar shu shartlarga javob bersagina foydaga soliq to'lovchilar bo'lib hisoblanadilar.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining ob'yekti quyidagilardir:

- O'zbekiston Respublikasi rezidentlarining, shuningdek O'zbekiston

Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshiruvchi O`zbekiston Respublikasi norezidentlarining foydasi;

- O`zbekiston Respublikasi rezidentlarining va O`zbekiston Respublikasi norezidentlarining soliq bo`limga muvofiq chegirmalar qilinmagan holda to`lov manbaida soliq solinadigan daromadlari.

Soliq solinadigan baza jami daromad chegirib tashlanadigan xarajatlar o`rtasidagi farq sifatida, soliq solinadigan foydaning kamaytirilishi hisobga olingan holda hisoblab chiqarilgan soliq solinadigan foydadan kelib chiqib belgilanadi.

O`tgan soliq davrlariga tegishli, joriy soliq davriga o`tkazilishi lozim bo`lgan zararlar mavjud bo`lsa, soliq solinadigan baza o`tkaziladigan zararlar summasiga kamaytiriladi.

Yuridik shaxslarning foydaga solig'i bo`yicha soliqni to`liq, to`g`ri aniqlash uchun ularning jami daromadlariga nimalar kirishini mukammal o`rganish zarur bo`ladi.

Jami daromadga quyidagilar kiradi:

- tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olinadigan daromadlar;
- boshqa daromadlar.

Soliq to`lovchining qiymati chet el valyutasida ifodalangan daromadlari milliy valyutada olingan daromadlar bilan jamlangan holda, buxgalteriya hisobi to`g`risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda hisobga olinadi.

O`zbekiston Respublikasidagi to`lov manbaida soliq solinadigan dividendlar va foizlar jami daromaddan chegirib tashlanadi.

Soliq solinadigan foydani aniqlashda jami daromaddan quyidagi chegirmalar ayirib tashlanadi:

1. moddiy xarajatlar;
2. mehnatga haq to`lash xarajatlari;
3. amortizatsiya xarajatlari;
4. boshqa xarajatlar;
5. Soliq Kodeksning 146-moddasiga muvofiq kelgusida soliq solinadigan

foydadan chegirib tashlanadigan hsobot davridagi xarajatlar. Soliq to'lovchining Soliq moddasining oltinchi qismida ko'rsatib o'tilgan xarajatlari, agar ular Soliq Kodeksning 147-moddasida ko'rsatilgan chegirib tashlanmaydigan biron bir xarajat tarkibida hisobga olinsa (uning bir qismi bo'lsa), chegirib tashlanadigan xarajatlar bo'lmaydi.

3. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i bo'yicha imtiyozlar va soliq stavkalari

Soliq kodeksiga ko'ra foyda solig'idan beriladigan imtiyozlarni 3 guruhga bo'lib ko'rsatish mumkin:

1. Soliqdan to'liq ozod etiladigan yuridik shaxslar va ularning daromadlari;
2. Soliqdan vaqtincha ozod etiladigan yuridik shaxslar va ularning daromadlari;
3. Yuridik shaxslarning soliqqa tortiladigan daromadlarining kamaytirilishi.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini to'lashdan quyidagi yuridik shaxslar to'liq ozod qilinadi:

- 1) nogironlarning jamoat birlashmalari;
- 2) davolash muassasalari huzuridagi davolash-ishlab chiqarish ustaxonalari;
- 3) jazoni ijro etish muassasalari;
- 4) ichki ishlar organlari huzuridagi qo'riqlash bo'linmalari.

Yuridik shaxslardan olinadigan daromad solig'i stavkasi 1998 yilda 36 foizni tashkil etgani holda 2001 yilda 26 foizga tushgan. 2002 yilga esa 24 foiz, 2003 yilda 20 foiz, 2004 yilda 18 foiz, 2005 yilda 15 foiz, 2006 yilda 12 foiz va 2007 yilda 10 foiz va 2016 yilda 7,5 foiz qilib belgilangan.

Quyidagi jadval ma'lumotlarida 2016 yilda yuridik shaxslarning foydasiga soliq stavkalari keltirilgan.

**Yuridik shaxslar foydasiga solinadigan soliq
STAVKALARI**

To'lovchilar	Soliq solinadigan bazaga nisbatan %da soliq stavkalari
Yuridik shaxslar (2-3 bandlardagidan tashqari)	7,5
Tijorat banklari	15
Auksionlar o'tkazishdan, gastrol'-kontsert faoliyati bilan shug'ullanishga litsenziyasi bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslarni (shuningdek, norezidentlarni) jalb etish yo'li bilan ommaviy tomosha tadbirlarini tashkil etishdan daromad oluvchi yuridik shaxslar	35
O'zi ishlab chiqargan tovarlar (ish, xizmatlar) eksportining erkin almashtiriladigan valyutadagi hissasi quyidagi miqdorlarni tashkil etadigan eksport qiluvchi korxonalar uchun (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997 yil 12 oktyabrdagi PF-1871 soni farmoni bilan tasdiqlangan xomashyo tovarlari ro'yxatidagilar bundan istisno):	
sotishning umumiy hajmida 15 foizdan 30 foizgacha	belgilangan stavka 30% ga pasaytiriladi
sotishning umumiy hajmida 30 foiz va undan yuqori	belgilangan stavka 50% ga pasaytiriladi
1-bandda ko'rsatilgan xizmat ko'rsatish sohasi korxonalarini uchun, plastik kartalar qo'llab haq to'langan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi bo'yicha	belgilangan stavka 10% ga pasaytiriladi

O'zbekiston Respublikasi rezidentlariga dividend va foizlar ko'rinishida to'lanadigan daromadlardan olinadigan soliq stavkasi 10 foiz miqdorida saqlab qolindi. Amaldagi soliq qonunchiligiga ko'ra norezident soliq to'lovchining daromadini Chet elga o'tkazilayotganda 10 foiz miqdorida foydaga soliq undiriladi.

4. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini hisoblash va davlat byudjetiga o'tkazish tartibi.

Yuridik shaxslarning jami daromadlari tarkibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 5 fevraldagi 54-son qarori bilan tasdiqlangan "Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarini shakllantirish tartibi to'g'risida"gi Nizom bilan aniqlanadi va qo'yidagi ketma-ketlikdagi ko'rsatkichlar bilan ifodalanadi:

1) mahsulotni sotishdan olingan yalpi foyda

$$YAF=SST-IT$$

bunda: YAF-yalpi foyda,

SST-sotishdan olingan sof tushum,

IT-sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi;

2) asosiy faoliyatdan olingan foyda.

$$AFF=YAF-DX+BD-BZ'$$

bunda: AFF-asosiy faoliyatdan olingan foyda,

DX-davr xarajatlari,

BD-asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar,

B3-asosiy faoliyatdan ko`rilgan boshqa zararlar.

3) umumxo`jalik faoliyatidan olingan foyda (yoki zarar).

$$UF=AFF+MD-MX$$

bunda: UF-umumxo`jalik faoliyatidan olingan foyda;

MD-moliyaviy faoliyatdan daromadlar;

MX-moliyaviy faoliyat xarajatlari;

4) soliq to`languncha olingan foyda.

$$STF=UF+FP-F3,$$

bunda: STF-soliq to`laguncha olingan foyda;

FP-favqulodda vaziyatdan olingan foyda;

F3-favqulodda vaziyatdan ko`rilgan zarar.

Yilning sof foydasi, korxonada foyda solig'ini va undan keyin obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ini to`lagandan so`ng korxonaning o`zida qoladi.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini hisoblab chiqarish ushbu Kodeksning 128-moddasiga muvofiq hisoblab chiqarilgan soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining hisob-kitobi, agar ushbu moddada boshqacha qoidalar nazarda tutilmagan bo`lsa, davlat soliq xizmati organlariga ortib boruvchi yakun bilan yilning har choragida hisobot choragidan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay,

yil yakunlari bo'yicha esa, yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatda taqdim etiladi.

O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasi norezidentlari doimiy muassasa joylashgan joydagi davlat soliq xizmati organiga O'zbekiston Respublikasidagi faoliyatining xususiyati haqidagi hisobotni (erkin shaklda), shuningdek yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining hisob-kitobini chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar uchun yillik moliyaviy hisobotni topshirish uchun belgilangan muddatlarda taqdim etadi. Bunda yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining hisob-kitobida byudjetga to'lanadigan sof foydadan olinadigan soliq summasi alohida satrda ko'rsatiladi. Faoliyat kalendar' yil tugashidan avval tugatilgan taqdirda, bu hujjatlar faoliyat tugatilganidan keyin bir oydan kechiktirmasdan taqdim etilishi shart.

Hisobot davri mobaynida soliq to'lovchilar yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini joriy to'lovlarni kiritish orqali to'laydilar, Soliq moddasining to'rtinchi qismida ko'rsatilgan soliq to'lovchilar bundan mustasno.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i bo'yicha joriy to'lovlarning summasini aniqlash uchun soliq to'lovchilar joriy hisobot davri birinchi oyining 10-kunigacha davlat soliq xizmati organiga joriy hisobot davri uchun taxmin qilinayotgan soliq solinadigan foydadan va yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining belgilangan stavkasidan kelib chiqib hisoblangan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining summasi haqida ma'lumotnoma taqdim etadilar.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i bo'yicha joriy to'lovlar har oyning 10-kunidan kechiktirmay ushbu moddaning ikkinchi qismiga muvofiq hisoblab chiqarilgan yil choragi bo'yicha yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i summasining uchdan bir qismi miqdorida to'lanadi.

Mavzu 1.2.3. O'zbekiston Respublikasi norezidentlarining foydasiga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari

Reja:

1. O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshiradigan O'zbekiston Respublikasi norezidentlarining foydasiga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari.

2. O'zbekiston Respublikasi norezidentlarining doimiy muassasa bilan bog'liq bo'lmagan daromadlariga soliq solish.

3. O'zbekiston Respublikasi norezidentlarining daromadlariga to'lov manbaida soliq solish stavkalari.

Tayanch iboralar: norezident, norezident foydasi, norezidentlarning foydasiga soliq, sof foyda, foyda solig'i imtiyozlari, soliq stavkalari.

Adabiyotlar: (Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida)

1. O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshiradigan O'zbekiston Respublikasi norezidentlarining foydasiga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari

O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan yuridik shaxs - O'zbekiston Respublikasi norezidentining soliq solinadigan foydasini aniqlashda foyda solig'ini hisoblab chiqarish maqsadi uchun soliq solinadigan foyda summasi O'zbekiston Respublikasi soliq kodeksi nazarda tutilgan xarajatlar summasining 10 foizidan kam bo'lishi mumkin emas.

Norezident-yuridik shaxsning doimiy muassasasiga foyda solig'iga qo'shimcha ravishda ushbu doimiy muassasaning chet elga o'tkazadigan daromadidan 10 foiz miqdorida soliq olinadi. Chet ellik yuridik shaxslarga O'zbekiston Respublikasi hududida O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida belgilangan xususiyatlarni hisobga olgan holda Soliq Kodeksiga muvofiq soliq solinadi.

O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan yuridik shaxs - O'zbekiston Respublikasi norezidentining daromadlariga doimiy muassasa faoliyati bilan bog'liq bo'lgan barcha turdagi daromadlar kiradi. O'zbekiston Respublikasi norezidentining doimiy muassasa orqali amalga oshirishdan olingan daromadlari bilan bevosita bog'liq bo'lgan, ular

O`zbekiston Respublikasida yoki uning tashqarisida qilinganligidan qat`iy nazar, barcha turdagi xarajatlari kiradi.

Yuridik shaxs - O`zbekiston Respublikasining norezidenti doimiy muassasaga quyidagilar sifatida taqdim etilgan summalarni doimiy muassasaga chegirishga kiritish huquqiga ega emas:

1. O`zbekiston Respublikasi ushbu norezidentining mol-mulkidan va intellektual mulk ob`yektlaridan foydalanganlik yoki foydalanish huquqini berganlik uchun olinadigan royalti, gonorarlar, yig`imlar va boshqa to`lovlar;

2. ushbu norezidentning xizmatlari uchun vositachilik daromadlari;

3. ushbu norezident tomonidan berilgan zayomlar bo`yicha pul mukofotlari;

4. shu norezidentning O`zbekiston Respublikasidagi faoliyatidan olinadigan daromadlari bilan bog`liq bo`lmagan xarajatlar;

5. hujjatlar bilan tasdiqlanmagan xarajatlar;

6. O`zbekiston Respublikasi ushbu norezidentining O`zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida qilingan boshqaruv va ma`muriy xarajatlari.

O`zbekiston Respublikasining rezidenti bo`lmagan yuridik shaxslarga O`zbekiston hududidagi manbalardan olgan daromadlari bo`yicha soliq solinadi.

O`zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshiradigan O`zbekiston Respublikasi norezidentining yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig`iga qo`shimcha ravishda sof foydasiga ham 10 foizli stavka bo`yicha soliq solinadi.

Sof foyda deganda O`zbekiston Respublikasining norezidenti tomonidan O`zbekiston Respublikasida doimiy muassasa orqali amalga oshiriladigan faoliyatdan olingan, yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig`ining hisoblangan summasi chegirib tashlangan foyda tushuniladi.

2. O`zbekiston Respublikasi norezidentlarining doimiy muassasa bilan bog`liq bo`lmagan daromadlariga soliq solish

O`zbekiston Respublikasi norezidentining doimiy muassasa bilan bog`liq bo`lmagan daromadlariga, agar ushbu moddaning ikkinchi qismida boshqacha qoidalar nazarda tutilmagan bo`lsa, mazkur daromatlarni olish bilan bog`liq xarajatlar chegirib tashlanmagan holda to`lov manbaida soliq solinadi.

Investitsiya loyiqalarini moliyalashtirish uchun jalb qilingan kreditlar bo`yicha O`zbekiston Respublikasi banklari va lizing beruvchilari tomonidan xorijiy moliya institutlariga to`lanadigan daromadlar soliqqa tortilmaydi.

O`zbekiston Respublikasi norezidentlarining to`lov manbaida soliq solinadigan daromadlariga quyidagilar kiradi:

1. dividendlar va foizlar;
2. ushbu Kodeksning 157-moddasiga muvofiq belgilanadigan, oddiy shirkat shartnomasi asosida birgalikdagi faoliyatda ishtirok etishdan olinadigan daromadlar;
3. O`zbekiston Respublikasi hududida joylashgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan olinadigan daromadlar;
4. O`zbekiston Respublikasi norezidentiga tegishli tovarlarni O`zbekiston Respublikasi norezidentining o`zi yoxud O`zbekiston Respublikasi rezidenti tomonidan vositachilik, topshiriq shartnomasi asosida O`zbekiston Respublikasi hududida realizatsiya qilishdan olinadigan daromadlar;
5. royalti;
6. ushbu Kodeksning 134-moddasiga muvofiq aniqlanadigan, O`zbekiston Respublikasi hududida foydalaniladigan mol-mulkni ijaraga yoki ikkilamchi ijaraga topshirishdan olinadigan daromadlar;
7. tavakkalchiliklarni sug`urta qilish, birgalikda sug`urta qilish va qayta sug`urta qilish shartnomalari bo`yicha to`lanadigan sug`urta mukofotlari;
8. o`tkazgichli, radio, optik yoki boshqa elektromagnitli tizimlar orqali belgilar, signallar, matnlar, tasvirlar, tovushlarni uzatganlik, qabul qilganlik va qayta ishlaganlik uchun O`zbekiston Respublikasi rezidentlari tomonidan O`zbekiston

Respublikasi norezidentlariga haq to'lanishini nazarda tutuvchi xalqaro aloqa uchun telekommunikatsiyalar xizmatlariga to'lov;

9. Dengiz, daryo va havo kemalaridan, temir yo'l yoki avtomobil' transporti vositalaridan xalqaro tashishlarda foydalanishdan olinadigan daromadlar;

10. Xalqaro tashishlarda va O'zbekiston Respublikasi hududidagi tashishlarda transport-ekspeditorlik xizmatlarini ko'rsatishdan olinadigan daromadlar;

11. O'zbekiston Respublikasining yuridik va jismoniy shaxslari tomonidan shartnoma majburiyatlari buzilganligi uchun jarimalar hamda penya;

11-1) tekinga olingan mol-mulk;

12. O'zbekiston Respublikasining norezidenti tomonidan O'zbekiston Respublikasi hududida ishlar bajarish va xizmatlar ko'rsatishdan olingan boshqa daromadlar.

O'zbekiston Respublikasi norezidentining O'zbekiston Respublikasidagi manbalardan olgan daromadlariga quyidagilar kirmaydi:

“O'zbekiston Respublikasi norezidentining, faqat shu norezident nomidan amalga oshiriladigan va faqat tovarlar xarid qilish (olish), shuningdek tovarlarni O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish bilan bog'liq tashqi savdo operatsiyalari (shu jumladan tovar ayirboshlash operatsiyalari) bo'yicha olingan daromadlari;

“Banklarning - O'zbekiston Respublikasi rezidentlarining vakillik hisob varaqlarini ochish va yuritish hamda ular bo'yicha hisob-kitoblarni amalga oshirish bilan bog'liq xizmatlar ko'rsatishdan, shuningdek xalqaro to'lov kartochkalari orqali hisob-kitoblarni amalga oshirishdan olinadigan daromadlar;

“O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida bajarilgan ishlar, ko'rsatilgan xizmatlardan olinadigan daromadlar, bundan ushbu moddaning uchinchi qismida nazarda tutilgan bajarilgan ishlar, ko'rsatilgan xizmatlardan olinadigan daromadlar mustasno.

Daromadni to'lash deganda naqd pulli va (yoki) naqd pulsiz shaklda pulni, qimmatli qog'ozlarni, ishtirok etishdagi ulushni, tovarlarni, mol-mulkni berish, ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish yoki O'zbekiston Respublikasidagi manbalardan

daromadlar to'lash bo'yicha O'zbekiston Respublikasi norezidenti oldidagi qarzdorlikni uzish hisobiga amalga oshiriladigan, daromad oluvchining O'zbekiston Respublikasi norezidentining qarzi talabini hisobdan chiqarish yoki hisobga olish tushuniladi.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining summasi daromadni O'zbekiston Respublikasi norezidentiga to'lash sanasida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan kurs bo'yicha hisoblab chiqariladi.

Sug'urta badallaridan olingan daromadlar bo'yicha soliqlarning to'langan summalari sug'urta hodisasi yuz berganda qayta ko'rib chiqilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining norezidenti O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasiga muvofiq soliqlar bo'yicha imtiyozdan foydalanish uchun O'zbekiston Respublikasi davlat soliq xizmati organiga chet davlatning vakolatli organi tomonidan berilgan, O'zbekiston Respublikasi soliq solish masalalarini tartibga soluvchi xalqaro shartnomaga ega bo'lgan davlatda mazkur shaxsning doimiy joylashgan joyi (rezidentligi) borligini tasdiqlovchi rasmiy tasdiqnomani taqdim etishi shart.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining summasini kamaytirish yoki yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini to'lashdan ozod qilish to'g'risidagi ariza O'zbekiston Respublikasi davlat soliq xizmati organiga ilova xat va O'zbekiston Respublikasi norezidenti O'zbekiston Respublikasidagi manbadan daromad olayotgan shartnomaning nusxasi bilan birga beriladi. Bunday ariza davlat soliq xizmati organiga O'zbekiston Respublikasi norezidentining vakolatli shaxsi tomonidan berilganda ishonchnoma taqdim etilib, mazkur vakolatli shaxs arizani shu ishonchnoma asosida taqdim etadi.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining summasini kamaytirish yoki yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini to'lashdan ozod qilish to'g'risidagi qaror O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan ariza topshirilgan paytdan e'tiboran o'ttiz kun ichida qabul qilinadi.

3. O`zbekiston Respublikasi norezidentlarining daromadlariga to`lov manbaida soliq solish stavkalari.

O`zbekiston Respublikasi norezidentining doimiy muassasa bilan bog`liq bo`lmagan va to`lov manbaida soliq solinadigan daromadlariga quyidagi stavkalar bo`yicha soliq solinadi:

- 1) dividendlar va foizlarga - 10 foiz;
- 2) sug`urta qilish, birgalikda sug`urta qilish va qayta sug`urta qilish shartnomalari bo`yicha sug`urta mukofotlariga - 10 foiz;
- 3) xalqaro aloqa uchun telekommunikatsiyalar, xalqaro tashishlarga (fraxtdan olinadigan daromadlarga) - 6 foiz;
- 4) ushbu Kodeksning 155-moddasida belgilangan daromadlar, bundan ushbu qismning 1-3-bandlarida ko`rsatilgan daromadlar mustasno - 20 foiz.

Mavzu 1. 2.4. Egri soliqlarni hisoblash va byudjetga to`lash tartibi.

Reja:

1. Egri soliqlar haqida tushuncha va ularning turlari.
2. Qo`shilgan qiymat solig`i, uni hisoblash va to`lash tartibi.
3. Aksiz solig`i, uni hisoblash va to`lash tartibi.

Tayanch iboralar: to`g`ri soliq, egri soliq, qo`shilgan qiymat solig`i, aksiz solig`i, boj, bojxona to`lovlari, qo`shilgan qiymat solig`i ob`yekti, qo`shilgan qiymat solig`i imtiyozlari, qo`shilgan qiymat solig`i stavkalari, aksiz solig`i to`lovchilari, aksizosti tovarlar, aksiz solig`i stavkalari.

Adabiyotlar: (Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatida)

1.Egri soliqlar haqida tushuncha va ularning turlari.

Soliqlar ijtimoiy-iqtisodiy tuzilishiga yoki undirib olish manbasiga qarab ikki guruhga to`g`ri va egri soliqlar guruhlariga bo`linadi.

Soliqlarni to`g`ri va egri soliqlarga guruhlanishi soliqqa tortish ob`yektiga, to`lovchi bilan davlatning o`zaro munosabatlariga bog`liq bo`ladi.

To`g`ri soliqlar to`g`ridan-to`g`ri daromadga va mol-mulkka qaratiladi (soliqqa tortishning bevosita shakli). Egri soliqlar tovarning bahosida to`lanadigan yoki

tarifga kiritiladigan tovarlar va xizmatlardan olinadigan soliqlardir. Tovar va xizmatlarning egasi ularni sotishda soliq summalarini olib, ularni davlatga o'tkazadi.

Daromadlar oladigan (mol-mulkka va shu kabilarga egalik qiladigan) xo'jalik yurituvchi sub'yektlar to'g'ri soliqlarning pirovard to'lovchisi hisoblanadi, narxlarga ustamalar orqali soliq yuki yuklab qo'yiladigan tovarning iste'molchisi esa, egri soliqlarning pirovard to'lovchisi hisoblanadi.

Egri soliqlar to'g'ri soliqlardan farqli ravishda to'lovchining daromadi yoki mol-mulki bilan bevosita bog'liq bo'lmaydi. Tovarlar, odatda, shaxsiy iste'mol tovarlari, shuningdek xizmat ko'rsatish sohasining pullik aylanmasi, tomosha ko'rsatadigan va transport korxonalarining pattalari va shu kabilar soliqqa tortish ob'yekti bo'ladi.

Egri soliqlarning huquqiy to'lovchisi mahsulotni ortuvchilar, ish, xizmatni bajaruvchilar hamda xizmat ko'rsatuvchilar, haqiqiy to'lovchisi esa iste'molchilar hisoblanadi. Egri soliqlar daromadlilikni, oilaviy ahvolni hisobga olmaydi. Hamma fuqarolar o'z daromadlarining miqdoridan qat'iy nazar, bunday soliqlarni to'laydilar, chunki egri soliqlarga tortiladigan turmush uchun zarur bo'lgan tovarlarni iste'mol qilishadi va xizmatlardan foydalanishadi.

Egri soliqlarning stavkalari qat'iy (tovar o'lchamining birligiga) va foizli (tovarning narxiga muayyan hissada) bo'ladi. Foizli stavkalar davlat uchun ko'proq foydalidir, chunki narxlar oshganida soliq tushumlari ham ko'payadi. Soliq stavkalarining oshirilishi ularning tovarlarning narxidagi hissasining ortishiga olib keladi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda amal qilayotgan to'g'ri va egri soliqlar tarkibiga quyidagi soliqlar kiradi:

To'g'ri va egri soliqlar tarkibi

To'g'ri soliqlar	Egri soliqlar
1. Yuridik shaxslar foydasidan olinadigan soliq. 2. Jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan soliq. 3. Yer solig'i. 4. Mol-mulk solig'i. 5. Er osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq. 6. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq. 7. Obodonlashtirish va infratuzilmani rivojlantirish solig'i va boshqalar.	1. Qo'shilgan qiymat solig'i. 2. Aktsiz solig'i. 3. Jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va suyultirilgan gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq. 4. Bojxona to'lovlari va boshqalar.

1. Qo`shilgan qiymat solig`i, uni hisoblash va to`lash tartibi.

Qo`shilgan qiymat solig`i – har bir ishlab chiqarish bosqichida va realizatsiya jarayonida undiriladigan ko`p qirrali bilvosita soliqdir.

Korxonada kundalik xo`jalik faoliyatida mahsulot yetkazlib beruvchilardan tovar va xom ashyo sotib oladi va ulardan mahsulot yoki ish, xizmatlar ishlab chiqaradi. Demak, qayta ishlab chiqarish, ishlab chiqarish va sotishda qo`shilgan qiymat yaratiladi.

Qo`shilgan qiymat o`zining iqtisodiy mohiyatiga ko`ra, sotilgan mahsulotlar, bajarilgan ishlar va ko`rsatilgan xizmatlarning qiymati bilan ishlab chiqarish jarayonida iste`mol qilingan tovarlar, xom ashyolar va xizmatlarning qiymati o`rtasidagi farqdan iboratdir. Tabiiyki, ishlab-chiqarish jarayonida va keyinchalik mehnat taqsimoti natijasida ma`lum bir tovar bozorga olib chiqilgunga qadar ishlab chiqarish va muomala jarayonidagi bir nechta bosqichlardan o`tadi, bu bosqichlarning har birida qo`shilgan qiymat yaratiladi.

QQS ob`yekti bo`lib tovarlar (ishlar, xizmatlar) sotish va import tovarlar oboroti hisoblanadi, QQS dan ozod bo`lganlar va mahsulotlardan o`z ishlab chiqarish maqsadlari uchun foydalanishdan tashqari.

Qo`shilgan qiymat solig`ining to`lovchilari bo`lib, amaldagi qonun hujjatlariga asosan ushbu soliqni byudjet oldida hisob-kitobini amalga oshiruvchi tadbirkorlik faoliyati bilan shug`ullanuvchi yuridik shaxslar tushuniladi.

Soliq solinadigan baza, agar soliq moddada boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo`lsa, realizatsiya qilinayotgan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) qiymati asosida, unga qo`shilgan qiymat solig`ini kiritmagan holda belgilanadi.

Qo`shilgan qiymat solig`idan boshqa soliq turlariga nisbatan ko`proq imtiyozlar ko`zda tutilgan bo`lib, ular soliq kodeksida to`rt guruhga bo`lib berilgan.

Ular:

1) soliqdan ozod etiladigan tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilish oboroti (208-modda);

2) soliqdan ozod qilinadigan moliyaviy xizmatlar (209-modda);

3) soliqdan ozod etiladigan sug`urta xizmatlari (210-modda);

4) soliqdan ozod etiladigan import.

Soliq qonunchiligiga asosan qo`shilgan qiymat solig'ini hisoblanishi soliq to'lovchilarning olib borayotgan xo`jalik operatsiyalariga bog'liq ravishda soliqqa tortiladigan bazani aniqlashning o`ziga xos xususiyatlari mavjud.

Umumdavlat soliqlarini to'lovchi korxonalarda qo`shilgan qiymat solig'ini hisoblashning amaldagi mexanizmi soliqni ishlab chiqarish jarayonida paydo bo'lgan yangidan yaratilgan qiymatdan to'lanishini ko`zda tutadi. Qo`shilgan qiymat ikki marotaba soliqqa tortilmaydi.

QQS soliq stavkasi va soliqni hisoblash mexanizmi

O`zbekiston hududida qo`shilgan qiymat solig'i quyidagi stavka bo'yicha to'lanadi:

QQS stavkasi	Soliq solish ob'yekti
20%	Soliq solish aylanmalari
	Import aylanmalari
Nol stavkali	1) erkin almashtiriladigan valyutada tovarlar (ishlar, xizmatlar) eksporti, hukumatlararo bitimlarda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlariga olib kirish qo`shilgan holda;
	2) bojxona hududida qayta ishlash bojxona rejimiga joylashtirilgan tovarlarni qayta ishlash bo'yicha erkin konvertatsiya qilinadigan valyutada bajariladigan ishlarga (ko`rsatiladigan xizmatlarga);
	3) O`zbekiston Respublikasi hududi orqali chet mamlakatlarining yuklarini tashish, ortish, tushirish, qayta ortish (tranzit tashishlar) bo'yicha xizmatlar.
	4) aholiga suv, issiqlik va gaz bilan ta'minlashda ko`rsatilgan kommunal xizmat;
	5) chet el diplomatiya vakolatxonalari va ularga tenglashtirilgan vakolatxonalarining rasmiy foydalanishi uchun, shuningdek, maskur vakolatxonalarining diplomatiya va ma'muriy texnik xodimlarining, ular bilan birga yashovchi oila a`zolarining, agar ular O`zbekiston Respublikasi fuqarolari bo'lib hisoblanmasalar va Respublikada doimiy yashamasalar, chet el tarafi tomonidan o`zaro muvofiqlik tamoyilining qo`llanilishi sharti bilan shaxsiy foydalanish uchun sotiladigan tovarlar (ishlar, xizmatlar).

Qo`shilgan qiymat solig`i summasi belgilangan stavkalar asosida quyidagi formula bo`yicha aniqlanadi:

$$S_{QQS} = S_{ay} \times N : 100\%$$

bunda: S_{QQS} - iste'molchilardan undiriladigan soliq summasi;

S_{ay} - soliqqa tortiladigan aylanma;

N - qo`shilgan qiymat solig`i stavkasi.

Tovarlar (ishlar, xizmatlar) qo`shilgan qiymat solig`ini o`z ichiga olgan narxlar va tariflar bo`yicha sotilganida - soliq quyidagi formula bo`yicha aniqlanadi:

$$S_{QQS} = T_q \times N : (N+100)$$

bunda: T -qo`shilgan qiymat solig`i bilan hisobga olingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) qiymati.

O`zbekiston Respublikasi hududiga ishlar, xizmatlarni import qiluvchi yuridik shaxslar ana shu import qilinadigan ishlar, xizmatlarga qo`shilgan qiymat solig`i to`lovchilari hisoblanadi.

Import qilinadigan ishlar (xizmatlar) bo`yicha qo`shilgan qiymat solig`i quyidagi formula bo`yicha hisoblab chiqariladi:

$$S_{QQS} = S \times N : 100$$

bunda:

S_{QQS} - qo`shilgan qiymat solig`i summasi;

S - dalolatnoma, ma`lumotaoma yoki boshqa hujjatlarga ko`ra tasdiqlanadigan, import qilinadigan ishlar, xizmatlar qiymati;

N - qo`shilgan qiymat solig`ining foizlardagi stavkasi.

Byudjetga to`lanishi lozim bo`lgan QQS summasi soliqqa tortiladigan oborotlar bo`yicha hisoblangan soliq summasi bilan hisobga olingan soliq summasi o`rtasidagi farq tariqasida aniqlanadi.

Qo`shilgan qiymat solig`i bo`yicha hisob-kitoblarni korxonalar ortib boruvchi yakun bilan ro`yxatdan o`tgan joyidagi Davlat soliq idoralariga har oyda, hisobot oyidan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmasdan va yil yakunlari bo`yicha yillik moliyaviy hisobotni topshirish muddatida qo`shilgan qiymat solig`ini to`lovchilari hisoblangan mikrofirmalar va kichik korxonalar yilning har choragida hisobot davridan

keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hiobot topshirilgan muddatda taqdim etadi.

3.Aksiz solig'i, uni hisoblash va to'lash tartibi

O'zbekistonda Aksiz solig'i 1992 yilda qo'shilgan qiymat solig'i bilan birgalikda oborot solig'i va sotuvdan olinadigan soliqlar o'rniga joriy qilingan. Uning qo'shilgan qiymat solig'idan farqli tomoni shundaki, u ayrim tovarlar va mahsulotlarni chegaralab olgan va u bajarilgan ish, ko'rsatilgan xizmatlarga nisbatan qo'llanilmaydi. Aksiz solig'i individual xarakterga ega bo'lib, faqat Aksiz osti tovarlarga nisbatan qo'llaniladi.

Aksiz solig'i qo'shilgan qiymat solig'iga tortiladigan bazada va narxda hisobga olinadigan yuklab jo'natilgan tovarlar qiymatining bir qismini egri soliq sifatida byudjetga undirish shakli hisoblanadi. Aksiz solig'i Davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda salmoqli o'rin egallaydi.

Aksiz solig'ini to'lovchilari bo'lib, mulk shaklidan va soliqqa tortishning qanday tartibi o'rnatilganligidan qat'iy nazar aksizosti tovarlarni ishlab chiqaruvchi va import qiluvchi yuridik va jismoniy shaxslar hisoblanadi. Bundan tashqari, oddiy shirkat aksiz to'lanadigan tovarlarni ishlab chiqarganda oddiy shirkat shartnomasining oddiy shirkat ishlarini yuritish zimmasiga yuklatilgan sherigi aksiz solig'ini to'lovchi bo'lib hisoblanadi.

Aksiz to'lanadigan tovarlarning ayrim turlari bo'yicha Aksiz to'lanadigan tovarlar ishlab chiqaruvchi bo'lmagan shaxs O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga binoan Aksiz solig'ini to'lovchi etib belgilanishi mumkin.

Soliq kodeksining 230-moddasida belgilangan operatsiyalar aksiz solig'i solinadigan ob'yekt hisoblanadi.

Aksiz solig'i stavkalari va aksizosti tovarlar ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan belgilanadi va soliq to'lovchilarga Moliya vazirligi va Davlat soliq qo'mitasining quyi organlari tomonidan belgilangan tartibda yetkaziladi.

Aksiz solig'i summasi quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$S \times A/100$$

bunda: **S** - bojxona qiymati;

A - aksiz solig'i stavkasi.

Pivo, alkogolli va tamaki mahsulotlariga aksiz solig'ini hisoblab chiqarish uchun soliq solinadigan oborot quyidagi formula bo'yicha belgilanadi:

$$O = S \times 100 / (100 - A)$$

bunda: **O** - soliq solinadigan oborot;

S - bojxona qiymati;

A - aksiz solig'i stavkasi.

Aksiz solig'i summasi quyidagi formula bo'yicha belgilanadi:

$$O \times A/100,$$

bunda: **O** - soliq solinadigan oborot;

A - aksiz solig'i stavkasi.

Aksiz solig'i summasi byudjetga quyidagi muddatlarda to'lanadi:

- joriy oyning 13-kunidan kechiktirmay - joriy oyning birinchi o'n kunligi uchun;

- joriy oyning 23-kunidan kechiktirmay - joriy oyning ikkinchi o'n kunligi uchun;

- kelgusi oyning 3-kunidan kechiktirmay - hisobot oyining qolgan kunlari uchun.

Import qilinadigan Aksiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha Aksiz solig'i tovarlarning bojxona rasmiylashtiruviga qadar yoki bojxona rasmiylashtiruvi vaqtida import qiluvchi tomonidan to'lanadi.

Aksiz markalari bilan tamg'alanishi lozim bo'lgan import qilinadigan Aksiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha Aksiz solig'i Aksiz markalari olinguniga qadar to'lanadi.

Mavzu 1.2.5. Resurs to'lovlarni hisoblash va to'lash tartibi.

Reja:

1. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqlar va soliqqa tortish ob'yektlari.
2. Yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliq stavkasi va imtiyozlar.
3. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblash va to'lash tartibi.

Tayanch iboralar: yer osti boyliklari, yer qa'ridan foydalanuvchilardir, yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq, qo'shimcha foyda solig'i, bonus, imzoli bonus, tijoratbop topilma bonusi, royalti, soliq solish ob'yekti, soliq stavkalari.

Adabiyotlar: (Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida)

2.Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqlar va soliqqa tortish ob'yektlari

O'zbekiston Respublikasi hududida konlarni aniqlash va qidirish, foydali qazilmalarni kavlab olish, mineral xom ashyodan yoki texnogen mineral hosilalardan foydali komponentlarni ajratib olishni amalga oshirayotgan, shuningdek foydali qazilmalardan foydali komponentlarni ajratib olgan holda ularni qayta ishlashni amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslar soliq solish maqsadida yer qa'ridan foydalanuvchilardir.

Yer qa'ridan foydalanuvchilar quyidagi soliqlar va maxsus to'lovlarni to'laydilar:

- yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq;
- qo'shimcha foyda solig'i;
- bonus (imzoli va tijoratbop topilma bonuslar).

“Yer osti boyliklari to'g'risida”gi qonunning 21-moddasida yer qa'ridan foydalanish pullik ekanligi ko'rsatib o'tilgan.

Soliq to'lovchilar:

- yer qa'ridan foydali qazilmalarni kavlab olayotgan, mineral xom ashyodan yoki texnogen mineral hosilalardan foydali komponentlarni ajratib olayotgan yer qa'ridan foydalanuvchilar;

- foydali qazilmalardan foydali komponentlarni ajratib olgan holda ularni qayta ishlashni amalga oshirayotgan er qàridan foydalanuvchilar.

Yer qàridan foydalanganlik uchun soliqni joriy etilishidan asosiy maqsad – umumdavlat mulki hisoblangan yer osti boyliklaridan oqilona tarzda butun jamiyat a`zolarini va kelajak avlod manfaatlarini hisobga olgan holda foydalanish samaradorligini oshirish hisoblanadi.

Soliq kodeksiga ko`ra yer qàridan foydalanganlik uchun soliq umumdavlat soliqlari tarkibiga kiradi. Ushbu soliq tabiiy boyliklardan foydalanishning samaradorligini ta`minlash bilan birga sof fiskal vazifani ham bajaradi.

Kavlab olingan (ajratib olingan) tayyor mahsulotning hajmi yer qàridan foydalanganlik uchun soliq solish ob`yektidir.

Tayyor mahsulotlar ro`yxati respublika Prezidentining qarori bilan belgilanadi.

Soliq solish ob`yekti tayyor mahsulotning har bir turi bo`yicha alohida aniqlanadi.

3.Yer qàridan foydalanuvchilar uchun soliq stavkasi va imtiyozlar

Yer qàridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari O`zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan belgilanadi va soliq to`lovchilarga O`zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi hamda Davlat soliq qo`mitasi va uning quyi organlari tomonidan belgilangan tartibda yetkazlliladi.

Hozirgi vaqtda O`zbekistonda qazib olinadigan xom ashyo turlari bo`yicha yer qàridan foydalanganlik uchun soliqning tabaqalashtirilgan stavkalari belgilangan.

Foydali qazilmalarni qazib olishning tabiiy noqulay sharoitda ishlaydigan konlar davlat tomonidan qo`shimcha ravishda qo`llab quvvatlanadi. Ularga nisbatan pasaytirilgan soliq stavkalarni joriy etish orqali bunday korxonalar ishlab chiqarishini rivojlantirish va zamonaviylashtirishga qo`shimcha mablag`lar yo`naltirish imkoniyatiga ega bo`ladi.

Hozirgi vaqtda jami 53 turdagi foydali qazilmalarga nisbatan tabaqalashtirilgan tarzda soliq stavkalari o`rnatilgan.

Quyidagilar yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliqni to`lashdan ozod etiladilar:

1. yer osti boyliklarini geologik jihatdan o`rganuvchi yuridik va jismoniy shaxslar;

2. geologik, mineralogik va boshqa aloqida qo`riqlanadigan tabiiy hududlarda ilmiy ish olib boruvchi yuridik va jismoniy shaxslar;

3. hamma joyda tarqalgan foydali qazilmalarni ularga berilgan yer uchastkalari doirasida belgilangan tartibda, o`z xo`jalik va maishiy ehtiyojlari uchun qazib olishni amalga oshiruvchi yer egalari va yerdan foydalanuvchilar.

Soliq qonunchiligiga muvofiq yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan tadbirkorlik faoliyati bilan bog`liq bo`lmagan maqsadlar uchun o`z hududida qazib olingan va ishlatiladigan keng tarqalgan foydali qazilmalar hajmi yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliqni to`lashdan ozod etiladi.

O`zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi amalga joriy etilishidan avval qabul qilingan O`zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq soliq to`lovchilarga taqdim etilgan soliq imtiyozlari ular taqdim etilgan muddat tugashiga qadar saqlanadi.

4.Yer qa`ridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblash va to`lash tartibi

Yer qa`ridan foydalanganlik uchun soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Yuridik va jismoniy shaxslar yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq bo`yicha hisob-kitoblarni soliq organlariga yil boshidan o`sib boruvchi yakun bo`yicha belgilangan shaklda soliqni to`lash uchun belgilangan muddatda taqdim etadilar.

Yer qa`ridan foydalanganlik uchun soliqni yuridik shaxslar quyidagi tartibda to`laydilar:

a) mikrofirma va kichik korxonalar – yilning har choragida, hisobot davridan keyingi oyning 25 kunidan kechiktirmay;

b) mikrofirma va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan boshqa soliq to`lovchi yuridik shaxslar – har oyda, hisobot davridan keyingi oyning 25 kunidan kechiktirmay.

Keng tarqalgan foydali qazilmalarni qazib olish bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar yiliga bir marotaba, keyingi yilning 1 fevralidan kechiktirmay davlat soliq xizmati organlarining xabarnomasi bo'yicha hisob-kitobni ularga taqdim etadilar va yer qanidan foydalanganlik uchun soliqni to'laydilar.

Yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliqning to'g'ri hisoblab chiqilishi va to'lanishi ustidan nazoratni O'zbekiston Respublikasi davlat soliq xizmati organlari O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiradilar.

Mavzu 1.2.6. Mahalliy soliqlarni va yig'implarni hisoblash va to'lash tartibi

Reja:

1. Mahalliy soliqlar va yig'implarning mohiyati va tarkibi.
2. Mol-mulk solig'i, uni hisoblash va to'lash tartibi.
3. Yer solig'i, uni hisoblash va budjetga to'lash tartibi.
4. Transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq.
5. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarga yagona yer solig'i.
6. Obodonlashtirish va infratuzilmani rivojlantirish solig'i.

Tayanch iboralar: mahalliy soliqlar, yig'implar, mol-mulk solig'i, yer solig'i, yagona yer solig'i, bonus, imzoli bonus, tijoratbop topilma bonusi, royalti, soliq solish ob'yekti, soliq stavkalari, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish.

Adabiyotlar: (Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida)

1. Mahalliy soliqlar va yig'implarning mohiyati va tarkibi

Mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarga quyidagilar kiradi:

1. mol-mulk solig'i;
2. yer solig'i;
3. obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i.
4. transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq.

5. ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlarni ko'rsatish huquqi uchun yig'im.

6. yagona yer solig'i.

Umumdavlat soliqlari asosan respublika byudjeti daromadlarini shakllantirishga qaratilgan bo'lsa, mahalliy soliqlar va yig'imlar mahalliy byudjetlar daromadlarini shakllantiradi.

Mahalliy budjetlar davlat moliya tizimining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ularning xarajatlari hisobiga, birinchi navbatda, kommunal mulk ob'yektlari, yo'llar, maktablar qurilishi, aloqa vositalarini rivojlantirish, shuningdek, uy-joy qurilishi pul bilan ta'minlanadi. Mahalliy hokimiyat organlari budjetidan mahalliy ma'muriyat va boshqa budjet masalalarini tutib turish uchun ham foydalaniladi. Mahalliy budjetlar xarajatlarida ijtimoiy-madaniy ehtiyojlar, sog'liqni saqlash obyektlariga doir, iqtisodiy muvozanatni qo'llab turish xarajatlari ham muhim o'rin tutadi. Davlat budjeti daromadlari, birinchi navbatda, markaziy va mahalliy hokimiyat organlari undiradigan soliqlardan, davlat zayomlari, shuningdek, budjetdan tashqari yoki maqsadli fondlardan olinuvchi tushumlardan iborat bo'ladi. Bunday fondlarni barpo etish aniq maqsadlar uchun, avvalo, ijtimoiy-iqtisodiy tisdagi maqsadlarga yirik moliya resurslarini safarbar etish zarurati bilan shartlangan.

2. Mol-mulk solig'i, uni hisoblash va to'lash tartibi.

Soliq solish maqsadida yuridik shaxslar deganda mulkida, xo'jalik yuritishida yoki tezkor boshqaruvida mol-mulk bo'lgan va o'z majburiyatlari bo'yicha mol-mulki bilan javob beradigan, shu jumladan mustaqil balans va hisob-kitob varag'iga ega alohida bo'linmalar tushuniladi.

Soliq solinadigan mol-mulkka ega bo'lgan yuridik shaxslar mol-mulk solig'i to'lovchilardir.

O'zbekiston soliq tizimida yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i to'g'ri soliqlar tarkibiga kiradi va mohiyatiga ko'ra bu soliq asosiy fondlar shaklidagi resurslarga nisbatan belgilangan soliq hisoblanadi. Mazkur soliq bo'yicha tushumlar

summasi to'liq mahalliy byudjetlarga tushadi va u byudjetning barqaror daromad manbalaridan biri hisoblanadi.

Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'ining ob'yekti bo'lib, asosiy vositalar (shu jumladan moliyaviy ijara (lizing) shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalar), nomoddiy aktivlar, tugallanmagan qurilish ob'yektlari hamda belgilangan muddatda ishga tushirilmagan asbob-uskunalar qiymati hisoblanadi.

Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'ining stavkalari har yili keyingi moliya yil uchun tasdiqlanadigan asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozi va davlat byudjeti parametrlari to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori asosida belgilanadi.

Yuridik shaxslar byudjetga joriy to'lovlar summasini hisobot yili mol-mulkinging o'rtacha yillik qoldiq qiymatidan va belgilangan soliq stavkasidan kelib chiqib mustaqil ravishda hisoblaydilar.

Byudjetga joriy to'lovlarni to'lash har oyning 20-kunidan kechiktirmay, yillik soliq summasining 1/12 qismi miqdorida to'lanadi.

3. Yer solig'i, uni hisoblash va budjetga to'lash tartibi.

Yer solig'i O'zbekiston soliq tizimida mahalliy soliqlar va yig'imlar tarkibiga kiradi hamda mahalliy byudjetlarning barqaror daromad manbai hisoblanadi.

Yer solig'i boshqa soliq turlaridan farqli o'laroq, o'ziga hos xususiyatlarga ega. Jumladan, o'zining iqtisodiy mohiyatiga ko'ra u renta to'lovidir yoki boshqacha qilib aytganda ushbu soliq yer egalari va yerdan foydalanuvchi xo'jalik yurituvchi sub'yektlar moliyaviy faoliyatining natijalari bilan bog'liq emas.

Soliq qonunchiligiga ko'ra o'z mulkida, egaligida yoki foydalanishida yer uchastkalariga ega bo'lgan yuridik shaxslar, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi-nin norezidentlari yer solig'ini to'lovchilari bo'lib hisoblanishadi.

Soliq kodeksiga ko'ra mulk huquqi, egalik qilish huquqi, foydalanish huquqi yoki ijara huquqi asosida yuridik shaxslarda bo'lgan yer uchastkalari soliq solish ob'yekti hisoblanadi.

Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i stavkalari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan belgilanadi va soliq to'lovchilarga Moliya vazirligi va Davlat soliq qo'mitasi va ularning quyi organlari tomonidan belgilangan tartibda yetkaziladi.

Yer solig'i bo'yicha imtiyozlar Soliq kodeksining 282-moddasida belgilab berilgan.

Yuridik shaxslar (qishloq xo'jaligi korxonalaridan tashqari) soliqni har chorakda, chorak ikkinchi oyining 15-kuniga qadar teng ulushlar bilan to'laydilar (15 fevral, 15 may, 15 avgust, 15 noyabr).

4. Transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq

To'lovchilari - oxirgi iste'molchilarga benzin, dizel yoqilg'isi va gazni (chakana sotadigan) avtomobillarga yoqilg'i quyish shoxobchalari orqali realizatsiya qilishni amalga oshiruvchi yuridik shaxslar

Transport vositalari uchun benzin, dizel yoqilg'isi va gazni chakana sotish soliq solish ob'yekti hisoblanadi.

Benzin, dizel yoqilg'isi va gazning natura holdagi realizatsiya qilingan va o'z ehtiyojlari uchun foydalanilgan hajmi soliq solinadigan bazadir.

Transport vositalari uchun benzin, dizel yonilg'isi va gaz iste'moliga olinadigan soliq stavkalari har yili O'zbekiston Respublikasi Prezident qarori bilan belgilanadi, uning miqdorlari O'zbekiston Respublikasining butun hududida yagona hisoblanadi.

Soliq summasi quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$N = V \times St,$$

bunda: **N** - hisoblab yozilgan soliq;

V - jismoniy shaxslarga sotilayotgan benzin, dizel yonilg'isi yoki gazning natural ifodadagi hajmi;

St – soliq stavkasi.

Hisoblab chiqarilgan va ushlangan soliq summasi xo'jalik yurituvchi sub'yektlar uchun tushum deb hisoblanmaydi hamda boshqa to'lanadigan soliqlar, yig'implar va majburiy to'lovlar bo'yicha soliq solish ob'yekti yoki bazasi bo'lmaydi.

Soliq to'lovchilar sotilgan benzin, dizel yonilg'isi, gaz hisobi hamda hisoblangan soliq summalari hisobini alohida yuritadilar.

Undirilgan soliq mahalliy byudjetga O'zbekiston Respublikasi byudjetlari daromad va xarajatlarining tegishli tasnifiga ko'ra bo'lim va paragrafga to'lanadi.

5. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarga yagona yer solig'i

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998 yil 10 oktyabrdagi «Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilar uchun yagona yer solig'i joriy qilish to'g'risida»gi №2086-sonli Farmoniga hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 26 dekabrdagi «Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilar uchun yagona yer solig'i to'g'risida»gi №539-sonli qaroriga muvofiq 1999 yil 1 yanvardan boshlab qishloq xo'jalik tovar ishlab chiqaruvchilarining byudjetga to'lovlarini soddalashtirish, ixchamlashtirish maqsadida yagona yer solig'i joriy etilgan.

Yagona yer solig'i amaldagi barcha umumdavlat soliqlari (alkogolli mahsulotga aksiz solig'idan tashqari) hamda qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari uchun belgilangan mahalliy soliqlar va yig'implarni to'lash o'rniga joriy etildi.

Yagona yer solig'i to'lovchilari bo'lmish qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari uchun boj to'lovi, davlat boji, litsenziya yig'implari, byudjetdan tashqari jamg'armalarga ajratmalar to'lashning amaldagi tartibi saqlab qolindi.

Yagona yer solig'ini joriy qilishdan maqsad qishloq xo'jalik yerlaridan foydalanish samaradorligini oshirish, qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarining mehnatning pirovard natijalaridan iqtisodiy manfaatdorligini kuchaytirish, ularning soliq tizimini soddalashtirishdir.

Qonun hujjatlariga muvofiq qishloq xo'jaligini yuritish uchun egalik qilishga, foydalanishga yoki ijaraga berilgan yer uchastkasi soliq solish ob'yektidir.

Soliq solinadigan yer uchastkalarining qonun hujjatlariga muvofiq belgilangan normativ qiymati soliq solinadigan bazadir.

Yagona yer solig'i summasi yer uchastkalarining normativ qiymati va yagona yer solig'ining belgilangan stavkasidan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Yagona yer solig'ining hisob-kitobi yer uchastkasi joylashgan yerdagi davlat soliq xizmati organiga joriy soliq davrining 1 mayigacha taqdim etiladi.

6. Obodonlashtirish va infratuzilmani rivojlantirish solig'i

O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan va tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi yuridik shaxslar – O'zbekiston Respublikasi rezidentlari obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ini to'lovchisi hisoblanadilar.

Soliqqa tortishning alohida tartibi belgilangan yuridik shaxslar hamda notijorat tashkilotlar asosiy faoliyat turi bo'yicha bu soliqni to'lamaydilar, ular faoliyatning boshqa turlari bilan shug'ullansalar, ular ushbu faoliyat bo'yicha alohida hisob yuritishlari va byudjetga obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish uchun soliqni to'lashlari lozim.

Yuridik shaxslardan olinadigan daromad solig'i to'langanidan keyin korxonalar tasarrufida qoladigan foyda (2-son "Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot" shaklining 240 satri – 250 satri) obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish uchun soliqni hisoblab chiqarish chog'ida soliq solish ob'yekti va bazasi hisoblanadi. Byudjetga to'lanadigan soliq summasi yuqorida ko'rsatilgan hisobot shaklining 260-satrida aks ettiriladi.

Balansida ijtimoiy infratuzilma ob'yektlari bo'lgan soliq to'lovchilar soliq solinadigan bazani foyda solig'i to'langanidan keyin yuridik shaxs ixtiyorida qoladigan foydani va ijtimoiy infratuzilma ob'yektlarini ta'minlash uchun haqiqatda sarflangan xarajatlarning mazkur xarajatlar summasidan hisoblab chiqilgan foyda solig'i summasiga kamaytirilgan summasini qo'shish orqali aniqlaydi.

Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i korxonalar sof foydasining 8 % ini tashkil etadi.

Soliq kodeksining 300-moddasiga ko'ra balansida ijtimoiy infratuzilma ob'yektlari bo'lgan soliq to'lovchilar byudjetga to'lanadigan soliq summasi aniqlanadi.

Soliq to'lovchilar hisobot davri mobaynida obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i bo'yicha joriy to'lovlar to'laydi.

1.3.“Yuridik shaxslarning soliqlari va soliqqa tortish” moduli tarkibidagi mavzusining o`quv maqsadlari

O`qitish texnologiyasining boshlanishi – bu o`quv fanining o`qitish maqsadlarini belgilashdir. Fanni o`qitish maqsadlaridan keyin har bir mavzu bo`yicha o`quv maqsadlarini belgilash lozim.

Nazariy va amaliy mashg`ulotlar aniq maqsadga yo`naltirilgan o`quv jarayonlaridir. Bu jarayonlar avvaldan belgilangan muayyan o`rganish maqsadlariga erishish uchun olib boriladi. Agar o`quv maqsadlari belgilanmay o`tkazilsa u holda darsning mazmuniy va didaktik tuzilishi buziladi. Nazariy va amaliy mashg`ulotlarni shakllantirish uchun oldindan mos keladigan o`quv maqsadlarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Har bir o`tiladigan darsning ta`limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadi bo`ladi. Bu maqsadga erishish uchun o`qituvchi rahbarligida talabalar birgalikda harakat qiladilar.

Bu harakat asosan uch tarkibiy qismdan iborat bo`lishi kerak:

1. Motivatsiya qismi.
2. Boshqarish qismi.
3. Bilish faoliyati.

Motivatsiya qismining asosiy maqsadi talabalarda ta`lim meqtodlari haqida bilim olishga qiziqish, istak, xoxish va zurrurat uyg`otish. Agar talabada u yoki bu mavzuni o`zlashtirish bo`yicha qiziqish, xoxish va zurrurat bo`lmasa ta`lim jarayoni samarasiz bo`ladi. Talaba ushbu metodlar va ularga qo`yiladigan talablar, ma`lumotlar ularga qanday imkoniyatlar yaratilinishi tushunib yetishi kerak. Umuman olganda, talabaning ongida “men shu mavzu bo`yicha bilimli bo`lmasam, hayotda o`z o`rnimni topa olmayman” degan fikr doimo bo`lishi kerak. Ushbu motiv ta`lim jarayonining asosiy harakatlantiruvchi kuchi bo`lishi shart.

Boshqarish faoliyati qismi asosan o`qituvchiga tegishli bo`lib, u talabalarda mustaqil bilim olishga, mustaqil fikrlashga va oxir oqibat ta`lim muassasasini bitirgandan so`ng to`liq nazariy bilimli, amaliy ko`nikmali va malakali o`qituvchi bo`lib shakllanishini nazarda tutishi kerak.

Bilish faoliyati qismi o`quvchi-talabaga tegishli bo`lib, u asosan o`z bilimini faqat o`ziga oshirishga qodir ekanligini tushunib yetishi va shu asosda mustaqil harakat qilishi kerak .

Shu maqsadda “Soliq tizimi” fanining o`quv maqsadlarini belgilab olish lozim. Soliq tizimi fanini o`rganishdan asosiy maqsad shu fan doirasida talabalar bilimini shakllantirish, kengaytirish, soliqlar va boshqa majburiy to`lovlar to`g`risidagi tasavvurni hosil qilish va soliq to`lovchilardan undiriladigan soliq hamda majburiy to`lovlarning huquqiy asoslarini, soliq majburiyati, soliq nazorati, soliqqa oid huquqbuzarliklar va ularga nisbatan qo`llaniladigan jazo choralari bo`yicha bilimlarni shakllantirishdan iboratdir.

Soliq tizimi nafaqat soliq qonunchiligiga rioya qilishni nazorat qilishni tushunishga yordam beruvchi, balki soliq va yig`imlarni to`g`ri hisoblash va byudjetga o`z vaqtida o`tkazilishi yuzasidan turli-tuman vaziyatlarda xatoliklardan qochishni o`rgatuvchi inson bilimlari sohasidir.

Soliq qonunchiligining yangi xususiyatlarini o`rganish iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida birinchi darajali ahamiyatga ega. Bozor munosabatlari, xo`jalik yuritishning yangi shakllari rivojlanishi bilan soliq qonunchiligiga zikr etilgan tamoyillardan kelib chiqadigan hamda islohotlarning tegishli bosqichi sharoitiga mos keladigan jiddiy o`zgarishlarga moslashish ancha murakkabdir.

Amaldagi soliq tizimini bozor iqtisodiyoti tamoyillari asosida isloh qilish sharoitida ta`lim tizimida soliq sohasidagi bilimlarni o`rganish, tahlil qilish va ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish muhim ahamiyatga ega bo`lish eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

O`tgan davr mobaynida davlat soliq xizmati organlari tarkibini malakali kadrlar bilan ta`minlashga katta e`tibor qaratilmoqda. Soliq tizimini fan sifatida kiritish hozirgi paytda katta iqtisodiy yutuqlar, innovatsion o`zgarishlar, inson mehnatiga umuman yangi bo`lgan yondashuvlar, ijodiy individullikning rivojlanishi va boshqalar bilan bog`liq. Ushbu yo`nalishlarning barchasini o`rganish mamlakatda ijtimoiy yo`naltirilgan, rivojlangan hamda samarali bozor iqtisodiyotini yaratishga ko`maklashadi.

Bozor munosabatlari jadal sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan sharoitda fanini o`rganish ehtiyoji kun sayin kengayib bormoqda. Zamonning o`zi yangicha fikrlay oladigan, aql-zakovatga ega, keng qamrovli bilimlar va tashkilotchilik qobiliyatlarini o`zida mujassamlantirgan soliq organlari mutaxassis xodimlariga talabni kuchaytirmoqda.

Mavzuning o`quv maqsadlari: Yuridik shaxslarning soliqlari va soliqqa tortish to`g`risida tushuncha hosil qilish va ularni to`g`ri hisoblash, davlat byudjetiga o`tkazish yo`llarini o`rgatish.

1.4. “Yuridik shaxslarning soliqlari va soliqqa tortish” moduli tarkibidagi mavzularni o`qitishda dastlabki shart-sharoitlar tahlili

O`qituvchi fanni o`qitish jarayonida tayyorgarlik ko`rishi va moslashishi muhim ma`lumotlarni inobatga olishi orqali amalga oshiriladi.

O`quvchilar holatiga baho berish, ta`lim sharoitlari bilan tanishish, maxsus sohani yaxshi bilish – bularning hammasi nazariy va amaliy mashg`ulotga tegishli ilk shart-sharoitlar haqidagi ma`lumotlar sanaladi.

Nazariy va amaliy mashg`ulotlarni o`tkazish shart-sharoitlarini quyidagi 3 ta tahlil orqali aniqlash mumkin.

- talabalar tahlili;
- shart-sharoit tahlili;
- maxsus soha tahlili.

“Soliq tizimii” fani bo`yicha ma`ruza darsi.

Mazkur fan “Maxsus buxgalteriya” bo`limi “Moliya” yo`nalishida o`tiladigan asosiy fanlardan biri sanaladi.

Biz dars o`tishimiz lozim bo`lgan talabalar 1-bosqich “41-Moliya” guruhi.

Dastlab o`qituvchi darsni boshlashdan oldin guruh o`quvchilari bilan tanishishi, ularning imkoniyatlari, qobiliyatlari, bilim darajasi va boshqa shaxsiy fazilatlariga e`tibor berishi lozim. Shuning uchun ishni o`quvchilar tahlilidan boshlaymiz.

1. Talabalar tahlili

- Buxoro iqtisodiyot va bank kolleji, “Maxsus buxgalteriya” bo`limi, Moliya yo`nalishi, 1-bosqich, 41-Moliya guruhi.

- 41-Moliya guruhida 31 ta o`quvchi tahsil oladi. Ulardan 13 nafari o`g`il bola, 18 nafari qiz bola.

- O`quvchilarning yosh guruhlari 17-18 yosh.
- O`quvchilarning barchasi o`rta umum ta`lim maktabini bitirgan.

Dastlab darsni boshlashdan oldin guruhdagi o`quvchilarning bilim darajasini tekshirish maqsadida ular bilan shu soha bo`yicha og`ziki savol-javoblar o`tkazish, ularga mustaqil topshiriqlar berib bilimini sinash va testlar o`tkazish lozim.

- O`quvchilarning deyarli hammasi ingliz tili va rus tilini biladi va bu tillarni o`rganishga juda qiziqar ekan, ulardan bir qismi Nemis tilini o`rganishga qiziqar

ekan. Shuningdek, o'quvchilarning badiiy adabiyotlarni o'qishga, til o'rganishga ishtiyoqi baland. O'quvchilarning aksariyati komp'yuter texnologiyalaridan foydalanishni biladi, iqtisodiy fanlarga qiziqadi.

- Biz dars o'tadigan guruhlarda nogiron yoki qattiq kasallangan o'quvchilar yo'q. O'quvchilarimiz hammasi sog'lom va ular orasida sportning bir necha turlari bilan shug'ullanuvchi yoshlar kop'chilikni tashkil etadi. Qizlar masalasida so'z yuritadigan bo'lsak, guruhda 18 ta qiz bola o'qiydi. Ularning orasida turmushga chiqqan qizlar yo'q.

- O'quvchilarning barchasi o'z oilasida yashaydi. Ko'pchiligining oilaviy sharoiti yaxshi. Talabalar turar joyida yashovchi o'quvchilarimiz ham bor. Ular 5 kishini tashkil qiladi. Ulardan 3 tasi o'g'il bola va 2 tasi qiz bola. Ular haftada bir marta o'z uyiga borib, ota-onasini ko'rib keladi. Talabalar turar joyida yashovchi o'quvchilarga kollej direktori tomonidan alohida e'tibor beriladi.

- Dars jarayonida faol qatnashuvchi o'quvchilar o'qituvchi tomonidan doimiy ravishda rag'batlantiriladi. Dars jarayonida o'quvchi mehnatiga va bilimiga yarasha baholanmasa yoki rag'batlantirilmasa u darsga nisbatan sovuqqon va e'tiborsiz bo'lib qoladi. Shuning uchun iloji boricha maksimal darajada mashg'ulotlarni samarali, sifatli va har bir o'quv jarayoniga mos holda olib borish lozim. Ko'pchilik hollarda o'qituvchi o'tkazgan mashg'ulotlarining sifati o'quvchi o'zlashtirgan bilimlarni baholash orqali o'lchanadi.

- Guruhdagi talabalarning qiziqishlariga keladigan bo'lsak, ularning ko'pchiligi aynan o'zining mutaxassisligiga mos ravishda iqtisodiy fanlarga juda qiziquvchan. O'quvchining o'qishga bo'lgan ehtiyoji doimiy ravishda o'qituvchi tomonidan qondirilishi lozim. Ularning ko'pchiligi bo'sh vaqtini fanlarga oid adabiyotlar, badiiy kitob o'qish bilan, mutaxassisligiga mos jurnallar o'qish bilan o'tkazadi. O'quvchilarimizning ko'pchiligi darsdan keyin kollejda tashkil etilgan aniq fanlar to'garagiga qatnashadi. 1-bosqich o'quvchilarining deyarli bo'sh vaqti bo'lmaydi. Sababi ular o'quv rejasiga binoan bir semestrda 10 dan ortiq fanni o'qib o'zlashtiradi. Bu fanlarning har birining mustaqil ishi, topshiriqlari mavjud. Talaba bu topshiriqlarni o'z vaqtida bajarishi va topshirishi lozim. Bajarmasa

reyting balini to`play olmaydi. Shunday bo`lsada, ozgina vaqt qolsa o`quvchilar o`zi yaxshi ko`rgan mashg`uloti bilan shug`ullanishga harakat qiladi.

Bu talabalarning kelajakdagi kasbiy faoliyati uchun kerakli bilim, ko`nikmalarni rivojlantirishga va xulqini yaxshilashga lozim bo`lgan ehtiyojdir.

- O`quvchilar bilan bo`lgan suhbatdan shu narsa ma`lum bo`ldiki, ularning ko`pchiligi o`zi tahsil olayotgan yo`nalish bo`yicha ishlamoqchi, ya`ni Moliya tizimida iqtisodchi, ba`zilari bankda, soliq idoralarida, sug`urta kompaniyalarida, xizmat ko`rsatish sohaslarida, ba`zi bir talabalar shu soha bo`yicha o`qishini davom ettirish niyatida ekan.

- O`quvchilarning alohida e`tiborga sazovor jihatlarini tahlil qiladigan bo`lsak, o`quvchilar orasida hurmatga sazovor bo`lgan, bilimga chanqoq, yuksak muvaffaqiyatga erishgan o`quvchilarimiz ko`pchilikni tashkil etadi. Ularning orasida dars jarayonida faol qatnashish bilan birga darsdan tashqari paytda ham o`qituvchi bilan hamkorlik asosida ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishga, ilmiy maqolalar yozishga, Davlat grantlari bo`yicha e`lon qilingan tanlovlarda hamda ma`naviyat tadbirlarida qatnashishga harakat qiladi. Bu borada juda katta muvaffaqiyatlarga erishgan talabalarimiz ham bor.

- Tahlil qilinayotgan guruhlarda yetakchi o`quvchilarimiz ham bor. Ularning orasida iqtidorli o`quvchilar, har tomonlama yetuk yoshlar tahsil oladi. Yoshlarimiz juda bilimga chanqoq va qiziquvchan.

2. Shart-sharoit tahlili

Shart-sharoit tahlili asosan o`quv mashg`ulotlarni olib borish uchun zarurdir.

Shart-sharoit tahlili 3 qismdan iborat bo`ladi:

- ✓ huquqiy shart-sharoit;
- ✓ tashkiliy shart-sharoit.
- ✓ texnik shart-sharoit;

Huquqiy shart-sharoit ta`lim jarayonida kerak bo`ladigan o`quv rejasi va boshqa rasmiy reja hujjatlari bilan bog`liqdir.

Huquqiy shart-sharoitga quyidagilarni kiritish mumkin:

- ✓ o`quv rejasi;

- ✓ guruh jurnali;
- ✓ fan dasturi;
- ✓ kalendar reja;
- ✓ baholash mezonlari.

O`quv rejasini orqali kutilgan va oldindan belgilab qo`yilgan mavzular o`rgatilishi ta`minlanadi.

Tashkiliy shart-sharoitlarga mashg`ulotlarni tashkil qilish borasidagi quyidagi zaruriy talablar kiradi:

- O`quv xonasi asosan dars turiga ko`ra va talabalar soniga qarab tanlanadi. Bizning darsimiz binoning 2-qavatida, 207-xonada o`tkaziladi. Xona keng, yorug`, issiq, dars o`tish uchun har tomonlama qulay.
- Nazariy va amaliy mashg`ulotlar vaqti o`quv rejasida belgilangan soatga muvofiq o`quv bo`limi tomonidan dars jadvaliga vaqt ajratiladi, masalan, bizga ajratilgan vaqt bir haftada 4 soat bo`lganligi sababli, Juma kuni I-juftlikda, 207-xonada, Chorshanba kuni 3-juftlikda 207-xonada doimiy ravishda o`tkaziladi.
- Amaliy mashg`ulotlar asosan o`quv rejasiga muvofiq ma`ruza darsidan keyin qo`yilishi lozim. Sababi talaba nazariy jihatdan egallagan bilimni amaliy mashg`ulot darsida qo`llay olish imkoniyatiga ega bo`ladi.

Texnik shart-sharoitlar – ushbu shart-sharoitlar texnik moslamalar, yordamchi audiovizual vositalar, o`qitish va o`rganish vositalari mavjudligi va ularning yaroqliligi bilan bog`liqdir. Ta`limning texnik vositalari jumlasiga axborot berishda foydalaniladigan texnika (kinoprojektor va diaproyektorlar, epidiaskop, fil'moskop, magnitofon hamda televizion qurilmalar) gina emas, balki tegishli texnika bilan birga foydalaniladigan o`ziga xos axborot eltuvchilarning o`zi (kinofil'mlar, diafil'mlar, diapozitivlar, dasturlashtirilgan topshiriqlar tushirilgan kartalar to`plami va shu kabilar) ham kiradi. Didaktik vositalar majmuasining imkoniyatlari, metodlari va ishlatilishi usullari sinchiklab o`rganilgandagina o`quv jarayonida ulardan samarali foydalanish mumkin bo`ladi. Har bir o`qituvchi bu vositalardan foydalanishni bilishi, bu sohada tegishli bilim, o`quv va malakalarga ega bo`lishi kerak.

Kasb–hunar kollejlarda yuqori malakali o`qituvchilar, boy texnikaviy imkoniyatlar, o`quvchilarning texnikaviy ijodiyoti keng rivojlanganligi tufayli o`quv xonalarini ta`limning texnik vositalari bilan jihozlashga, bu vositalarni bilim yurtlarida tayyorlashga katta e`tibor berilmoqda.

Xonalarni ta`limning texnik vositalari bilan jihozlash ishida quyidagi asosiy pedagogik talablarga amal qilish kerak:

1. O`quv kabinetlarini ta`limning texnik vositalari bilan jihozlashda o`quv jarayonida ulardan kompleks tarzda foydalanishini hisobga olish zarur.
2. O`quv xonasining istagan joyida ko`rish va eshitish uchun yaxshi sharoit ta`minlash lozim.
3. O`quv xonalarida didaktik vositalar majmuasi ishlatilganda shovqin manbalarini yo`qotish kerak.
4. Barcha texnikaviy qurilmalar puxta va ishlatilishi oddiy bo`lishi kerak.
5. Ishlatilishi iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq bo`lishi zarur.

207 – xonada doska mavjud va ishlatishga yaroqli. Xonada elektr toki, suv quvuri mavjud, havo bosimi normal holatda. Xonada “Soliq tizimi” fanini o`qitish va o`rganishga oid vizual materiallar va o`qitishning texnik vositalari mavjud.

Ta`lim jarayonida ko`rgazmali qo`llanma va o`qitishning texnik vositalaridan foydalanish orqali talabalar tomonidan o`zlashtiriladigan material puxta o`zlashtirilishiga, uzoq vaqt xotirasida saqlanishiga, idrok qilish vaqtini qisqartirishga zamin yaratiladi.

Bunda o`qituvchi darsga ajratilgan vaqtdan unumli foydalanadi, talabalar diqqatini o`quv materialiga jalb qiladi va talabalarda fanga nisbatan ijobiy munosabatlarini shakllantiradi.

3. Maxsus soha tahlili

O`zbekiston Respublikasini har tomonlama rivojlantirish, iqtisodiy mustaqilligini mustahkamlash ko`p jihatdan zamon talablariga javob bera oladigan muttaxassis kadrlarni sifatli tayyorlashga bog`liq.

Bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda to`plangan amaliy tajribalar shuni ko`rsatmoqdaki, muvaffaqiyatli faoliyat yuritishning eng asosiy omillaridan biri bu

mutaxassis kadrlar faoliyati bilan uzviy bog'liq. Shuning uchun bugungi kunda mutaxassis kadrlarni tayyorlashda Soliq tizimi fani alohida o`rin egallaydi.

“Soliq tizimi” fanini fan sifatida kiritish hozirgi paytda katta iqtisodiy yutuqlarga erishish, soliq qonunchiligiga rioya etish, soliq va yig'implarni to'g'ri hisoblash va byudjetga o'z vaqtida o'tkazilishini ta'minlaydi. Ushbu yo`nalishlarning barchasini o`rganish mamlakatimizda ijtimoiy yo`naltirilgan, rivojlangan hamda samarali bozor iqtisodiyotini yaratishga ko`maklashadi. Bozor munosabatlari sharoitida fanini o`rganish ehtiyoji kun sayin kengayib bormoqda. Soliq qonunchiligining yangi xususiyatlarini o`rganish iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida birinchi darajali ahamiyatga ega. Bozor munosabatlari, xo`jalik yuritishning yangi shakllari rivojlanishi bilan soliq qonunchiligi tamoyillardan kelib chiqadigan hamda islohotlarning tegishli bosqichi sharoitiga mos keladigan jiddiy o`zgarishlarga moslashish talab etiladi. Amaldagi soliq tizimini bozor iqtisodiyoti tamoyillari asosida isloh qilish sharoitida ta'lim tizimida soliq sohasidagi bilimlarni o`rganish, tahlil qilish va ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish muhim ahamiyatga ega bo'lish eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. “Soliq tizimi” fanini o`qitish jarayonida asosan soliq tizimiga taalluqli bo'lgan maxsus kitoblar va o`quv adabiyotlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

“Soliq tizimi” fani asosiy ixtisoslik fani hisoblanib, mazkur fan bir qator fanlar, ya`ni falsafa, huquqshunoslik, marketing, tadbirkorlik va biznes, strategik menejment, strategik rejalashtirish, innovatsion menejment, operatsion menejment, psixologiya, personalni boshqarish va boshqa fanlar bilan chambarchas bog'liqdir.

Qayd qilingan menejmentga aloqador fanlarni mukammal o`rganish boshqaruv ishining sir-asrorlarini chuqur anglashga va uni samarali qo`llashga imkon beradi.

Ochiq dars.

Ochiq darsni o`tkazish uchun men tanlagan bitiruv malakaviy ishining mavzusi bo`yicha o`qitish texnologiyasini ishlab chiqdim. Ochiq dars 2017 yil 15 martda 41-Moliya guruhida, 207- o`quv xonasida bo`lib o`tdi. Ushbu o`tkazilgan ochiq dars bo`yicha dalolatnoma mavjud. Dalolatnoma ilova qilinadi.

1.5.“Yuridik shaxslarning soliqlari va soliqqa tortish” moduli tarkibidagi mavzularni o`qitish jarayonida o`quv-didaktik materiallardan foydalanish

Didaktika yunoncha “didaktikos” so`zidan kelib chiqqan bo`lib, o`qitish, o`rganish ma`nosini bildiradi. Yaqin va O`rta Sharqda Xorazmiy, Kindiy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Umar Xayyom kabi mutafakkirlar ilmiy didaktika asoschilaridirlar. Amos Komenskiy, shveysariyalik pedagog I.G.Pestalotsti, nemis pedagogi A. Disterveglar Evropada didaktikaning rivojlanishiga katta hissa qo`shganlar.

Didaktikaning quyidagi ta`lim tamoyillari – maqsadli rag`batlantirish – motivlashtirish, mazmuniy, harakat-faoliyat o`qitishning shakl va metodlarining ajratilishi alohida ahamiyat kasb etadi. Mana shu tamoyillarning ajratilganligi o`qituvchi bilan o`quvchilarning birgalikdagi faoliyati qonuniyatlarining tabiatini chuqurroq tushunish imkonini beradi.

Hozirgi vaqtda dars – ta`limning asosiy shaklidir. Dars jarayonida o`qituvchining faoliyati asosiy ahamiyatga ega. O`qituvchi o`quvchiga o`z predmeti bo`yicha muayyan ma`lumotlarni yetkazish bilangina cheklanib qolmay, ularni idrok qilishga, mustaqil ishlashga o`rgatmog`i lozim. Ana muammolarni hal qilishda texnik vositalar va elektron hisoblash texnikasining roli kattadir.


Didaktikaning barcha tamoyillari texnik vositalardan foydalanib tashkil qilingan o`quv-tarbiya jarayonida yuqori samara beradi. O`quv jarayonini tashkil etishdagi barcha pedagogik talablar ana shu didaktika tamoyillarida o`z ifodasini topadi. Shu tamoyillar asosida texnik vositalardan foydalanilgandagina ko`zlangan maqsadga erishish mumkin.

Ta`limning texnik vositalari va hisoblash texnikasi yordamida didaktikaning quyidagi masalalarini hal qilishga erishish mumkin: ta`limning ilmiylik va tizimlilikini ta`minlash; ko`rgazmalilikni oshirish; o`quvchilarning bilim olishga ishtiyoqini oshirish; o`quvchilarning chuqur va mustahkam bilim olishini ta`minlash; o`quv materialni o`rganish va o`zlashtirish sur`atini tezlashtirish; ta`limni individuallashtirish; bilimlarning o`zlashtirilishini nazorat qilish tizimini amalga oshirish; ma`lumotni uzatish va o`quvchi tomonidan qayta ishlash sur`atini oshirish;

o`quvchilarning darsga bo`lgan e`tiborini kuchaytirish; o`quvchilarda mustaqil bilim olish, malaka va ko`nikmalarini shakllantirish.

Ta`lim vositalari – o`quv materiallarini illyustratsiya va vizual ko`rinish uchun va shu bilan birga ta`lim samaradorligini oshirish uchun xizmat qiladigan yordamchi materiallar hisoblanadi.

Ta`lim vositalari klassifikatsiyasi



Ta`lim vositalari klassifikatsiyasi

“Soliq tizimi” fanini o`qitish jarayonida mavzuga mos ravishda didaktik vositalarni tanlash maqsadga muvofiqdir.

O`quv-didaktik vositalar asosan matnli, tasvirli, vizual ko`rinishda bo`lishi mumkin:

Matnli vositalar:

➤ **Maxsus o`quv adabiyotlari:**

1. O`zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi. –T.: Adolat, 2010.
2. Vahabov A., Jo`raev A. Soliqlar va soliqqa tortish. Darslik. –T.: “Iqtisod-moliya”, 2010.

3. Soliqlar va soliqqa tortish fanidan o`quv qo`llanma. Toshkent tibbiyot akademiyasi, 1-Ijtimoiy fanlar kafedrasini. – T.:2012.

4. Jo`rayev A. , Toshmatov Sh. Soliqlar va soliqqa tortish. O`quv qo`llanma. – T.: Fan va texnologiya. 2011.

5. Jo`rayev A. Soliq nazariyasi. O`quv qo`llanma. – T.:“Iqtisod-moliya”, 2010.

6. Пансков, В. Г. Налоги и налогообложение: учебник и практикум для прикладного бакалавриата. – 5-е изд., перераб. и доп. – М.: Издательство Юрайт, 2016.

7. Таниев А. “Soliqlar va soliqqa tortish”. Uslubiy qo`llanma. СамДУ, С.:2011.

8. Xudoyqulov S.K. Soliq tizimi. Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma 2-nashri. T.: “Ilm-ziyo”, 2013.

9. Yuldashev A. Soliq va soliqqa tortish. – T.:2011.

Internet saytlari:

www.Ziyo.net

www.soliq.uz

<http://www.gov.uz//>

- “Soliq tizimi” fanining o`quv dasturi;
- “Soliq tizimi” fanidan ma`ruza matni;
- Mavzuga oid testlar, sinov va nazorat varaqalari.

Tasvirli vositalar:

- fotosuratlar;
- chizma va sxemalar;
- reja-jadvallar;
- diagramma va grafiklar;
- komp'yuterlar;
- proektorlar;
- virtual stendlar, elektron darslik va qo`llanmalar.

Vizual vositalar:

- videofil'mlar;

- fotosuratlar;
- rasmlar;
- chizmalar;
- grafiklar.

“Soliq tizimi” fani bo`yicha nazariy va amaliy mashg`ulotlarni olib borish uchun qo`llaniladigan o`quv va didaktik materiallar mavzuga muvofiq ravishda o`qituvchi tomonidan tanlanadi va ulardan samarali foydalanish yo`llari bayon etiladi.

Vizual materiallar

Mavzu 1.2.1. Yuridik shaxs tushunchasi. Yuridik shaxslardan olinadigan soliqlar.

Reja:


1. Yuridik shaxs tushunchasi. Yuridik shaxslarni soliqqa tortish tartibi.
2. Yuridik shaxsdan undiriladigan soliqlar, yig`imlar va soliqlarga tenglashtirilgan to`lovlar.
3. Yuridik shaxslarni soliqqa tortishning asosiy tamoyillari.

Mavzuga oid tayanch iboralar:

yuridik shaxs, tijoratchi tashkilotlar, notijorat tashkilotlari, soliq to`lovchilar, soliq agentlari, vakolatli organlar, davlat soliq xizmati organlari, bojxona organlari, moliya organlari, soliq solish, to`g`ri soliq, egri soliq, yig`imlar, soliq tizimi, soliqqa tortish tamoyillari.


Adabiyotlar: (Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida)

1-ilova



1-rasm. Yuridik shaxs turlari.

2-ilova




2- rasm. Yuridik shaxslarning o'ziga xos xususiyatlari

Soliq agentlari

soliq qonunchiligiga muvofiq zimmasiga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblab chiqqarish, soliq to'lovchidan ushlab qolish hamda byudjetga va davlat maqsadli jamg'armalariga o'tkazish majburiyati yuklatilgan shaxslardir.


Vakolatli organlar



3-rasm. Vakolatli davlat organlari


Soliq solish

yuridik shaxslarga nisbatan mulkchilik shaklidan qat'i nazar, qonun oldida tenglik, jismoniy shaxslarga nisbatan esa jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, qonun oldida tenglik asosida amalga oshiriladi.




4-rasm. Yuridik shaxslar tomonidan to`lanadigan soliqlar va boshqa majburiy to`lovlar

Yuridik shaxslardan undiriladigan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning turlari



5-rasm. Yuridik shaxslardan undiriladigan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning turlari.

**Uyga vazifa**

4-rasm. Yuridik shaxslardan undiriladigan soliqlar va boshqa maiburiy to'lovlarlarning turlari.

Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:

1. “Yuridik shaxs” deganda nimani tushunasiz? Yuridik shaxslar turlari haqida ma'lumot bering.
2. Yuridik shaxslarning qanday o'ziga xos xususiyatlarini bilasiz?
3. Vakolatli davlat organlari tarkibiga qaysi organlar kiritiladi?
4. Yuridik shaxslardan undiriladigan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarlar qanday turlarga bo'linadi?
5. Yuridik shaxslardan undiriladigan soliqlarga qaysi soliqlar kiradi?
6. Yuridik shaxslardan undiriladigan boshqa majburiy to'lovlarlarga qaysi to'lovlar kiradi?
7. Yuridik shaxslarni soliqqa tortishning qanday asosiy tamoyillari mavjud?

1.6. “Yuridik shaxslarning soliqlari va soliqqa tortish” moduli bo’yicha nazariy va amaliy mashg’ulotlarning ta’lim texnologiyasi va texnologik xaritasi

1.6.1.1. Yuridik shaxs tushunchasi. Yuridik shaxslardan olinadigan soliqlar” mavzusi bo’yicha nazariy va amaliy mashg’ulotlarning ta’lim texnologiyasi va texnologik xaritasi

2.1-mavzu.	“Yuridik shaxs tushunchasi. Yuridik shaxslardan olinadigan soliqlar”
2.1. Ma’ruza mashg’ulotini o’qitish texnologiyasi	
Vaqt - 2 soat	Talabalar soni 25-30 nafar
O’quv mashg’ulot shakli	Axborot, vizual ma’ruza
O’quv mashg’ulot rejasi	<ol style="list-style-type: none"> 1. Yuridik shaxs tushunchasi. Yuridik shaxslarni soliqqa tortish tartibi. 2. Yuridik shaxsdan undiriladigan soliqlar, yig’imlar va soliqlarga tenglashtirilgan to’lovlar. 3. Yuridik shaxslarni soliqqa tortishning asosiy tamoyillari.
<p>O’quv mashg’ulotining maqsadi: Yuridik shaxs tushunchasi. Yuridik shaxslardan olinadigan soliqlar to’g’risida tushuncha hosil qilish, ularni hisolash va byudjetga to’lash tartibini o’rgatish.</p>	
<p>Pedagogik vazifalar:</p> <ul style="list-style-type: none"> - “Yuridik shaxs”, yuridik shaxs turlari, soliq to’lovchilar, soliq agentlari to’g’risida tushuncha berish; - Yuridik shaxslarni soliqqa tortish tartibi to’g’risida to’liq ma’lumot berish; - Yuridik shaxsdan undiriladigan soliqlar va yig’imlar to’g’risidagi bilimlarni shakllantirish; - Yuridik shaxsdan undiriladigan soliqlarga tenglashtirilgan to’lovlar to’g’risida tushuncha berish; - Yuridik shaxslarni soliqqa tortishning asosiy tamoyillari bilan tanishtirish. 	<p>O’quv faoliyati natijalari:</p> <p>Talaba:</p> <ul style="list-style-type: none"> o “Yuridik shaxs”, Yuridik shaxs turlari, soliq to’lovchilar, soliq agentlari to’g’risida tushunchaga ega bo’ladi; o Yuridik shaxslarni soliqqa tortish tartibi to’g’risida to’liq ma’lumotga ega bo’ladi; o Yuridik shaxsdan undiriladigan soliqlar va yig’imlar to’g’risidagi bilimlarini shakllantiradi; o Yuridik shaxsdan undiriladigan soliqlarga tenglashtirilgan to’lovlar to’g’risida tushunchaga ega bo’ladi; o Yuridik shaxslarni soliqqa tortishning asosiy tamoyillarini o’rganadi.
O’qitish vositalari	ma’ruza matni, proektor, slaydlar, doska, bo’r
O’qitish usullari	Ma’ruza, “Paradokslar” usuli, texnika: blits-so’rov, diqqatni jalb qiluvchi savollar.
O’qitish shakllari	Guruhiy, individual, jamoada ishlash.
O’qitish shart-sharoitlari	Proektor, komp’yuter texnologiyalari bilan ta’minlangan namunadagi auditoriya.
Monitoring va baholash	Og’zaki nazorat, savol-javob, reyting tizimi asosida baholash.

Ma`ruza mashg`ulotining texnologik xaritasi

Bosqichlar, vaqti	Faoliyatning mazmuni	
	O`qituvchi	Talaba
I-bosqich. Kirish (10 min)	<p>1.1. Ma`ruzaning mavzusini e`lon qiladi, o`quv mashg`ulotining maqsadi va natijalarini tushuntiradi.</p> <p>1.2. Mavzu bo`yicha ma`ruza mashg`ulotining yo`naltiruvchi slaydlarini namoyish etadi, ma`ruza rejasiga izoh beradi (1-ilova).</p> <p>1.3. Mavzuga oid tayanch iboralarni izohlaydi va adabiyotlar ro`yxatini e`lon qiladi.</p>	<p>1.1. Tinglaydi, mavzu nomini yozib oladilar</p> <p>1.2. Tinglaydi, ma`ruza rejasini yozib oladi.</p> <p>1.3. Tayanch iboralar bilan tanishadi va adabiyotlar ro`yxatini yozib oladi.</p>
II-bosqich. Asosiy (60 min)	<p>2.1. O`quv mashg`ulotining birinchi rejasini bo`yicha talabalarga quyidagi savollarni berib ularni faollashtiradi “Yuridik shaxs” deganda nimani tushunasiz? Yuridik shaxs turlariga izoh bering Javoblarni tinglaydi va slaydlar orqali ularning javoblarini to`ldiradi (2-ilova).</p> <p>2.2. Yuridik shaxs tushunchasi. Yuridik shaxslarni soliqqa tortish tartibi to`g`risida slaydlar orqali to`liq ma`lumot beradi (3-ilova).</p> <p>2.3. Yuridik shaxsdan undiriladigan soliqlar, yig`imlar va soliqlarga tenglashtirilgan to`lovlar to`g`risida ma`lumot beradi va bilimlarni shakllantiradi (4-ilova).</p> <p>2.4. Yuridik shaxslarni soliqqa tortishning qanday tamoyillarini bilasiz? degan savolni o`rtaga tashlab talabalarni fikrlashga undaydi, ularning javoblarini tinglaydi va fikrlarni umumlashtiradi.</p> <p>2.5. Yuridik shaxslarni soliqqa tortishning asosiy tamoyillari bilan to`g`risida ma`lumot beradi (5-ilova).</p>	<p>2.1. Tinglaydi, javob beradi, yozadi.</p> <p>2.2. Tinglaydi, yozadi.</p> <p>2.3. Tinglaydi, javob beradi, yozadi.</p> <p>2.4. Tinglaydi, javob beradi, eshitadi..</p> <p>2.5. Tinglaydi, yozadi.</p>
III-bosqich. Yakuniy. (10 min.)	<p>3.1. O`quv faoliyatiga yakun yasaydi. O`zaro o`qitish natijalarini e`lon qiladi. Faol ishtirokchilarni belgilaydi va olingan bilimlarining kelajakdagi ahamiyatini ta`kidlaydi.</p> <p>3.2. Mustaqil ish uchun vazifa beradi: mavzu bo`yicha klaster tayyorlash(6-ilova).</p>	<p>3.1. Eshitadi.</p> <p>3.2. Vazifani yozib oladi.</p>

2.2. Amaliy mashg'ulotda o'qitish texnologiyasi

Vaqti – 2 soat	Talabalar soni: 24
O`quv mashg'uloti shakli	Bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish bo'yicha amaliy mashg'ulot
O`quv mashg'uloti rejasi	<ol style="list-style-type: none"> 1. Yuridik shaxs tushunchasi. Yuridik shaxslarni soliqqa tortish tartibi. 2. Yuridik shaxsdan undiriladigan soliqlar, yig'implar va soliqlarga tenglashtirilgan to'lovlar. 3. Yuridik shaxslarni soliqqa tortishning asosiy tamoyillari.
O`quv mashg'ulotining maqsadi: Yuridik shaxs tushunchasi. Yuridik shaxslardan olinadigan soliqlar to'g'risida ma`ruzada olingan bilimlarni chuqurlashtirish va mustahkamlash.	
Pedagogik vazifalar: <ul style="list-style-type: none"> ○ mavzu bo'yicha bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish; ○ bilimlarni taqqoslashni, umumlashtirishni, tahlilni tizimlashtirish ko`nikmasini hosil qilish; ○ o`z fikrini shakllantirish va bildirish jarayonini tashkil qilish; ○ kommunikatsiya, guruhda ishlash ko`nikmalarini rivojlantirish 	O`quv faoliyatining natijalari: Talaba: <ul style="list-style-type: none"> ○ “Yuridik shaxs”, “Yuridik shaxs turlari” “soliq to'lovchilar”, soliq agentlari haqida umumiy tushuncha beradi; ○ Yuridik shaxslarni soliqqa tortish tartibi to'g'risida ma`lumot beradi; ○ Yuridik shaxsdan undiriladigan soliqlar va yig'implar to'g'risida gapirib beradi; ○ Yuridik shaxslarni soliqqa tortishning asosiy tamoyillarini aytib beradi.
O`qitish uslubi va texnikasi	Savol-javob, “Munozara” usuli, taqdimot, “Konvert” texnikasi, “Qanday” organayzeri, “Topshiriq” usuli.
O`qitish vositalari	Ma`ruza matni, o`quv qo`llanmasi, proektor, flipchart, marker, doska.
O`qitish shakli	Jamoaviy, guruhlarda ishlash.
O`qitish sharoitlari	Texnik ta`minlangan, guruhlarda ishlashga moslashtirilgan auditoriya.

Amaliy mashg'ulotning texnologik xaritasi

Bosqichlar, vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O`qituvchi	Talaba
I-bosqich. Kirish (10 min)	<p>1.1. Mavzu, reja va kutilayotgan maqsad, amaliy mashg'ulot rejasi hamda uni o'tkazish tartibi ma'lum qilinadi.</p> <p>1.2. Ta'lim jarayoni interfaol usullar orqali amalga oshirishini e'lon qiladi. Talabalarni doira yoki to'rtburchak shaklida stollar atrofida ikki guruhga bo'ladi. Guruhda ishlash qoidalarini eslatadi (1- ilova).</p>	<p>1.1. Eshitadilar va mavzuni yozadilar.</p> <p>1.2. Ixtiyoriy ravishda ikki guruhga bo'linadilar.</p>
II-bosqich. Asosiy (60 min)	<p>2.1. «Konvert» texnikasidan foydalanilgan holda har bir guruh navbat bilan konvertga solingan topshiriqlarni oladi (2-ilova).</p> <p>2.2. Topshiriqlarga tayyorgarlik ko'rish uchun 3 minut, javob berish uchun esa 7 minut beradi.</p>	<p>2.1. Topshiriqni ko'rib chiqib, savollarga javob beradilar.</p> <p>2.2. Reglamentga rioya qiladilar.</p>
	<p>2.3. Guruhlarga topshiriqlarni bajarish uchun yordam beradi, bahs-munozarani boshqarib boradi.</p> <p>2.4. Guruhlarning javoblarini tinglab, ularni baholaydi.</p> <p>2.5. Guruhlarga «Qanday?» organayzer texnikasidan foydalanilgan holda: “Yuridik shaxslarning qanday o'ziga xos xususiyatlarini bilasiz?” deb savol bilan murojaat qiladi (3-ilova).</p> <p>2.6. Topshiriqlarni qog'ozlarga tushirib, taqdimotini o'tkazishga yordam beradi. Yagona xulosa chiqarishga ko'mak beradi va nihoyasida umumlashtiradi.</p> <p>2.7. Guruhlarga “Atamalarni tanlash” texnikasidan foydalangan holda jadvalni to'ldirishni taklif qiladi (4-ilova).</p> <p>2.8. Taqdimot va guruhlarda ishlash natijalarini o'zaro baholashni tashkil etadi. Javoblarni sharhlaydi, bilimlarni umumlashtiradi, vazifani bajarish jarayonidagi asosiy xulosalarga e'tiborni qaratadi.</p>	<p>2.3. Faol qatnashadilar.</p> <p>2.4. O'z fikrlarini erkin bildiradilar.</p> <p>2.5. Mustaqil diagrammani har bir guruh to'ldiradi.</p> <p>2.6. Taqdimot o'tkazadilar.</p> <p>2.7. Yozib oladilar va topshiriqni bajaradilar.</p> <p>2.8. G'olib guruhlarni aniqlab, baholaydilar.</p>
III-bosqich. Yakuniy (10 min)	<p>3.1. Ish yakunlarini chiqaradi. Faol talabalarni baholash mezonlari orqali rag'batlantiradi (5-ilova).</p> <p>3.2. Mustaqil ish uchun vazifa beradi “Sinkveyn” (5 qator) texnikasidan foydalangan holda “Yuridik shaxs” tushunchasiga izoh berish.</p>	<p>3.1. Eshitadi. Aniqlaydi.</p> <p>3.2. Vazifani yozib oladilar.</p>

1.6.2. “Yuridik shaxslardan olinadigan foyda soligi, uni hisoblash va byudjetga to’lash tartibi” mavzusi bo’yicha amaliy mashg’ulotlarning ta’lim texnologiyasi va texnologik xaritasi

2.2. Amaliy mashg’ulotda o’qitish texnologiyasi

Vaqt – 4 soat	Talabalar soni: 30
O`quv mashg`uloti shakli	Bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish bo`yicha amaliy mashg`ulot
O`quv mashg`uloti rejasi	<ul style="list-style-type: none"> • Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig`ining iqtisodiy mohiyati soliq tizimidagi o`rni. • Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig`i to`lovchilari tarkibi va soliq solish ob`yekti. • Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig`i bo`yicha imtiyozlar va soliq stavkalari. • Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig`ini hisoblash va davlat byudjetiga o`tkazish tartibi.
O`quv mashg`ulotining maqsadi: Yuridik shaxslardan olinadigan foyda soligi, uni hisoblash va byudjetga to`lash tartibi to`g`risida olingan bilimlarni chuqurlashtirish va mustahkamlash.	
Pedagogik vazifalar: <ul style="list-style-type: none"> ○ mavzu bo`yicha bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish; ○ bilimlarni taqqoslashni, umumlashtirishni, tahlilni tizimlashtirish ko`nikmasini hosil qilish; ○ o`z fikrini shakllantirish va bildirish jarayonini tashkil qilish; ○ kommunikatsiya, guruhda ishlash ko`nikmalarini rivojlantirish 	O`quv faoliyatining natijalari: Talaba: <ul style="list-style-type: none"> • Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig`ining iqtisodiy mohiyati haqida umumiy tushuncha beradi; • Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig`i to`lovchilari tarkibi tushuntirib beradi; • Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig`i bo`yicha imtiyozlar va soliq stavkalari ma`lumot beradi; • Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig`ini hisoblash va davlat byudjetiga o`tkazish tartibini tushuntirib beradi.
O`qitish uslubi va texnikasi	Birgalikda o`qiymiz texnikasi, munozara, taqdimot, Blits so`rov, grafik tashkil etuvchilar, T-jadval, “Venna”diagrammasi.
O`qitish vositalari	Ma`ruza matni, o`quv qo`llanmasi, proyektor, flipchart, marker, doska.
O`qitish shakli	Jamoaviy, guruhlarda ishlash.
O`qitish sharoitlari	Texnik ta`minlangan, guruhlarda ishlashga moslashtirilgan auditoriya.

Amaliy mashg'ulotning texnologik xaritasi

Bosqichlar, vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O`qituvchi	Talaba
1-bosqich. Kirish (5 min.)	<p>1.1. O`quv mashg'ulotining mavzusi maqsadi, rejalash tirilgan natijasi va uni o`tkazish rejasini aytadi. O`qitish guruhlarda ishlash texnologiyasi asosida olib borilishini e`lon qiladi.</p> <p>1.2. Mavzuning tayanch iboralari asosida blits-so`rov o`tkazadi(1-ilova).</p> <p>1.3. Talabadan javobni eshitadi va mavzu muhokamasi guruhlariga ishlar taqdimotidan so`ng davom etishini e`lon qiladi. Har bir talaba guruh bahosiga mos ravishda baho olishini tushuntiradi, guruhlarda ishlash qoidalari bilan tanishtiradi (2-ilova). Guruhlarda ishlash natijasi plakat qog`ozlarda ko`rsatilishini ma`lum qiladi.</p>	<p>1.1. Tinglaydilar, yozib oladilar.</p> <p>1.2. Savollarga javob beradilar.</p> <p>1.3. Tinglaydilar, guruhda ishlash qoidalari bilan tanishadilar.</p>
2-bosqich. Asosiy (20 min.)	<p>2.1. Talabalarni 2 guruhga ajratadi. O`quv topshiriqlarini tarqatadi (3-ilova). Vazifa butun guruh tomonidan bajarilishini e`lon qiladi. Vazifani bajarishda darslik, ma`ruza matnlari va boshqa qo`llanmalardan foydalanish mumkinligini ta`kidlaydi. O`quv natijalarini eslatadi. Guruhlarda ishlarni boshlashni e`lon qiladi.</p>	<p>2.1. O`quv topshiriqlarini, baholash ko`rsatkichlari va mezonlari bilan tanishadilar. Vazifani bajaradilar.</p>
3-bosqich. Taqdimot (45 min.)	<p>3.1. Taqdimot va guruhlarda ishlash natijalarini o`zaro baholashni tashkil etadi(4-ilova). Javoblarni sharhlaydi, bilimlarni umumlashtiradi, vazifani bajarish jarayonidagi asosiy xulosalarga e`tiborni qaratadi.</p>	<p>3.1. Taqdimot qilishadi, qo`shimchalar qilishadi, baholashadi.</p>
4-bosqich. Yakuniy (10 min.)	<p>4.1. Mashg'ulotga yakun yasaydi faol ishtirok etgan talabalarni rag`batlantiradi.</p> <p>4.2. Mustaqil ish uchun vazifa beradi (5-ilova).</p>	<p>4.1. Tinglaydilar, aniqlashtiradilar.</p> <p>4.2. Mustaqil ish uchun vazifani yozib oladilar.</p>

1-ilova

Mavzuning tayanch iboralari asosida Blits-so`rov savollari

foyda solig'i, rezident, norezident, foyda solig'ining ob'yekti, jami daromad, daromaddan chegirmalar, moddiy xarajatlar, foyda solig'i imtiyozlari, soliq stavkalari, foyda solig'ini hisoblash, byudjetga o`tkazish.

Guruh bilan ishlash qoidalarini

Guruhning har bir aʼzosi:

- oʻz sheriklarining fikrlarini xurmat qilishlari lozim;
- berilgan topshiriqlar boʻyicha faol, hamkorlikda va masʼuliyat bilan ishlashlari lozim;
- oʻzlariga yordam kerak boʻlganda soʻrashlari mumkin;
- yordam soʻraganlarga koʻmak berishlari lozim;
- guruhni baholash jarayonida ishtirok etishlari lozim;
- “Biz bir kemadamiz, birga choʻkamiz yoki birga qutilamiz” qoidasini yaxshi bilishlari lozim.

Guruhlarda ishlash uchun topshiriqlar

1-topshiriq

1-guruh uchun topshiriq

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda soligʻining iqtisodiy mohiyati soliq tizimidagi oʻrni toʻgʻrisida toʻliq maʼlumot bering

2-guruh uchun topshiriq

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda soligʻi toʻlovchilari tarkibi va soliq solish obʼyektini toʻgʻrisida toʻliq maʼlumot bering.

2-topshiriq

“Ha, yo’q” texnikasidan foydalangan holda savollarga javob bering

1-guruh uchun topshiriq

1-savol.Yuridik shaxslarning to’laydigan soliqlari ichida ularning foydasiga soliq byudjet daromadlari tarkibida katta o’rin egallaydi.

2-savol. Foyda solig’i xo’jalik sub’yektlarining asosiy moliyaviy natijasiga bog’liq bo’lmaganligi sababli, soliq yuki soliq to’lovchi yuridik shaxs zimmasiga yuklanadi;

3-savol. O`zbekiston Respublikasining rezidentlari foyda solig'i to`lovchisi hisoblanmaydi.

4-savol. O`zbekiston Respublikasi norezidentlarining foydasi yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining ob'yekti hisoblanadi.

2-guruh uchun topshiriq

1-savol.Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig’i xo’jalik sub’yektlarining moliyaviy ahvoli bilan bog’liq emas.

2-savol.Foyda solig’i umumdavlat solig'i, ammo tartibga soluvchi soliq sifatida mahalliy byudjetlar daromadlarini shakllantirishda alohida ahamiyat kasb etadi.

3-savol. Notijorat tashkilotlar foyda solig'i to`lovchisi hisoblanmaydi.

4-savol. O`zbekiston Respublikasi rezidentlarining va O`zbekiston Respublikasi norezidentlarining soliq bo`limga muvofiq chegirmalar qilinmagan holda to`lov manbaida soliq solinadigan daromadlari yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining ob'yekti hisoblanadi.

Mustaqil ish uchun vazifa: “Yuridik shaxslardan undiriladigan foyda solig’i” stavkalarini taqqoslama tahlil qilish.

1.6.3. “O‘zbekiston Respublikasi norezidentlarining foydasiga soliq solishning o‘ziga xos xususiyatlari” mavzusi bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlarning ta‘lim texnologiyasi va texnologik xaritasi.

3.2. Seminar mashg‘ulotni olib borish texnologiyasi

Vaqt -2 soat	Talabalar soni 30 nafar
O‘quv mashg‘ulotining shakli	Bilimlarni chuqurlashtirish va mustahkamlashga qaratilgan amaliy mashg‘ulot texnologiyasi
O‘quv mashg‘ulotning rejasi	<ul style="list-style-type: none"> - O‘zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshiradigan O‘zbekiston Respublikasi norezidentlarining foydasiga soliq solishning o‘ziga xos xususiyatlari. - O‘zbekiston Respublikasi norezidentlarining doimiy muassasa bilan bog‘liq bo‘lmagan daromadlariga soliq solish. - O‘zbekiston Respublikasi norezidentlarining daromadlariga to‘lov manbaida soliq solish stavkalari.
O‘quv mashg‘ulotining maqsadi: “O‘zbekiston Respublikasi norezidentlarining foydasiga soliq solishning o‘ziga xos xususiyatlari” talabalar ma‘ruzada olgan bilimlarini aniqlashtirish va to‘ldirish. Nazariya bilan amaliyotni bog‘lash.	
Pedagogik vazifalar: <ul style="list-style-type: none"> - mavzu bo‘yicha bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish; - bilimlarni taqqoslashni, umumlashtirishni, tahlilni tizimlashtirish ko‘nikmasini hosil qilish; - o‘z fikrni shakllantirish va bildirish jarayonini tashkil qilish; - kommunikatsiya, guruhda ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish 	O‘quv faoliyati natijalari: Talaba: <ul style="list-style-type: none"> - “resident”, “norezident” va “norezident foydasi” tushunchalariga ta‘rif beradi; - O‘zbekiston Respublikasi norezidentlarining foydasiga soliq solishning o‘ziga xos xususiyatlari haqida ma‘lumot beradi; - O‘zbekiston Respublikasi norezidentlarining doimiy muassasa bilan bog‘liq bo‘lmagan daromadlariga soliq solish mazmunini yoritadi; - O‘zbekiston Respublikasi norezidentlarining daromadlariga to‘lov manbaida soliq solish stavkalari bo‘yicha ma‘lumot beradi va ularni qo‘llash asoslarini tavsiflab beradi;
O‘qitish vositalari	ma‘ruza matni, slaydlar, doska
O‘qitish usullari	hamkorlikda ishlash, konvert texnikasi, “Piramida usuli”.
O‘qitish shakllari	Guruhiy, individual, jamoada ishlash
O‘qitish sharoiti	Proyektor, komp’yuter texnologiyalari bilan ta‘minlangan namunadagi auditoriya.

Amaliy mashg'ulotning texnologik xaritasi

Bosqichlar, vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
I-bosqich. Kirish (10 min)	1.1. Mavzu, reja va kutilayotgan maqsad, amaliy mashg'ulot rejasi hamda uni o'tkazish tartibi ma'lum qilinadi. 1.2. Ta'lim jarayoni interfaol usullar orqali amalga oshirishini e'lon qiladi. Talabalarni doira yoki to'rtburchak shaklida stollar atrofida ikki guruhga bo'ladi.	1.1. eshitadilar va mavzuni yozadilar. 1.2. Ixtiyoriy ravishda ikki guruhga bo'linadilar.
II-bosqich. Asosiy (60 min)	2.1. "resident", "nerezident" va "nerezident foydasi" tushunchalari asosida Blits-so'rov o'tkazadi (1-ilova). 2.2. «Konvert» texnikasidan foydalanilgan holda har bir guruh navbat bilan konvertga solingan topshiriqlarni beradi (2-ilova). 2.3. Topshiriqlarga tayyorgarlik ko'rish uchun 3 minut, javob berish uchun esa 7 minut beradi.	2.1. Tushunchalarga ta'rif beradi 2.2. Topshiriqni ko'rib chiqib, savollarga javob beradi. 2.3. Reglamentga rioya qiladi.
	2.3. Guruhlarga topshiriqlarni bajarish uchun yordam beradi, bahs-munozarani boshqarib boradi. 2.4. Guruhlarning javoblarini tinglab, ularni baholaydi. 2.5. Guruhlarga «Piramida usuli» dan foydalangan holda topshiriq beradi (3-ilova). 2.6. Berilgan topshiriqlar bo'yicha javoblarni tinglaydi va yagona xulosa chiqarishga ko'mak beradi va javoblarni umumlashtiradi.	2.3. Faol qatnashadilar. 2.4. O'z fikrlarini erkin bildiradilar. 2.5. Berilgan topshiriqni yozib oladilar. 2.6. Javob beradi va tinglaydi.
III-bosqich. Yakuniy (10 min)	3.1. Ish yakunlarini chiqaradi. Faol talabalarni baholash mezonini orqali rag'batlantiradi (4-ilova). 3.2. Mustaqil ish uchun vazifa beradi.	3.1. Eshitadi. Aniqlaydi. 3.2. Vazifani yozib oladilar

O`quv topshiriqlar

1-ilova

1-topshiriq Blits-so`rov savollari:

“resident”, “nerezident” va “nerezident foydasi” tushunchalariga ta`rif bering

2-ilova

2-topshiriq «Konvert» texnikasi uchun savollar

(Har bir savol konvertlarga alohida solinadi)

1-savol. O`zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshiradigan O`zbekiston Respublikasi nerezidentlarining foydasiga soliq solishning o`ziga xos xususiyatlari haqida gapirib bering.

2-savol. O`zbekiston Respublikasi nerezidentlarining doimiy muassasa bilan bog`liq bo`lmagan daromadlariga soliq solish qanday tartibda amalga oshiriladi?

3-savol. O`zbekiston Respublikasi nerezidentlarining daromadlariga to`lov manbaida soliq solish stavkalari bo`yicha ma`lumot bering va ularni qo`llash asoslarini tavsiflab bering.

3-ilova

3-topshiriq

Topshiriqni «Piramida usuli»dan foydalangan holda bajaring.

O`zbekiston Respublikasi nerezidentlarining to`lov manbaida soliq solinadigan daromadlari qanday daromatlardan tashkil topadi?

4-ilova

Guruhlarning bilim va ko`nikmalarini baholash mezonlari

Topshiriqlar, baholash ko`rsatkichlari va mezonlari	I guruh	II guruh
1-topshiriq: (1,5 ball)		
- savol yoritib berildi (0,5 ball)		
- reglamentga e`tibor qaratildi (0,5 ball)		
- guruh faol qatnashdi (0,5 ball)		
2-topshiriq: (1,5 ball)		
- muammo aniq yechimini topdi (0,5 ball)		
- mantiqan to`g`ri xulosa chiqarildi (0,5 ball)		
- misollar bilan umumlashtirildi (0,5 ball)		
Jami: (3 ball)		

0,5 ball – «a`lo»

0,4 ball – «yaxshi»

0,3 ball – «qoniqarli»

2,5 – 3 ball – «a`lo»

1,9 – 2,4 ball – «yaxshi»

2,3 – 1,8 ball – «qoniqarli».

1.6.4. “Egri soliqlarni hisoblash va byudjetga to’lash” mavzusi bo’yicha amaliy mashg’ulotlarning ta’lim texnologiyasi va texnologik xaritasi.

4.2. Amaliy mashg’ulotda o’qitish texnologiyasi

Vaqt - 6 soat	Talabalar soni -30 nafar
O`quv mashg`ulot shakli	Bilimlarni chuqurlashtirish va mustahkamlashga qaratilgan amaliy mashg`ulot texnologiyasi
O`quv mashg`ulotining rejasi	<ol style="list-style-type: none"> 1. Egri soliqlar haqida tushuncha va ularning turlari. 2. Qo`shilgan qiymat solig`i, uni hisoblash va to`lash tartibi. 3. Aktsiz solig`i, uni hisoblash va to`lash tartibi.
O`quv mashg`ulotining maqsadi: mavzu bilimlarini chuqurlashtirish va ko`nikmalar hosil qilish.	
Pedagogik vazifalar: <ul style="list-style-type: none"> - mavzu bo`yicha bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish; - bilimlarni taqqoslashni, umumlashtirishni, tahlilni tizimlashtirish ko`nikmasini hosil qilish; - o`z fikrni shakllantirish va bildirish jarayonini tashkil qilish; - kommunikatsiya, guruhda ishlash - ko`nikmalarini rivojlantirish 	O`quv faoliyati natijalari: <p>Talaba:</p> <ul style="list-style-type: none"> - Egri soliqlar haqida tushuntirib bera oladi; - Egri soliqlarning turlari haqida ma`lumot bera oladi; - Qo`shilgan qiymat solig`i haqida ma`lumot beradi; - Qo`shilgan qiymat solig`ini hisoblash tartibi va usullarini tavsiflab beradi; - Qo`shilgan qiymat solig`ini to`lash tartibini ayta oladi; - Aktsiz solig`i haqida tushuntirib bera oladi; - Aktsiz solig`ini hisoblash va to`lash tartibi to`g`risida ma`lumot bera oladi.
O`qitish vositalari	Ma`ruza matni, proyektor, qog`oz, marker, skotch, o`quv materiallari, konspektlar.
O`qitish usullari	suhbat, aqliy hujum, munozara, namoyish qilish, insert
O`qitish shakllari	Jamoa, guruhlarda
O`qitish sharoiti	Guruhlarda ishlash uchun mo`ljallangan auditoriya

Amaliy mashg'ulotning texnologik xaritasi

Bosqichlari, vaqti	Faoliyatning mazmuni	
	O`qituvchi	Talaba
I-bosqich. Mavzuga kirish (10 minut)	1.1. O`quv mashg'uloti mavzusi, maqsadi, vazifalari va o`quv faoliyati natijalarini aytadi, dolzarbligi va ahamiyatiga to`xtalib o`tadi. 1.2. Olgan bilimlarini umumlashtirish maqsadida, talabalarni faollashtirish uchun «Egri soliqlar deganda nimani tushunasiz» deb savol beradi, «Aqliy hujum» o`tkazadi. Fikrlarni umumlashtiradi.	1.1.Tinglaydilar. 1.2.Javob beradilar.
II-bosqich. Asosiy (60 minut)	2.1. Talabalarni 3 ta kichik guruhlariga ajratadi, ularni baholash mezonlari bilan tanishtiradi (2-ilova) mavzu bo`yicha tayyorlangan topshiriqlarni tarqatadi (1-ilova). 2.2. Guruhlarga topshiriqlarni bajarish uchun yordam beradi, qo`shimcha ma`lumotlardan foydalanishga imkon yaratadi. Diqqatlarini kutiladigan natijaga jalb qiladi.	2.1.Berilgan topshiriqni oladilar. 2.2. Topshiriqni bajaradilar.
	2.3. Har bir guruh topshiriqlarni qog`ozlarga tushirib, taqdimotini o`tkazishda yordam beradi, izoh beradi, bilimlarini umumlashtiradi, xulosalarga alohida e`tibor beradi. Topshiriqlarni bajarilishining qay darajada to`g`ri ekanligini diqqat bilan tinglaydi. 2.4. Talabalarning bilimlarini chuqurlashtirish maqsadida blits-so`rov o`tkazadi (3-ilova). Dars yakunini umumlashtiradi.	2.3.Jamoa bo`lib bajarilgan ishning taqdimotini o`tkazadilar, bahs-munozara yuritadilar, qo`shimchalar qiladilar, baholaydilar, xulosa chiqaradilar. 2.4.Savollarga javob beradilar.
III-bosqich. Yakuniy (10 minut)	3.1. Ish yakunlarini chiqaradi. Olgan bilimlarini amaliyotda tatbiq yetishlari lozim ekanligini ta`kidlaydi. Faol talabalarni baholash mezonlari orqali rag`batlantiradi. 3.2. Uyga mustaqil bajarish uchun topshiriq beradi: «Egri soliqlarning iqtisodiy mohiyati» mavzusida asoslovchi esse yozib kelish.	3.1.Tinglaydilar. 3.2.Vazifani yozib oladilar.

1-ilova

1-O`quv topshiriq

Test

1. Soliqlar ijtimoiy-iqtisodiy tuzilishiga yoki undirib olish manbasiga qarab necha guruhga bo`linadi va ular qaysilar?

- A. Ikki guruhga, davlat va mahalliy soliqlar.
- B. Ikki guruhga, to`g`ri va egri soliqlar.
- C. Uch guruhga, soliqlar, yig`imlar va majburiy to`lovlar.
- D. Soliqlar faqat to`g`ri bo`ladi, guruhlariga ajratilmaydi.

2. Quyida keltirilganlardan qaysi biri egri soliqlar tarkibiga kiritiladi?

- A. Yer solig`i.

- B. Qo`shilgan qiymat solig`i.
 C. Mol-mulk solig`i.
 D. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq.
3. **Qo`shilgan qiymat solig`ining haqiqiy to`lovchilari bo`lib kimlar?**
 A. Yuridik shaxslar.
 B. Iste`molchilar.
 C. Tadbirkorlar.
 D. Davlat organlari.
4. **QQS ob`yekti bo`lib -**
 A. Tovarlar (ishlar, xizmatlar) sotish va import tovarlar oboroti.
 B. Yuridik shaxslarning daromadi.
 C. Iste`molchilarning daromadi.
 D. Tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqaruvchi korxonalar oboroti.
5. **Aksiz solig`i stavkasini kim belgilaydi?**
 A. Aksizosti tovarlarini ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslar.
 B. Vazirlar Mahkamasi.
 C. Oily majlis.
 D. Iste`molchilar.
6. **Pivo, alkogolli va tamaki mahsulotlariga aksiz solig`ini hisoblab chiqarish uchun soliq solinadigan oborot qaysi formula orqali aniqlanadi?**
 A. $= S \times A$.
 B. $= S \times 100 / (100 - A)$.
 C. $= S \times 100 - A$.
 D. $= S \times A / 100$

Vazifa. Javoblaringizni asoslab bering.

2- ilova

Baholash ko`rsatkichlari va mezonlari

Guruh	Baho	Baholash ko`rsatkichlari va mezonlari			
		O`tilgan mavzuni bilishadi	Guruh faolligi	Muammoni yechish uchun takliflar berishdi	Jami
	ball	1,0	0,5	1,5	3
1					
2					
3					

Guruh ishlarini umumlashtiruvchi baho

Guruh	1	2	3	Jami ball	Baho
1					
2					
3					

2,2 – 3 ball – a`lo

1,2 – 2 ball – yaxshi

0,5 – 1,1 ball – qoniqarli

0 – 0,5 ball – qoniqarsiz

3- ilova

2-O`quv topshiriq

Blits-so`rov savollari

№	Savol	Javob
1.	Egri soliqlarning to`g`ri soliqlardan farqi nimada?	
2.	Egri soliqlar tarkibiga qaysi soliqlar kiradi?	
3.	Qo`shilgan qiymat solig`i deganda nima tushuniladi?	
4.	Qo`shilgan qiymat solig`i stavkalari va hisoblash tartibi qanday?	
5.	Aktsiz solig`i solish ob`yektiga nimalar kiradi?	
6.	Aktsiz solig`ini byudjetga o`kazish tartibi qanday?	

1.6.5. “Resurs to’lovlarini hisoblash va to’lash tartibi” mavzusi bo’yicha amaliy mashg’ulotlarning ta’lim texnologiyasi va texnologik xaritasi

5.2. Amaliy mashg’ulotda o’qitish texnologiyasi

Vaqt - 4 soat	Talabalar soni: 30-35 nafar
Mashg’ulot shakli	Munozarali amaliy mashg’ulot
Mashg’ulot rejasi	<ul style="list-style-type: none"> - Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliqlar va soliqqa tortish ob’yektlari. - Yer qa’ridan foydalanuvchilar uchun soliq stavkasi va imtiyozlar. - Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblash va to’lash tartibi.
O’quv mashg’ulotining maqsadi: Resurs to’lovlarini hisoblash va to’lash tartibi borasidagi bilimlarni mustahkamlash va chuqurlashtirish.	
Pedagogik vazifalar: <ul style="list-style-type: none"> - mavzu bo’yicha bilimlarni tizimlashtirish, mustahkamlash; - darslik bilan ishlash ko’nikmalarini hosil qilish; - iqtisodiy axborotlarni tahlil qilish va o’z fikrini ifodalash ko’nikmalarini rivojlantirish. 	O’quv faoliyati natijalari: Talaba: <ul style="list-style-type: none"> - Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliqlar mohiyati va xususiyatlarini tushuntirib bera oladi; - Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliqqa tortish ob’yektlari to’g’risida ma’lumotga ega bo’ladi; - Yer qa’ridan foydalanuvchilar uchun soliq stavkasi va imtiyozlarine izohlay oladi; - Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblash tartibini tushuntira oladi; - Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliqni to’lash tartibi va muddatlarini ayta oladi.
O’qitish vositalari	Tarqatma materiallar, marker, skoch, A2 formatdagi qog’oz, topshiriqlar.
O’qitish usullari	Munozarali seminar, suhbat, aqliy hujum.
O’qitish shakllari	Guruhlarda va individual ishlash
O’qitish sharoiti	Guruhlarda va individual ishlashga mo’ljallangan auditoriya

Amaliy mashg'ulotning texnologik xaritasi

Bosqichlar, vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O`qituvchi	Talaba
1-bosqich. Mavzuga kirish. (10 min)	<p>1.1. Mavzuni, maqsadi, rejadagi o`quv natijalarini e`lon qiladi, ularning ahamiyatini va dolzarbligini asoslaydi.</p> <p>1.2. Amaliy mashg'ulot darsi munozara tarzida o`tilishini e`lon qiladi.</p> <p>1.3. Bilimlarni faollashtirish maqsadida "Yer qa`ridan foydalanuvchilar qanday soliqlar va maxsus to`lovlarni to`laydilar?" savoli bilan murojaat qiladi.</p> <p>1.4. Munozara qoidasini eslatadi (1-ilova).</p>	1.1.Savollarni yozib oladilar
2 -bosqich. Asosiy bo`lim. (60 min)	<p>2.1. Talabalarni munozara savollari bilan tanishtiradi (2-ilova).</p> <p>2.2. Talabalar munozarasini tashkil etadi. Har bir javobning mazmuniga va mantiqiyligiga e`tibor beradi. Savollar berishni taklif etadi. Turli nuqtai-nazarlar tinglanadi va umumlashtiradi. Har bir savol muhokamasi umumiy xulosa bilan tugaydi.</p> <p>2.3. Talabalarning qo`shimcha savollariga javob beradi.</p>	<p>2.1. Eshitadilar va javoblarni tayyorlay-dilar.</p> <p>2.2. Talabalar savol-larga fikrlarini bildiradilar, qo`shimchalar qiladilar va savollar beradilar.</p> <p>2.3.Tinglaydilar.</p>
3-bosqich. Yakunlovchi (10 min)	<p>3.1.Amaliy mashg'ulot darsini yakunlaydi, savollar bo`yicha xulosalar chiqaradi, munozara ishtirokchilarini baholaydi (3-ilova).</p> <p>3.2.Mustaqil ish uchun vazifa beradi. "Resurs to`lovlarini hisoblash va to`lash tartibi" to`g`risida tahliliy hisobot tayyorlash</p>	<p>3.1.Tinglaydilar. Xulosalarni yozib oladilar.</p> <p>3.2. Topshiriqni yozib oladi.</p>

1-ilova

Munozara qatnashchilariga eslatma!

1. Munozara munosabatlar yig`indisi emas, balki muammo yechimi uslubiyatidan iborat.
2. Ko`p gapirmasdan, boshqalarning so`zlashiga imkon ber.
3. Maqsadga erishish yo`lida hissiyotlarinni jilovlab, batafsil o`ylagan holda so`zla.
4. Raqiblaring vaziyatini o`rganib, ularga hurmat bilan murojaat qil.
5. Raqiblaring tomonidan aytilgan fikrlarga tanqidiy va mulohazali yondash.
6. Munozara predmeti bo`yicha chetga chiqmagan holda to`g`ri yondashib gapir.

Muammoli amaliy mashg'ulotning boshqaruv dastaklari

Boshlovchi barcha vazifalarni o'ziga oladi - munozara bosqichlarini boshqarish, javoblarning asoslanishi va to'g'riligini tasdiqlash, qo'llangan termin va tushunchalarni aniqlash, munosabatlarni to'g'ri qo'llash va boshqalar. Taqdimotlarning taqsimotini to'g'ri boshqarish.

Taqrizchi - tomonlarning ma'ruzalarini yo'nalishlar bo'yicha belgilash va to'liq xarakterda baholash: dolzarbligi, ilmiy jihati, mantiqiyligi va masalalarning aniq qo'yilganligi, xulosalarning aniq ko'rsatilishi.

Raqib - qabul qilingan tadqiqot o'rtasida raqobatchilik jarayonini shakllantiradi. U faqatgina ma'ruzachining asosiy holatini tanqid qilish emas, shu bilan birgalikda, uning aytgan fikrlaridan zaif yoki xato tomonlarini topish hamda o'zining hal qiluvchi fikrlarini taklif qilishi ham mumkin.

Ekspert - barcha munozaralarning, jumladan, munozara qatnashchilari tomonidan aytilgan fikrlarning, qilingan xulosalarning, taklif va gipotezalarning mahsuldorligini baholaydi.

Munozara reglamentini o'tkazish tartibi

1. Boshlovchi ma'ruza mavzusi va ma'ruzachilarning taqdimotlarin e'lon qiladi.
2. Ma'ruza 5 minut davom etadi.
3. Taqrizchi - 2 minut.
4. Raqib - ma'ruza mavzusi bo'yicha fikrlarini 1-3 minut taqdim etadi.
5. Jamoaviy muhokama - 5-10 minut.

2-ilova

Munozara savollari:

1. Soliqqa tortish maqsadida yer qari boyliklari tushunchasi qanday ma'noni anglatadi va yer qa'ri boyliklariga nimalar kiradi?
2. Yer qaridan foydalanganlik uchun soliq to'lovchilar kimlar hisoblanadi?
3. Yer qaridan foydalanganlik uchun soliqqa tortish ob'yektlariga nimalar kiradi?
4. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari qanday va kim tomonidan belgilanadi?
5. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblash tartibi qanday?
6. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni tartibi to'lash qanday?
7. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni yuridik shaxslar qanday tartibda to'laydilar?
8. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha qanday imtiyozlar mavjud?

Baholash ko`rsatkichlari va mezonlari (ballarda)	Munozara ishtirokchilari			
	Ma`ruzachilar (F.I.SH.)			
	1	2	3	4
Ma`ruzaning mazmuni (2,5):				
- mavzuga mos kelishi (1,5);				
- mantiqiylik, aniqlik (0,5);				
- xulosalarni qisqaligi (0,5);				
Infomatsion texnologiyalardan foydalanganligi (ko`rgazmalilik) – (0,9).				
Reglament (0,6)				
Jami (4,0)				
	Taqrizchilar (F.I.SH.)			
Ma`ruzaning tavsifi (3,0)				
- ma`ruzaning kuchli tomonlari aniqlash (1,2)				
- ma`ruzaning zaif tomonlari aniqlash (1,2)				
Reglament (0,6)				
Jami (3,0)				
	Opponentlar, ishtirokchilar (F.I.SH.)			
Savollar:				
- har biri uchun (0,3)				
Qo`shimcha				
- har biri uchun (0,3)				
- mohiyati bo`yicha (0,3)				
Jami (3,0)				

1.6.6. “Mahalliy soliqlarni va yig’imlarni hisoblash va to’lash tartibi” mavzusi bo’yicha amaliy mashg’ulotlarning ta’lim texnologiyasi va texnologik xaritasi.

6.2. Amaliy mashg’ulotda o’qitish texnologiyasi

O’qish vaqti – 2 soat	Talabalar soni: 30-35 nafar
Mashg’ulot shakli	Bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish bo’yicha amaliy mashg’ulot.
Mashg’ulot rejasi	<ol style="list-style-type: none"> 1. Mahalliy soliqlar va yig’imlarning mohiyati va tarkibi. 2. Mol-mulk solig’i, uni hisoblash va to’lash tartibi. 3. Yer solig’i, uni hisoblash va budjetga to’lash tartibi. 4. Transport vositalariga benzin, dizel yoqilg’isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq. 5. Qishloq xo’jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarga yagona yer solig’i. 6. Obodonlashtirish va infratuzilmani rivojlantirish solig’i.
O’quv mashg’ulotining maqsadi: Mahalliy soliqlarni va yig’imlarni hisoblash va to’lash tartibi bo’yicha talabalar bilimlarini aniqlashtirish.	
Pedagogik vazifalar: <ul style="list-style-type: none"> - mavzu bo’yicha bilimlarni ongliravishda o’zlashtirish va mustahkamlashga undash; - mavzu bo’yicha bilimlarni tizim-ashtirish va mustahkamlash; - o’z fikrni shakllantirish va bildirish jarayonini tashkil qilish; - kommunikatsiya, guruhda ishlash ko’nikmalarini rivojlantirish. 	O’quv faoliyati natijalari: Talaba: <ul style="list-style-type: none"> - Mahalliy soliqlar va yig’imlarning mohiyati va tarkibi to’g’risida ma’lumot beradi; - Mol-mulk solig’i, uni hisoblash va to’lash tartibini tushuntirib beradi; - Yer solig’i, uni hisoblash va budjetga to’lash tartibi to’g’risida gapirib beradi; - Transport vositalariga benzin, dizel yoqilg’isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliqning mohiyatini ochib beradi; - Qishloq xo’jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarga yagona yer solig’i mazmunini yoritib beradi. - Obodonlashtirish va infratuzilmani rivojlantirish solig’ining mohiyatini tushuntirib beradi.
O’qitish vositalari	Ma’ruza matni, o’quv qo’llanma, proyektor, doska, bo’r, A2 bichimidagi qog’oz, marker
O’qitish usullari	Birgalikda o’qish, munozara, taqdimot, Blitz so’rov, sinkveyn, grafik tashkil etuvchilar, T-jadval, “Kaskad” texnikasi
O’qitish shakllari	Guruhiy, jamoada ishlash
O’qitish sharoiti	Texnik ta’minlangan, guruhlarda ishlashga moslashtirilgan auditoriya.

Amaliy mashg'ulotning texnologik xaritasi

Bosqichlar vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O`qituvchi	Talaba
1-bosqich. Kirish (5 min.)	<p>1.1. O`quv mashg'ulotining mavzusi maqsadi, rejalashtirilgan natijasi va uni o`tkazish rejasini aytadi.</p> <p>1.2. Talabalarni faollashtirish maqsadida mavzuuning tayanch iboralari asosida blits-so`rov o`tkazadi (1-ilova).</p> <p>1.3. O`qitish guruhlarda ishlash texnologiyasi asosida olib borilishini e`lon qiladi.</p>	<p>1.1. Tinglaydilar, yozib oladilar.</p> <p>1.2. Savollarga javob beradilar.</p> <p>1.3. Savollarga javob beradilar.</p>
2-bosqich. Asosiy (65 min.)	<p>2.1. Talabalarni 4 guruhga ajratadi. O`quv topshiriqlarini tarqatadi (3-ilova). Har bir talaba guruh bahosiga mos ravishda baho olishini tushuntiradi, guruhlarda ishlash qoidalari bilan tanishtiradi (2-ilova).</p> <p>2.2. Vazifa butun guruh tomonidan bajarilishini e`lon qiladi. Vazifani bajarishda darslik, ma`ruza matnlari va boshqa qo`llanmalardan foydalanish mumkinligini tushuntiradi. Kutilayotgan o`quv natijalarini eslatadi. Guruhlarda ishlarni boshlashni e`lon qiladi.</p> <p>2.3. Taqdimot va guruhlarda ishlash natijalarini o`zaro baholashni tashkil etadi. Javoblarni sharhlaydi, bilimlarni umumlashtiradi, vazifani bajarish jarayonidagi asosiy xulosalarga e`tiborni qaratadi (4-ilova).</p>	<p>2.1. O`quv topshiriqlarini baholash ko`rkichlari va mezonlari bilan tanishadilar. Vazifani bajaradilar.</p> <p>2.2. Taqdimot qiladi, to`ldiradi, boshqa guruhlariga savollar beradi va o`zaro baholashni amalga oshiradi.</p> <p>2.3. Yozib oladi.</p>
3-bosqich. Yakuniy (10 min.)	<p>3.1. Mashg'ulotga yakun yasaydi, xulosalarni umumlashtiradi, guruhda faol ishtirok etgan talabalarni baholaydi.</p> <p>3.2. Mustaqil ish uchun vazifa beradi: «Kaskad» texnikasidan foydalangan holda "Mahalliy soliqlar va yig'imlar"ning asosiy afzalliklari ko`rsating (5-ilova).</p>	<p>3.1. Tinglaydilar, aniqlashtiradilar.</p> <p>3.2. Mustaqil ish uchun vazifani yozib oladilar.</p>

1-ilova

Asosiy tushunchalar.

mahalliy soliqlar, yig'imlar, mol-mulk solig'i, yer solig'i, yagona yer solig'i, bonus, imzoli bonus, tijoratbop topilma bonusi, royalti, soliq solish ob'yekti, soliq stavkalari, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish.

Guruhning har bir a`zosi:

- √ o`z sheriklarining fikrlarini hurmat qilishlari lozim;
- √ berilgan topshiriqlar bo`yicha faol, hamkorlikda va mas`uliyat bilan ishlashlari lozim;
- √ o`zlariga yordam kerak bo`lganda so`rashlari mumkin;
- √ yordam so`rganlarga ko`mak berishlari lozim;
- √ guruhni ba`zlash jarayonida ishtirok etishlari lozim.

O`quv topshiriqlar

1-guruh

1-topshiriq. Mahalliy soliqlar va yigimlarning mohiyati va tarkibi to`g`risida ma`lumot bering.

2-topshiriq. “Mahalliy soliqlar” so`ziga sinkveyn tuzing.

3-topshiriq. Masalani yeching.

Korxonada asosiy vositalarining 1 yanvar holati bo`yicha qiymati 800 ming so`mni tashkil etib, aprel oyining birinchi 10 kunligida yana 150 ming so`mlik asosiy vosita kiritilgan. Asosiy vositalarning eskirish qiymati 1 yanvar holatiga 100; 1 fevral holatiga 115; 1 mart holatiga 130; 1 aprel holatiga 150 ming so`mni tashkil etadi.

Vazifa: Ushbu ma`lumotlarga asosan korxonada mol-mulk solig`ini hisoblash (1-chorak uchun).

2-guruh

1-topshiriq. Mol-mulk solig`i, uni hisoblash va to`lash tartibini tushuntirib bering;

2-topshiriq. “Mol-mulk solig`i” so`ziga sinkveyn tuzing.

3-topshiriq. Masalani yeching.

Korxonada asosiy vositalarining 1 yanvar holati bo`yicha qiymati 800 ming so`mni tashkil etib, aprel oyining birinchi 10 kunligida yana 150 ming so`mlik asosiy vosita kiritilgan. Asosiy vositalarning eskirish qiymati 1 yanvar holatiga 100; 1 fevral holatiga 115; 1 mart holatiga 130; 1 aprel holatiga 150 ming so`mni tashkil etadi.

a) 1 – korxonada mahsulot eksporti - 10 % ni;

b) 2 – korxonada mahsulot eksporti - 20 % ni;

b) 3 – korxonada mahsulot eksporti - 45 % ni;

Vazifa: Ushbu ma'lumotlarga asosan yuridik shaxs uchun mol-mulk solig'ini hisoblash.

3-guruh

1-topshiriq. Yer solig'i, uni hisoblash va budjetga to'lash tartibi to'g'risida gapirib bering.

2-topshiriq. "Yer solig'i" so'ziga sinkveyn tuzing.

3-topshiriq. Masalani yeching.

Buxoro shahrida joylashgan «Sulsherjahan» ishlab chiqarish korxonasiga shar hokimi qarori bilan ajratilgan yer maydoni 1,2 gani tashkil etadi.

Vazifa: korxonaning hisobot yilida to'lashi lozim bolgan yer solig'i summasini hisoblang, to'lash muddatlarini aniqlang. (Ma'lumot ucun: 1 ga yer uchun soliqqa tortiladigan soliq stavkasi 15230403 so'm.)

4-guruh

1-topshiriq. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarga yagona yer solig'i to'g'rida ma'lumot bering;

2-topshiriq. "Yagona yer solig'i" so'ziga sinkveyn tuzing.

3-topshiriq. Masalani yeching.

Buxoro shahrida joylashgan eski shahar qismida joylashgan «Orzu» ishlab chiqarish korxonasiga shar hokimi qarori bilan ajratilgan yer maydoni 0,8 gani tashkil etadi.

Vazifa: korxonaning hisobot yilida to'lashi lozim bolgan yer solig'i summasini hisoblang, to'lash muddatlarini aniqlang. (Ma'lumot ucun: 1 ga yer uchun soliqqa tortiladigan soliq stavkasi 19446 652 so'm.)

4-topshiriq

1 - va 2-guruhlar bajaradi.

T-sxemadan foydalanib “Transport vositalariga benzin, dizel yoqilg’isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq”ning mohiyatini ochib bering

T—sxema

To`lovchilari	Soliq solish ob’yekti

3 - va 4-guruhlar bajaradi

T-sxemadan foydalanib “Obodonlashtirish va infratuzilmani rivojlantirish solig’i”ning mohiyatini tushuntirib bering.

T—sxema

To`lovchilari	Soliq solish ob’yekti


4-ilova

Baholash jadvali

Guruh	Topshiriqlar				Umumiy ball (3 ball)	Baho 2-3 –«a`lo» 1-2 – «yaxshi» 0,5-1-«qon- li».
№	1	2	3	4	11	12
1						
2						
3						
4						

«Kaskad» texnikasi

Ushbu texnologiya g'oyalar tizimini ishlab chiqishga ko`mak beradi: Asosiy maqsadi: aniq va ijodiy fikrlash qobiliyatini faollashtirish.



1.7. “Yuridik shaxslarning soliqlari va soliqqa tortish” modulini o`qitishda interfaol usullarning mazmuni, ahamiyati va afzalliklari

Zamon talabiga javob beradigan pedagog-xodimlarni tayyorlash va ta`lim muassasalarida o`quv jarayonini samarali tashkil etishda yetarli ilmiy salohiyatga ega bo`lgan, ilm-fanning zamonaviy yutuqlari asosida mustaqil fikrlaydigan yoshlarni tarbiyalash hamda raqobatbardosh, yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, ilm-fanning jadal sur`atlar bilan o`sishi, zamonaviy axborot texnologiyalarning ta`siri ostida jamiyatda turli fan sohalarida bilimlarining yangilanib borishi, ta`lim oluvchilar oldiga ularni jadal sur`atlarda, mustaqil ravishda muntazam o`rganib borishini talab qiladi.

O`quv jarayonini yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish – esa ushbu muammolarni yechishga yordam berish bilan birgalikda ta`lim jarayonini samaradorligini oshirish orqali talabalar tomonidan o`qishdan ko`zlangan maqsadiga erishishga olib keladi. Bunda yangi pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish jarayoniga va «pedagogik texnologiya»ning mohiyatiga e`tiborni qaratib, – bu ta`lim, tarbiyalash tamoyillari va usullarini o`rganish san`ati, mahorati ekanligini anglab yetmoq darkor.

Darhaqiqat, O`zbekiston Respublikasining “Ta`lim to`g`risida” gi qonuni va “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”da belgilangan vazifalarni hayotga tadbiq etish, ta`lim jarayonini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida, ilg`or metodikalarni qo`llagan holda tashkil qilish va o`tkazish shu kunning muhim muammolaridan hisoblanadi.

Yangi pedagogik texnologiyalarni iqtisodiy fanlarni o`qitishda qo`llashdan ko`zlangan maqsad o`quv-tarbiya jarayonida talaba maqomini o`zgartirish, yangilash yo`li bilan ma`lumot mazmuni va uni o`rganish darajalarini zamon talabiga moslashtirish, o`quv materialini, o`quv predmetiga pedagogik ishlov berish, o`rganiladigan mavzuni talabalar ongiga hozirgi zamoni chuqur tahlil qilgan holda singdirish va talabalarni real bilish imkoniyatlariga moslashtirish va baholashga oid usullar va vositalarni ishlab chiqish, ta`limning tashkiliy shakllarini samarali tashkillashtirishdir. Bu texnologiyani ta`lim jarayoniga tadbiq qilishda

esa o`qituvchi va talaba o`rtasidagi yetakchilik tamoyilini chegaralab, koordinatsiya o`qituvchi va talaba faoliyatini o`zaro muvofiqlashtirishning yetakchi bo`g`iniga aylanadi va bu jarayonni o`qituvchi va talaba birgalikda amalga oshiradi. Bunda, ayniqsa har bir fandan tayyorlangan ma`ruzalar matnlari qo`l keladi. Talaba oldindan o`qitiladigan har bir mavzu bo`yicha boshlang`ich ma`lumotga ega bo`lib, dars jarayoni o`qituvchi uchun to`ldiruvchi va talaba uchun mustahkamlovchi jarayon bo`ladi. Bunda talabalarning faolligi asosiy o`rinda bo`lib, talaba mustaqil fikrlashni hamda adabiyotlar bilan ishlab, yetarli material to`plashni o`rganib oladi. Bundan tashqari shu mavzuga oid muammoli masalalarni o`rganib uning yechimini topishga harakat qiladi.

Yangi pedagogik texnologiyalarni ta`lim jarayonida qo`llash: **birinchidan** talabalarni mustaqil tayyorgarligi, bilim darajasi hamda o`quv materiallarini murakkab o`rganishi, ularni qo`llash samaradorligini oldindan bashorat qilgan holda foydalanishga, **ikkinchidan**, ma`lum bir iqtisodiy fanlarni o`qitishda talabalarning fanga qanday darajada qiziqishini va o`qituvchining yangi materiallarga mos keladigan pedagogik texnologiyalarni tanlashiga bog`liq.

Iqtisodiy yo`nalishda o`qitiladigan barcha fanlarni yangi pedagogik texnologiyalar asosida o`qitish uchun avvalo quyidagilarga e`tiborni qaratmoq

lozim:

- O`qitiladigan fandan darslik, o`quv qo`llanmalarining ta`minoti;
- Ma`ruzalarni o`qitishda muammoli vaziyatlarni o`rgatib, yechimini topish yo`llarni izlash;
- Dars jarayonida talabalarning faolligini oshirish;
- Muammoli masalalar orqali talabalarni mustaqil fikrlashga o`rgatish;
- Mavzuga taalluqli bo`lgan tarqatma materiallarning zamonaviy, xilma-xil bo`lishi;
- Dars jarayonida zamonaviy texnik vositalardan samarali foydalanish.

Bugungu kunda o`qitishning juda ko`plab usul va uslublari mavjud. O`quv jarayonida qo`yilgan maqsadga erishish uchun o`qituvchi ulardan samarali va ijodiy foydalanishi lozim. O`qitish usullarining bir necha tasniflari mavjud.

Ular asosan o`quv axboroti manbai bo`yicha hamda ta`lim beruvchi va ta`lim oluvchining o`zaro ta`siri usuliga ko`ra tasniflanadi.

Usullar tasnifi ikki guruhga bo`linadi:

1. bilimlarni dastlabki (yangi o`quv materialini) o`zlashtirishga yo`naltirilgan usullar;
2. olingan bilimlarni mustahkamlash va takomillashtirishga, o`quv va malakalarni egallashga imkon beruvchi usullar.

Hozirgi vaqtda o`qitishning quyidagi usullari keng qo`llaniladi:

Noimitatsion usullar. Muammoli ma`ruza, evristik suhbat, o`quv munozarasi, izlanish xarakteridagi laboratoriya ishi, tadqiqot usuli, o`qitish dasturi asosidagi mustaqil ish (dasturlashtirilgan o`qitish), kitob bilan mustaqil ishlash.

Imitatsion usullar (o`yinsiz mashg`ulotlar): aniq ishlab chiqarish vaziyatlarini tahlil etish, ishlab chiqarish vaziyatlariga bog`liq masalalar yechish, ko`rsatmalar bo`yicha mashq-faoliyat (ko`rsatmalar bo`yicha laboratoriya va amaliy ishlar bajarish), ishlab chiqarish amaliyoti jarayonida individual topshiriqlar bajarish.

O`yin usullari. Taqlid asosidagi faoliyat, rol o`ynash (ish o`yinlari elementlari), ish o`yini.

O`qitishning faol usullari bilishga bo`lgan qiziqishni orttiradi, fikrlashga, mustaqil bilim olishga o`rgatadi. Biroq ular ko`p vaqt talab etadi. Shuning uchun butun o`quv jarayonida ularni qo`llab bo`lmaydi. Ular bilan birgalikda an`anaviy usullar, ya`ni ma`ruza, tushuntirish, hikoya va boshqalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

O`qitishning axborot-rivojlantiruvchi usullari. O`qitishning axborot-rivojlantiruvchi usullari yordamida talabalar tayyor holdagi o`quv materiallarini o`zlashtiradilar. Ular o`qituvchi (ma`ruza, hikoya, tushuntirish, suhbat) yoki dktor (o`quv kinofil'mi) bayonini tinglaydilar yoki o`qitish dasturi asosida mustaqil bilim oladilar, darslik va qo`llanmalardagi o`quv materiallarini o`rganadilar.

O`qitishning muammoli – izlanish usullari. Bu usullarning o`ziga xos jihati shundan iboratki, bunda talabalar oldiga masala (muammo) qo`yiladi. Ular bu

masalalarni mustaqil hal qiladi. Buning uchun esa, ular yangi bilimlar izlaydi, “kashfiyotlar qiladi”, nazariy xulosalarini shakllantiradi.


Muammoli ma`ruza. Odatdagi ma`ruzadan shunisi bilan farq qiladiki, u savol, ya`ni muammo qo`yish orqali boshlanadi. Bu muammo esa o`quv materialini bayon etish jarayonida ma`ruzachi tomonidan izchil va mantiqiy holda yechib beriladi yoki uni hal etish yo`llari ko`rsatiladi. Muammo qo`yish o`quv materialining aniq mazmuni bilan bog`liq bo`ladi. Ma`ruza davomida ilmiy, ijtimoiy, kasbiy muammolar qo`yilishi mumkin.

O`quv munozarasi – muammoli o`qitish usullaridan biri. Uning mohiyatishundan iboratki, o`qituvchi ayni bir muammoga tegishli ikki nuqtai nazarni ilgari suradi hamda talabalarga o`z nuqtai nazarini tanlash va asoslashni taklif etadi. Bunda tabiiy, ilmiy yoki turmush-hayot bilan bog`liq qarama-qarshi ikki nuqtai nazar tanlanishi mumkin. Tadqiqot usuli shundan iboratki, talabalar mustaqil ravishda o`quv tadqiqoti olib boradilar va mashg`ulotlarda uning natijasi haqida ma`lumot beradi. To`plagan materiallari asosida o`rganilayotgan fan (kurs)ning nazariy asoslarini tasdiqlaydilar. O`quv tadqiqoti natijalaridan o`qituvchi mavzuni bayon etishda foydalanishi mumkin. O`quv tadqiqotlari fanlar bo`yicha tashkil etilgan to`garaklarda ko`proq olib boriladi.

O`qitishning amaliy usullari. Kasb-hunar ta`lim muassasalarining asosiy vazifasi – talabalarni kelgusidagi mehnat faoliyatiga tayyorlash. Menatga tayyorlash jarayoni o`z ichiga bir tomondan, talabalarga mehnat faoliyatida zarur bo`ladigan bilimlar berishni, ikkinchi tomondan esa, ularda kasbiy o`quv va malakani shakllantirishni qamrab oladi. Mutaxassisning o`z mehnat faoliyatida (ayniqsa o`zgaruvchan sharoitda) olgan nazariy bilimlarini amalda qo`llay olish qobiliyati katta ahamiyatga ega. O`quv yoki malaka faoliyat jarayonida shakllanadi.

Rol o`ynash. Rol o`ynash asosida hamisha ziddiyatli vaziyat yotadi. Masalan, ishlab chiqarish ustasi rejani bajarish uchun ishdan tashqari vaqtda ishlashga da`vat qiladi. Ishchi esa, me`yoriy ish kuniga amal qilish bo`yicha o`z huquqini himoyalab, mehnat tartibiga amal qilishni talab qiladi.

1.8. “Yuridik shaxs tushunchasi. Yuridik shaxslardan olinadigan soliqlar” mavzusi o`qitishda “Paradokslar” usulini qo`llash



Paradokslar usulini qo'llash qoidalari

Tinglovchilar bilimlarini faollashtirib olish zarur.

Tinglovchilar paradoks ob'ekti sifatida olinayotgan jarayon haqida o'z fikrlarini (qaysiki xato bo'lgan) to'g'ri degan xulosaga kelgan bo'lishlari kerak.

Tinglovchilar muammoviy vaziyatga o'zlari duch kelishlari kerak va to'g'ri deb bilgan narsalarining xato bo'lib chiqqanidan tushunmovchilikda qolishlari (hayron bo'lishlari) kerak. Bu o'ta muhim, chunki aynan shu sabab ular faol fikrlay boshlaydilar, xatolikni topishga harakat qiladilar.

Paradoksni, qarama-qarshilikni qandaydir bir qiyinchiliklar bilan adashtirmaslik lozim.

Paradokslar usuli - bu avvaldan bilganlari bilan yangi bilimlar o'rtasidagi ko'prikdir. Shu tarzda yangi bilimning avvaldan ma'lum bilim bilan o'zaro bog'lanishi va bu jarayonni his qilishga tinglovchini "majbur" qilinishi uni xotirada mustahkamlanib qolishiga yordam beradi.

Guruh bilan ishlash qoidalari:

Har bir guruh a'zosi:

- ✓ o'z sheriklarining fikrlarini xurmat qilishlari lozim;
- ✓ berilgan topshiriqlar bo'yicha faol, hamkorlikda va mas'uliyat bilan ishlashlari lozim;
- ✓ o'zlariga yordam kerak bo'lganda so'rashlari mumkin;
- ✓ yordam so'raganlarga ko'mak berishlari lozim;
- ✓ guruhni baholash jarayonida ishtirok etishlari lozim;

“Biz bir kemadamiz, birga cho'kamiz yoki birga qutilamiz” qoidasini yaxshi bilishlari lozim.

MUNOZARA USULI

Munozara usuli jarayonida yuzaga keladigan bahslashish fikrlashning ifodasi bo`libgina qolmay, shakllanib kelayotgan shaxs o`zining biror narsani hal etish, mustaqillikda kattalar bilan teng huquqli ekanligini yoqlash ehtiyojidir. Dars jarayonidagi bahs chog`ida o`qituvchi talabalar bilan baravar haqiqat izlovchisi bo`lib harakat qiladi. Ana shu bahsda u o`z bilimini namoyish etadi, keng fikrlaydi, fikrlarni dalillar bilan asoslaydi, bu fazilatlar esa talabalar o`rtasida o`zaro katta hurmat uyg`otadi. bahs jarayonida har bir talabaning "shaxsiy fikri", o`z mavqeini ifodalash va asoslash masalasi yuksak qadrlanadi.

Topshiriq usuli


Topshiriq usulining ijobiy tomoni shundaki, unda talabalar uchun yakka holda emas, guruh bilan birgalikda o`tilgan materialni qayta ko`rib chiqib, esga tushirishlari uchun sharoit yaratiladi. Bunda talabalar bilmagan yoki yoddan chiqargan bilimlarini bir-birlaridan o`rganadilar. Mustaqil bajarishga mo`ljallangan topshiriqlar o`quv semestri davomida talabalar tomonidan amalga oshirilib borilsa, talabalar materialni yodlariga tushirib, yakuniy nazoratlarni yaxshi topshirishlariga yordam beradi.

«Konvert» texnikasi uchun savollar

(Har bir savol konvertlarga alohida solinadi)

1-savol. "Yuridik shaxslar" va ularning turlari to`g`risida batafsil ma`lumot bering.
2-savol. Yuridik shaxslarning qanday o`ziga xos xususiyatlarini bilasiz?
3-savol. Vakolatli davlat organlari tarkibiga qaysi organlar kiritiladi? Ularning har biriga alohida izoh bering.
4-savol. Yuridik shaxslardan undiriladigan soliqlarga qaysi soliqlar kiradi?
5-savol. Yuridik shaxslardan undiriladigan boshqa majburiy to`lovlarlarga qaysi to`lovlar kiradi?
6-savol. Yuridik shaxslarni soliqqa tortishning qanday asosiy tamoyillari mavjud?

«Qanday?» organayzerini to'ldiring.



Atamalarni tanlash usuli

Har qaysi A ustundagi atamaga mos B ustundagi atamani tanlang.

A	B
1. Yuridik shaxs	a) O`zbekiston Respublikasining bojxona hududi doirasida tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) yoki moliyaviy mablag`larning erkin muomalada bo`lishini bevosita yoki bilvosita cheklab qo`yadigan soliqlar va boshqa majburiy to`lovlar belgilanishiga yo`l qo`yilmaydi.
2. Soliq to`lovchilar	b) soliq to`g`risidagi qonun hujjatlaridagi bartaraf etib bo`lmaydigan barcha qarama-qarshiliklar va noaniqliklar soliq to`lovchining foydasiga talqin qilinadi.
3. Soliq agentlari	c) soliq qonunchiligiga muvofiq zimmasiga soliqlar va boshqa majburiy to`lovlarni to`lash majburiyati yuklatilgan yuridik shaxslar va ularning alohida bo`linmalaridir.
4. Soliq solish	d) yuridik shaxslarga nisbatan mulkchilik shaklidan qat`iy nazar, qonun oldida tenglik, jismoniy shaxslarga nisbatan esa jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e`tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat`i nazar, qonun oldida tenglik asosida amalga oshiriladi.
5. Soliq solishning majburiy-ligi tamoyili	e) har bir shaxs soliq qonunchiligida belgilangan soliqlar va boshqa majburiy to`lovlarni to`lashi shart.

6. Soliq solishning aniqligi tamoyili	f) soliq qonunchiligiga muvofiq zimmasiga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblab chiqqarish, soliq to'lovchidan ushlab qolish hamda byudjetga va davlat maqsadli jamg'armalariga o'tkazish majburiyati yuklatilgan shaxslardir.
7. Soliq solishning adolatli-ligi tamoyili	h) Soliq to'g'risidagi qonun hujjatlari har bir soliq to'lovchi qaysi soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni, qachon, qancha miqdorda hamda qay tartibda to'lashi kerakligini aniq biladigan tarzda ifodalangan bo'lishi kerak.
8. Soliq tizimining yagona-ligi tamoyili	i) soliq solish masalalarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar rasmiy nashrlarda e'lon qilinishi shart.
9. Soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarining oshkoraligi tamoyili	j) fuqarolik huquq va majburiyatlarining sub'yektlari hisoblanuvchi korxonalar, muassasalar, tashkilotlar.
10. Soliq to'lovchining haq-ligi prezumptsiyasi tamoyili	k) soliq solish umumiydir.

“Sinkveyn” (5 qator) texnikasi

Maqsad – kategoriyaga xarakteristika berish

“Yuridik shaxs” tushunchasi

Sinkveyn sxemasi:

1-qator – tushuncha

2-qator – tushunchani tavsiflovchi 2 sifat


3-qator – ushbu tushuncha vazifalari to'g'risidagi 3 ta fe'l

4-qator – ushbu tushuncha mohiyati to'g'risidagi 4 so'zdan iborat so'z so'z birikmasi


5-qator – ushbu tushuncha sinonimi.

Piramida – bu topshiriqda ma'lum bir masala avval yakka holda, keyin juftliklarda, keyin kichik guruhlarda va so'ngra butun sinf bilan muhokama qilinadi.

«T - sxema» texnikasi



Kaskad texnikasi.



1.9. “Yuridik shaxslarning soliqlari va soliqqa tortish” moduli bo`yicha nazariy bilim va amaliy ko`nikmalarni baholash

Ta`lim oluvchilar tomonidan o`quv materiallari o`zlashtirilganligini, ko`nikma va malakalar hosil bo`lganligini tekshirish va baholash ta`lim jarayonining turli bosqichlarida ta`lim oluvchilarning bilish faoliyatiga rahbarlik qilish hamdir.

Baholash-ta`lim jarayonining ma`lum bosqichida o`quv maqsadlariga erishilganlik darajasini oldindan belgilangan mezonlar asosida o`lchash, natijalarni aniqlash va tahlil qilishdan iborat jarayondir.

Baholash “Akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari o`quvchilarining bilim saviyasi, ko`nikma va malakalarini nazorat qilishning reyting tizimi to`g`risidagi muvaqqat nizom” asosida amalga oshiriladi.

Ushbu nizomga asosan o`qitish saviyasi va o`zlashtirish darajasi davlat ta`lim standartlariga muvofiqligini ta`minlash uchun quyidagi nazorat tadbirlari o`tkazish nazarda tutiladi.

✓ Joriy nazorat (JN) – og`zaki so`rovlar, kollokviumlar, seminarlar, yozma ishlar, laboratoriya ishlari, uy vazifalari, testlar va shu kabi so`rov shakllari orqali amalga oshiriladi.

✓ Oraliq nazorat (ON) – fanning ma`lum bir qismi, bo`limi yakunlangandan so`ng o`tkaziladi, oraliq nazoratni o`tkazish tartibi va shakli ta`lim muassasining kafedralari tomonidan belgilanadi.

✓ Yakuniy nazorat (YAN) – semestr tamom bo`lgandan keyin amalga oshiriladi.

Har qanday baholash natijalari o`zaro taqqoslanishi, ya`ni o`lchanishi lozim bo`ladi. Ularni taqqoslash baholashdan oldin yoki keyin ishlab chiqilgan mezonlar asosida amalga oshirilishi mumkin. Baholash mezonlari o`quv maqsadlariga qay darajada erishilganlikni anglatuvchi ko`rsatkichdir. Bu ko`rsatkichlar sonlar («besh», «to`rt», «uch» va xokazo) so`zlar («a`lo», «yaxshi», «qoniqarli» va xokazo) yordamida tavsiflanishi mumkin. Boshqacha qilib aytadigan bo`lsak, baholash mezonlari ta`lim oluvchining qaysi o`zlashtirish darajasini namoyish qilishiga qarab mos qo`yiladigan baho ko`rsatkichining tavsifidan iborat.

$$R_{\text{semestr}} = (JN+ON+YAN) / 3$$

Agar fan bo`yicha oraliq nazorat o`tkazilmasa

$$R_{\text{semestr}} = (JN+YAN) / 2$$

Muayyan fan yoki o`quv amaliyoti bo`yicha yillik umumiy ball sifatida semestrlarda to`plangan ballarining o`rtachasi olinadi

$$R_{\text{yillik}} = (R1_{\text{semestr}} + R2_{\text{semestr}}) / 2$$

Bilimlarni tekshirish va baholash muayyan didaktik talablarga javob berishi kerak. Tekshirish va nazorat qilish sistemali, doimiy tarzda bo`lishi shart. Talabga rioya etilmasa, ta`lim oluvchilarning o`qishga nisbatan munosabati yomonlashadi, bilimlarning sifatiga salbiy ta`sir qiladi.

Ishlarni baholash ko`rsatkichlari va mezonlari

Guruh	1-topshiriq	2-topshiriq	3-topshiriq	Umumiy ball (3,0)
	(0,5)	(1,0)	(1,5)	
1				
2				
3				

2.1. Hayot faoliyati xavfsizligi va mehnat muhofazasini tashkil etish masalalari

Hayot faoliyati xavfsizligi – insonni ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan va bog'liq bo'lmagan faoliyatda uning atrof-muhitga antropologik ta'sirini hisobga olgan holda xavfsizligini ta'minlovchi bilimlar tizimini tushunamiz. Hayot faoliyati xavfsizligi har qanday yo'nalish bo'yicha o'zini izlanish ob'ektiga maqsad va vazifasiga hamda metodologik yo'lga bog'liq. Xavfsizlik deganda biz inson hayot faoliyati davomida mavjud bo'lgan salbiy omillarni ta'sir ehtimolini ma'lum darajada yoki butkul bartaraf qilinganini tushunamiz.

Mehnat muhofazasi ish jarayonida insonning mehnat qobiliyatini, sog'ligini va xavfsizligini ta'minlash uchun yunaltilgan majmuasi, ijtimoiy, iqtisodiy, tashkiliy, texnik, gigienik, profilaktik tadbirlarni o'z ichiga qamrab olgan.

Tashkilot va korxonalariga ishga yangi qabul qilingan barcha ishchilar ish o'rinlarida kirish instruktaji va birlamchi instruktajdan o'tganlaridan keyingina ishga qo'yilishlari mumkin.

Kirish instruktajini xavfsizlik texnikasi bo'yicha muhandis o'tkazadi. Bunda ishga qabul qilingan yangi ishchi ayni ishlab chiqarishdagi mehnatni muhofaza qilishning holati, ichki tartib-qoidalari, ishlab chiqarish sanitariyasi, yong'inga qarshi himoya tadbirlari bilan tanishadi. Kirish instruktaji bo'yicha mashg'ulotlar xavfsizlik texnikasi xonasida, ishlarning xavfsiz usullari tasvirlangan ko'rgazmali qo'llanmalardan foydalanib o'tkaziladi. Instruktaj o'tkazgan shaxs va undan o'tgan shaxslar maxsus kitobga imzo qo'yadi.

Xavfsizlik texnikasidan dastlabki instruktaj o'tkazilganligi haqida maxsus jurnalga yozib qo'yiladi. Instruktaj haqidagi jurnaldan olingan ko'chirma xodimning shaxsiy ishida saqlanishi kerak.

Ishchi qaysi rahbar ixtiyoriga yuborilsa, ish o'rnida instruktaj (ishlab chiqarish instruktaji) o'tkazishi bevosita shu rahbar zimmasiga yuklanadi. Ishchi boshqa ishga o'tkazalayotganida, ish sharoitlari va xarakteri o'zgartirilganida yoki alohida xatarli ishlarni bajarish uchun ishlab chiqarish topshirig'i berilganida xavfsizlik texnikasidan qo'shimcha instruktaj o'tkazilib, xatarsiz ishlash usullari amalda qilib ko'rsatiladi.

Kamida har olti oyda bir marta barcha ishchilar uchun ish o'rnining o'zida takror instruktaj tashkil etiladi.

Dastlabki instruktaj jurnalga yozilgani singari, ish o'rnida xavfsizlik texnikasidan o'tkazilgan instruktaj ham maxsus jurnalga yozib qo'yiladi. Ma'muriyat xavfsizlik texnikasi o'rgatiladigan maxsus kurslar ochib, ularga xavfsizlik texnikasi qoidalarini to'la-to'kis bilib olishlariga imkon tug'dirishi shart.

Ishchilar dastlabki instruktaj hamda ish o'rnining o'ziga instruktaj o'tkazilgandan keyin, (ishga olingan kundan hisoblab) kechi bilan uch oy muddat ichida bu kurslarda o'qitiladi.

Ishchilarning xavfsizlik texnikasi bo'yicha instruktajdan o'tishi va o'qitilishi qanday tashkil etilayotganini va ularning sifatini doimo nazorat qilib turish kasaba uyushmalarining korxonalar va viloyat qo'mitalariga yuklanadi.

Mehnatni tashkil qilish sharoitini va uning muhofaza qilinishini hamda ishchi va xizmatchilarga sanitariya-maishiy xizmat ko'rsatishni yanada yaxshilash uchun jamoa ish beruvchi va ishlovchi o'rtasidagi shartnoma katta ahamiyatga ega. Xavfsizlik texnikasi xizmati ishlab chiqarishda baxtsiz hodisalar va kasallanishlar sababini tahlil qiladi hamda shu tahlil natijasi asosida tadbirlar ro'yxatini tuzadi. Bu ro'yxatga yana baxtsiz hodisalar haqida tuzilgan dalolatnomasida ko'rsatilgan tadbirlar (N-1 formasi) hamda davlat va jamoat nazorat organlarining mablag' sarflashni talab qiladigan ko'rsatmalarida qayd qilingan tadbirlar ham kiritiladi.

Amalga oshirilishi zarur bo'lgan tadbirlarini bajarish uchun ma'lum miqdorda mablag' ajratiladi va mablag'larni boshqa maqsadlarga sarflash taqiqlanadi.

loyihalash jarayonida xonaning mikroiklim sharoitlari. Inson organizmi havo haroratining juda katta o'zgarishga moslasha oladi. Chunki odam organizmida uzluksiz ravishda issiqlik paydo bo'ladi va u tashqariga ajralib chiqib turadi, buning natijasida issiqlikning paydo bo'lishi va sarf qilinishi orasidagi doimiy nisbat hamda harorat bir xil darajada saqlanib turadi. Bu fiziologik jarayon esa organizmning issiqlik almashuvi deyiladi.

Havo harorati yuqori bo'lganda yoki havoda infraqizil nurlar bo'lganida, organizmning normal issiqlik ajralib chiqish jarayoni buziladi. Agar havo harorati

teng yoki undan ortiq bo`lsa, organizm o`zidan konvektsiya yo`li bilan issiqlik chiqara olmaydi. Bordi-yu buning ustiga havoga qizigan jismlardan infraqizil nurlar ajralib chiqib turgan bo`lsa, organizm o`zidan nurlanish yo`li bilan issiqlik chiqara olmaydi. Bunday hollarda organizmning issiqlik almashuvi juda qiyinlashadi, chunki organizmdagi ortiqcha issiqlik faqat terlash yo`li bilan tashqariga chiqadi. Havo namligi yuqori bo`lgan sharoitda esa organizmdan terlash yo`li bilan chiqadigan issiqlik qiyinlashadi va organizmdan ortiqcha issiqlik konvektsiya va nur tarqatish yo`li orqali chiqadi.

Sovuq havoning organizmga ta`siri juda yaxshi o`rganilmagan, shu narsa ma`lumki sovuq havoning ta`siri natijasida organizmlarning har xil bakteriyalarga bo`lgan qarshiligi susayadi. Natijada kishilar gripp, nafas olish yo`llarini shamollashi, o`pka shamollashi, nervni va bosh miyani shamollashi kasali bilan kasallanadilar. Shuning uchun ham bu kasalliklar shamollanish kasalligi deb ataladi. Havoning namligi va harakatchanligi ham kishi organizmiga sezilarli ta`sir qiladi va organizmning issiqlik almashuvining o`zgarishida ifodalanadi.

Yorug`lik inson faoliyati davomida juda muhim rol' o`ynaydi. Ko`rish inson uchun asosiy ma`lumot manba hisoblanadi. Umumiy olinadigan ma`lumotning taxminan 90% ko`z orqali olinadi. Shuning uchun ham o`quv muassasalarini oqilona yoritish sifatli mahsulot ishlab chiqarish sharoitini yaxshilaydi, ishchilarni charchashdan salaydi va unumdorligini oshiradi. Oqilona yoritilgan zonalarda ishlayotgan insonning kayfiyati yaxshi bo`ladi; shuningdek xavfsiz mehnat qilish sharoiti yaratiladi va buning natijasida baxtsiz hodisalar kesin kamayadi. Bundan ko`rinib turibdiki, o`quv muassasalaini yoritishga faqat gigienik talab qo`yilmasdan, balki texnik iqtisodiy talablar ham qo`yiladi. Elektromagnit spektrlarining to`lqin uzunliklari 10 n.m dan 340000 n.m gacha oraliqi spektrlari optik jaryoni deb ataladi, bundan 10 dan 380 nyum i infraqizil nurlar, 380 dan 770 n.m i ko`rinadigan nurlar va 770 dan 340000 n.m gacha bo`lganlari esa ultra-binafsha nurlar deb aytiladi. Biz ko`zimiz bilan binafsha rangdan toq qizil rangacha bo`lgan yorug`lik nurlarini sezamiz.

2.2. Xavfsiz va sog'lom mehnat qilish sharoitini yaratish tadbirlari

Tashkilot va muassasalarda xavfsizlikni ta'minlash va ish faoliyatini yaxshilash ma'muriyatning asosiy vazifasi sifatida mehnat qonunlari kodeksida yozib qo'yilgan. O'quv muassasalarida ish jarayonida shikastlanish va kasbiy kasalliklarni kamaytirish davlat miqyosidagi ijtimoiy – iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lib, mehnat muhofazasi bo'limi rahbariyat va kasaba uyushmalari bilan hamkorlikda chora tadbirlar belgilaydi. Korxonada yuz beradigan har qanday baxtsiz hodisaga muassasa rahbari va bosh muxandis bevosita javobgar hisoblanadi. O'quv muassasalarida qonun asosida mehnatni muhofaza etish masalalarini hal qilish maqsadida, har yili kasaba uyushmasi tashkilotlari bilan hamkorlikda mehnat muhofazasi chora – tadbirlarini ishlab chiqadi.

Mehnat sharoitini yaxshilanishiga olib keladigan jami tadbirlar mazmuni bo'yicha quyidagilarga bo'linadi:

- ✓ Baxtsiz hodisalarning oldini olish chora – tadbirlari.
- ✓ Ishlab chiqarishda kasb kasalliklarini oldini olish chora – tadbirlari.
- ✓ Mehnat sharoitini umumiy yaxshilash chora – tadbirlari.

Ishlab chiqarishda yangi texnologik jarayonlarini tadbik etish va umumiy rekonstruktsiya qilish xam mehnat sharoitini yaxshilash chora – tadbirlariga kiradi.

Sanitariya nazorati. O'quv muassasalarida davlat sanitariya nazoratini O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining sanitariya – epidemiologiya xizmati xodimlari olib boradi. Ularning asosiy vazifasi tashqi muhitni sanoatning zararli chiqindilari bilan ifloslanishining, O'quv muassasalarida ishlovchilar kasallanishining oldini olishga qaratilgan chora – tadbirlarni amalga oshirishda ularga amaliy yordam khrsatish belgilab qo'yilgan.

Sanitariya – epidemiologiya stantsiyalarining vakillari kapital qurilish ob'ektlarini qabul qilishda qatnashadi, kasbiy zaharlanish va kasallanishlari tekshiradi, korxonada ma'muriyati bilan birgalikda bu kasalliklarni yo'kotish chora – tadbirlarini ko'radi. Suv havzalaridan to'g'ri foydalanish va tashlandiq suvlarning suv havzalariga qo'shilishi masalalari bilan Sog'likni saqlash vazirligi Bosh sanitariya -

epidemiologiya boshkarmasining mahalliy sanitariya – epidemiologiya stantsiyalari shug'ullanadi.

Yong'in xavfsizligi oldini olish nazorat organi. Yong'in xavfsizligi nazorati Respublika Ichki ishlar vazirligining yong'indan muhofaza qilish Bosh boshkarmasi va mahalliy organlar zimmasiga yuklatilgan.

Mahalliy boshqaquv organlari va yong'indan muhofaza qilish bo'limlari hamda yong'inga qarshi kurashuvchi qismlar, o'zlari xizmat ko'rsatadigan sanoat korxonalarining hamma ob'ektlarida yong'inga qarshi chora – tadbirlarning bajarilishini, yong'inga qarshi kurash olib boruvchi xizmatchilarning tayyorligini, korxonadagi yong'inni o'chirish vositalarining ishga yaroqliligini va yangi ishlab chiqarish korxonalarini loyihalaganda yong'in xavfsizligiga rioya kilinayotganligini kuzatish yuli bilan nazorat kilib boradi. Yong'in chikmasligi choralirini kurish vazifasi xodimlar zimmasiga yuklatilgan.

Energetika nazorati. Davlat energetika nazorati O'zbekiston Respublikasi energetika va elektlashtirish vazirligining tegishli organlari tomonidan amalga oshiriladi. Uning asosiy vazifasi elektrostantsiyalarni, elektr va issiklik kurilmalarining texnik xolatini va ularda xavfsiz xizmat kursatishni nazorat kilib turishdan iborat. energetika nazorati elektr kuvvatidan to'g'ri foydalanilayotganligini va elektnligini va elektr texnik xolatini ko'zati b boradi.

Yong'inning kelib chiqish sabablari va turlari. Yong'in iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida yuz berib, yetkazadigan zarari jihatidan tabiiy ofatlariga tenglashishi mumkin bo'lgan hodisa hisoblanadi. Ular katta moddiy zarar keltirishi bilan birga og'ir baxtsiz hodisalarga: zaharlanish, kuyish hamda kishilar halokatiga sabab bo'lishi mumkin. Yong'inga qarshi kurash ishlari davlat miqyosida amalga oshiriladi. Yong'in xavfsizligini ta'minlash, uning rivojlanib, tarqalib ketmasligi chora – tadbirlarini oldindan ko'rish, unga qarshi samarali kurash olib borish yong'inni o'chirishda qo'llaniladigan birlamchi vositalardan to'g'ri foydalanishga qaratilgan.

Murakkab oksidlanish jarayonida yonuvchi moddalardagi bir moddaning ikkinchi moddaga aylanishi oqibatida katta mikdorda issiqlik va nurlanish ajralishi bilan kechadigan holatga yonish deb tushuniladi. Yong'inga asosan uch omil:

yonuvchi modda, yondiruvchi muhit, qizdirish jarayoni sabab bo`ladi. Yonish jarayoni, asosan, ikki xil bo`lishi mumkin. Birinchisidan, qattiq jismlar yonish jarayonida havo muhitidan ajralgan holda bo`ladi. Bunday yonish havo harorati natijasida yonish zonasini kislorod bilan ta`minlanganligi uchun diffuziyali yonish deyiladi, uni yog`och, ko`mir va boshqa moddalar yonganda kuzatish mumkin. Yonishning ikkinchi xili yonuvchi gazlar va suyuqliklarning parlari, yonuvchi moddalarning changlari havo bilan aralashgan holatdagi yonishi bo`lib, u kinetik yonish deb yuritiladi. Bunday yonish hajmli yonish jarayonida o`tadi.

Yonish tezligi modda to`yinganligiga, harakatiga boglik bo`ladi. Agar bunday yonish yopiq xajmlarda yoki idishlarda bo`lsa, portlash hodisasi ruy beradi.

Yonish kuyidagi turlarga bulinadi:

- ✓ Yonuvchi aralashmaning bir lahzada yonib, o`chishi;
- ✓ Qizdirish natijasida yonishning vujudga kelishi;
- ✓ Uchqunlanish natijasida alangangaga aylanish;
- ✓ Organik moddalar ichida ro`y beradigan ekzotermik reaksiyalar natijasida, yonuvchi aralashmaning tashqaridan qizdirishsiz o`z – o`zidan yonib ketishi;
- ✓ O`z – o`zidan alanganish, o`z – o`zidan yonishning alanga bilan davom etishi;
- ✓ Portlash - kimyoviy jarayonining bosim va quvvat hosil qilish bilan o`tishi;
- ✓ Yonuvchi modda ma`lum haroratda o`zidan yonuvchi bug ajratishi natijasida alanganishni ta`minlasa, bu harorat alanganish harorati deb yuritiladi. Ba`zi bir organik moddalar (torf, kipik, paxta, kumir maxsulotlari) o`z – o`zidan yonib ketish xususiyatiga ega. Chunki bular govak asosga ega bo`lganligi va oksidlanishi mumkin bo`lgan yuza juda kattaligi tufayli, ochik joylarda ma`lum mikdorda yigilib, ob – xavo o`zgarishi, kislorod ta`sirida kizib, yonib ketadi. Buning asosiy sababi, organik moddalar namlanganda uning ichki qismida mikroorganizmlar rivojlanadi va natijada issiklik ajralib chiqadi. Bu hodisa organik moddalarning o`z – o`zidan qizish jarayoni deb ataladi.

Tabiatda shunday aralashmalar uchraydiki, ularning haroratini tashqaridan oshirmagan xolda kimyoviy jarayonlar ro`y berishi va bu jarayonlar o`z – o`zidan

alangalanish hodisasini vujudga kelitirishi mumkin. Bunday hodisalarni zanjirli kimyoviy jarayonlar deb yuritiladi. Bu hodisaning bo`lishiga asosiy sabab aralashma holdagi yonuvchi moddalarda, ma`lum sharoit taqozosi bilan, harorat o`zgarmagan holda, bir necha markazda moddaning aktiv atomlari hosil bo`ladi hamda ular modda tarkibidagi molekulalar bilan aktiv reaksiyaga kirishadi, natijada yonuvchi modda molekulalari parchalanadi va yangi aktiv markazlar hosil qiladi.

Ishlab chiqarish binolaridagi talab qilingan havo muhiti quyidagi tadbirlarni amalga oshirish yo`li bilan bajariladi:

1. Ajralib chiqadigan issiqlik, chang va har xil gazlarni paydo bo`lgan joyidan ventilyator yordamida chiqarish.

2. Keladigan xom ashyo, mahsulotlarni tanishish yuklash ishlarini mexanizatsiyalashtirilgan.

3. Ish jarayonlari shunday tashkil qilinganki, unda ishlab chiqarish chiqindilarni ajratib chiqishi umuman kamaytirilgan.

4. Ishlab chiqarish binolarining ish o`rinlarini shakllantirish va isitish tizimlari bilan ta`minlangan.

5. Ishlovchilar shaxsiy himoya vositalari bilan ta`minlangan. Non zavodi binosida sarali va boshka ishlarni bajarish uchun yorug`likning etarli bo`lish talab qilinadi.

Yoritilganlikning iqtisodiy yechimlari. Korxonada yoritilganlikni me`yor darajasini yoki uning ortirilish mehnat unumdorligini ortishi bilan birgalikda yuz berishi mumkin bo`lgan baxtsiz hodisalarning kamayishiga yordam beradi. Bu ishlab chiqarish harajatlarning qimmatlashishiga olib kelsada, korxonada ishlab chiqarilayotgan mahsulotning sifatini yaxshilashga imkon beradi.

Korxonada hosil bo`lgan shovqin va tebranishlar texnologik tadbirlarni amalga oshirish natijasida me`yor darajasida bo`lib, ishlovchilarga salbiy ta`sir ko`rsatmaydi.

Yong`in xafvsizligini ta`minlash uchun javobgar shaxslar o`z kul ostilarida bo`lgan ishchilarni, yong`in xafvsizligi qoida va qonunlariga, o`qitish korxonada yong`inni o`chirishni tashkil qilish, yong`inni oldini olishga qaratilgan tadbirlar ishlab chiqish yong`in chiqishi ehtimollari yuqori bo`lgan materiallardan foydalanish

yul yo`riklarni ishlab chiqishi, yong'in sodir bo`lganda esa korxonada ishchilarning vazifalari yong'in xafvsizligi to`g`risida tashviqot-targ`ibot ishlarni olib borish vazifalari yuklatilgan.

Yong'in ta`sirida sodir bo`ladigan materiallar yo`qotishlari, yukolgan va buzilgan qurilish ob`ektlari, asosiy fondlarning olov, yuqori harorat ta`sirida yo`q bo`lishlari tushuniladi. YONG`inni tugatish uchun sarf bo`lgan harajatlarga yong'in tufayli to`xtab kolgan korxonada xarajatlari hisobga olinadi. Yong'in tufayli material yo`qotishlar quyidagi ifoda orqali aniqlanadi.

$$Mu = Sb - I - So$$

Bu erda:

Sb-balans qiymati, so`mda.

I-me`yor bo`yicha ruxsat etilgan eskirish, so`mda.

So-keyinchalik ishlatish mumkin bo`lgan qoldiq bahosi, so`mda.

Korxonalarida texnologik jarayonlar borishi natijasida atmosfera havosiga ma`lum miqdorda chang, bug` va har xil gazlar suv takibi esa har xil chiqindilar bilan ifloslanadi.

Korxonada atmosfera havosiga chiqarilib yuboriladigan chang aralash havo tsiklonlar orqali o`tkazilib, ma`lum miqdorda tozalangandan keyin atmosferaga qo`yib yuboriladi. Atmosferaga chiqarib yuborilgan havodan namuna olinib, uning tarkibidagi chiqindi aniqlanadi va bu ziyon quyidagicha ifodalanadi. Korxonada atmosfera havosiga chiqarayotgan moddalarning miqdori ruxsat etilgan normadan 5 baravardan ortiq bo`lsa, tabiatga yetkaziladigan iqtisodiy ziyon uchun to`lanadigan tovon foizi quyidagicha aniqlanadi:

$$N = X_m - CHk_1 * 100 / CHk_2 - CHk_1$$

Bu yerda:

CHk₁-shu korxonada uchun chiqindining kam ko`rsatkichi; 6mg/m³.

CHk₂-shu korxonada uchun chiqindini eng ko`p ko`rsatkichi, CHk₂=30mg/m³.

X_m-chiqindilarning haqiqiy miqdori.

Korxonaning tabiatga yetkazgan iqtisodiy ziyoni uchun korxonada to`laydigan tovon quyidagicha aniqlanadi.

$$Rm=Fr+Fig+Fik/100*N$$

Bu yerda:

F_r - rag'batlantirish fondi, so`mda.

F_{ik} - ishlab chiqarishni kengaytirish fondi, so`mda.

F_{ihq} - ish haqi fondi, so`mda.

Umuman olganda o`quv muassasalarida xodimlarning samarali mehnat qilish uchun xavfsiz mehnat sharoitini ta`minlab berish lozim. Buning uchun mehnatni muhofaza qilishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish va xavfsizlik qoidalariga so`zsiz rioya qilish zarur.

Xulosa

Bugungi kunda zamon talablaridan kelib chiqqan holda yuqori malakali kadrlarni tayyorlash va ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini samarali tashkil etishda yetarli ilmiy salohiyatga ega bo'lgan, ilm-fanning zamonaviy yutuqlari asosida mustaqil fikrlaydigan yoshlarni tarbiyalash hamda raqobatbardosh, ilm-fanning jadal sur'atlar bilan o'sishi, zamonaviy axborot texnologiyalarning ta'siri ostida jamiyatda turli fan sohalarida bilimlarining yangilanib borishi, ta'lim oluvchilar oldiga ularni jadal sur'atlarda, mustaqil ravishda muntazam o'rganib borishini talab qiladi.

Zamon talablari asosida mutaxassis kadrlarni tayyorlash esa, zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida olib boriladigan darslarga bevosita bog'liq bo'ladi.

Bugungi kunda o'qitishning zamonaviy o'quv uslubiyotini yaratish, o'quv jarayonini yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish, har bir mavzuni talaba ongiga tez va oson yetib borishi uchun interfaol usullarni qo'llash ta'lim jarayonini samaradorligini oshirish orqali talabalar tomonidan o'qishdan ko'zlangan maqsadiga erishishga olib keladi.

Bugungi tanlangan bitiruv malakaviy ishining mavzusi ham aynan shu muammolarning yechimini topish bilan bog'liq. Shu maqsadda, bitiruv malakaviy ishida "Yuridik shaxslarning soliqlari va soliqqa tortish" modulini yaratish va bu modul tarkibidagi mavzularni o'qitishda interfaol usullarni qo'llash metodikasi ishlab chiqichga harakat qildik. Bunda asosan "Soliq tizimi" fanining maqsad va vazifalarini belgilab olish masalalariga alohida to'xtalib o'tdik. Modul tarkibiga kiruvchi mavzularning har birini mazmunini to'liq yoritishga harakat qildik. Mavzularning o'quv maqsadlarini belgilab, mavzuni o'qitishda dastlabki shart-sharoitlar tahlilini qildik. Bunda asosan amaliyot davrida "Soliq tizimi" fani bo'yicha "Yuridik shaxslarning soliqlari va soliqqa tortish" moduli tarkibidagi mavzularni o'qitish jarayonida dastlabki shart-sharoitlarni tahlil qildik, bunda talabalar tahlili, shart-sharoit tahlili va maxsus soha tahliliga to'xtalib o'tdik.

Mavzuni o'qitish jarayonida didaktik materiallardan foydalanish bu mavzuni o'quvchilarning yanada osonroq tushinishiga yordam beradi. Didaktik materiallarni namoyish etishda ta'limning texnik vositalaridan foydalanilsa dars yanada samarali va tushunarli bo'lib, dars jarayonida o'quvchilarga berilayotgan material to'g'risida aniq tasavvurlarni shakllantiradi.

Bitiruv malaviy ishida modul tarkibidagi mavzularni nazariy va amaliy jihatdan o'qitish texnologiyalari va texnologik xaritalarini ishlab chiqishga harakat qildik.

Ishda mavzularni interfaoll usullarni qo'llash orqali o'qitishning nazariy va amaliy dars o'tish metodlari bilan birga qo'yilgan masalaning iqtisodiy izlanishlar natijalari keltirildi. Tadqiqot natijalariga muvofiq ilmiy va amaliy jihatdan asoslangan takliflarni berishga harakat qildik.

Bitiruv malakaviy ishining ikkinchi bobi Hayot faoliyati xavfsizligi masalalariga bag'ishlanadi. Bunda kasb-hunar kollejlarda mehnat muhofazasining tashkil etilishi masalalari hamda o'qitish jarayonida hayot xavfsizligi qoidalari, ya'ni texnika xavfsizligi va sanitariya-gigiena qoidalari, o'quv ustaxonalarida texnik xavfsizlikni ta'minlash hamda texnik qoidalarga rioya qilish bo'yicha ko'rsatmalarga doir ma'lumotlarni yoritishga harakat kildik.

Umuman, "Yuridik shaxslarning soliqlari va soliqqa tortish" moduli bo'yicha mavzularni o'qitishda interfaol usullarni qo'llash bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalarida bergan takliflarimiz kasb-hunar kollejlarda darslarning samaradorligini oshirishga va ta'lim sifatini yaxshilanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

I. O`zbekiston Respublikasi qonunlari

1. O`zbekiston Respublikasi Qonuni “Ta’lim to’g’risida”. O`zbekiston Respublikasining yangi qonunlari, 25-son, T.: Adolat, 1997.
2. O`zbekiston Respublikasi Qonuni “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to’g’risida”. O`zbekiston Respublikasining yangi qonunlari, 25-son, T.: Adolat, 1997.
3. O`zbekiston Respublikasi Qonuni Yoshlarga oid Davlat siyosati to’g’risida 2016 yil 12 avgust №O’RQ-406
4. O`zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi. –T.: Adolat, 2010.
5. “Soliq va byudjet siyosatining 2017 yilga mo’ljallangan asosiy yo’nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O`zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim qonun hujjatlariga o’zgartirish va qo’shimchalar kiritish to’g’risida 2016 yil 27 dekabrda O’RQ-417-son Qonuni.

II. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va qarorlari

6. O`zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo’yicha Harakatlar strategiyasi to’g’risida” O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son Farmoni.
7. 2017 yilgi soliq va byudjet siyosatining asosiy yo’nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O`zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim farmonlariga qo’shimcha va o’zgartirishlar kiritish, shuningdek ba’zilarini o’z kuchini yo’qotgan deb hisoblash to’g’risida” O`zbekiston Respublikasi Prezidentinin 2017 yil 18 martdagi PF-4993-son Farmoni.
8. Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 22 dekabrda PQ-2455-son qarori.

III. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari

9. Yuridik shaxsning alohida bo’linmalari bo’yicha soliqlarni to’lash tartibi to’g’risidagi nizomni tasdiqlash haqida O`zbekiston Respublikasi vazirlar Mahkamasining 2017 yil 27 fevraldagi 105-son qarori.

IV. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari

10. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2017 yilga mo`ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo`nalishlariga bag`ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma`ruzasi.//Xalq so`zi. 2017 yil yanvar.

11. Mirziyoyev Sh.M. “Erkin va farovon, demokratik O`zbekiston Davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz”. Sh.Mirziyoyevning O`zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag`ishlangan Oluy majlis palatalarining qo`shma majlisidagi nutqi.// Xalq so`zi. 2016 yil 15 dekabr.

12. Karimov I.A. Bosh maqsadimiz–mavjud qiyinchiliklarga qaramasdan, olib borayotgan islohotlarni, iqtisodiyotimizda tarkibiy o`zgarishlarni izchil davom ettirish, xususiy mulkchilik, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka yanada keng yo`l ochib berish hisobidan oldinga yurishdir. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning 2015 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2016 yilga mo`ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo`nalishlariga bag`ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma`ruzasi// Xalq so`zi, 2016 yil yanvar.

13. Karimov I.A. "2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko`taradigan yil bo`ladi" -T.: O`zbekiston, 2012.

14. Karimov I.A “Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi” -T.: O`zbekiston, 2011.

V. Дарсликлар

15. Аксенов С., Битюкова Л., Заугольников С., Крылов А., Ласкина И. Налоги и налогообложение: Учебник + практикум. М.: 2010.

16. Vahabov A., Jo`raev A. Soliqlar va soliqqa tortish. Darslik. –T.: “Iqtisod-moliya”, 2010.

17. Зозуля, В. В. Налогообложение природопользования: учебник и практикум для прикладного бакалавриата.– М.:Издательство Юрайт, 2015.

18. Левитас Д.Г. Педагогические технологии. Учебник. ИНФРА-М., М.:

2017.

19. Майбурова И.А. Налоги и налогообложение. Учебник. М.: ЮНИТИ ДАНА, 2010.

20. Налоги и налогообложение. Учебник. Серия: "Золотой фонд российских учебников". – 6-издание. Для студентов и преподавателей экономических специальностей вузов. Издательство: "Юнити-Дана", М.:2015.

21. Пансков, В. Г. Налоги и налогообложение: учебник и практикум для прикладного бакалавриата. – 5-е изд., перераб. и доп. – М.: Издательство Юрайт, 2016.

22. Пансков, В. Г. Налоги и налогообложение: теория и практика. Учебник и практикум для академического бакалавриата. – 5-е изд., перераб. и доп. – М.: Издательство Юрайт, 2016.

23. Таниев А. “Soliqlar va soliqqa tortish”. Uslubiy qo’llanma. СамДУ, С.:2011.

24. Xudoyqulov S.K. Soliq tizimi. Kasb-hunar kollejlari uchun o’quv qo’llanma 2-nashri. T.: “Ilm-ziyo”, 2013.

VI. O`quv qo`llanmalar

25. Axmedov Q.M., Ismoilov O.A. Янги педагогик технологиялар ва уларни жорий қилиш муаммолари, O`quv va metodik qo`llanma. –Fan va texnologiya. T.: 2012.

26. Ефимова Е.Г., Поспелова Е.Б. Налоги и налогообложение. Учебное пособие. – М.: 2014.

27. Jo’rayev A. , Toshmatov Sh. Soliqlar va soliqqa tortish. O’quv qo’llanma. – T.: Fan va texnologiya. 2011.

28. Jo’rayev A. Soliq nazariyasi. O’quv qo’llanma. – T.:“Iqtisod-moliya”, 2010.

29. Meliqo’ziyeva M., Mamajonova X. Ta’limning interfaol metodlari vositasida dars o’tish bo’yicha o’qituvchilar uchun metodik tavsiyalar. O’quv va metodik qo’llanma. – Fan va texnologiya. T.: 2014.

30. Налоги и налогообложение: Учебное пособие / Под общей редакцией к.э.н., доцента Лазуриной О. М. – Ярославль: МФЮА, 2014.

31. Пансков, В. Г., Левочкина Т. А. Налоги и налогообложение. Практикум: учебное пособие для вузов /– М.: Издательство Юрайт, 2015.

32. Soliqlar va soliqqa tortish fanidan o`quv qo`llanma. Toshkent tibbiyot akademiyasi, 1-Ijtimoiy fanlar kafedrası. – T.:2012.

33. Tojiev M., Yo`ldoshev U., Qudratov O. Hayot faoliyati xavfsizligi. T.: Mehnat. 2012.

34. Yuldashev A. Soliq va soliqqa tortish. O`quv qo`llanma.– Fan va texnologiya. T.:2011.

VII. Статистика тўпламлари маълумотлари

35. “O`zbekiston Respublikasi statistika boshqarmasi ma`lumotlari, T.: 2017.

VIII. Интернет сайтлари

www.press-service.uz.- Президент сайти.

www.gov.uz.- Ҳукумат sayti.

www.pravo.uz. Законодательная база Республики Узбекистан.

www.Ziyo.net;

www.soliq.uz

www.gov.uz//

www.lex.uz